

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 811.512.133'373+811.11'373**

DUSTMAMATOVA NILUFAR PIRIMKULOVNA

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA LUG‘AVIY GRADUONIMIYA

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMY
DARAJASINI OLIH UCHUN TAYYORLANGAN
DISSERTATSIYA**

Ilmy rahbar: f.f.d., professor Z.T.Xolmanova

Toshkent – 2023

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. GRADUONIMIYA TAVSIFI VA GRADUAL MUNOSABAT TADQIQI	
1.1-§. Graduonimiya tavsifi va uning yondosh tushunchalardan farqi.....	12
1.2-§. Jahon va rus tilshunosligida graduonimiya tadqiqi.....	30
1.3-§. O‘zbek tilshunosligida graduonimiyaning o‘rganilishi.....	37
I bobga doir xulosa.....	54
II BOB. O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA OT LEKSEMALAR GRADUONIMIYASI	
2.1-§. O‘zbek va rus tillarida shaxsni ifodalovchi lug‘aviy graduonimiya	57
2.2-§. O‘zbek va rus tillarida me‘yor-o‘lchov leksemalari graduonimiyasi.....	68
2.3-§. O‘zbek va rus tillarida maishiy tushunchalarni ifodalovchi lug‘aviy graduonimiya.....	74
2.4-§. O‘zbek va rus tillarida mavhum tushunchalarni ifodalovchi leksemalar graduonimiyasi.....	82
2.5-§. O‘zbek va rus tillarida soha tushunchalarini ifodalovchi lug‘aviy graduonimiya.....	84
II bobga doir xulosa.....	90
III BOB. O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA BELGINI IFODALOVCHI LUG‘AVIY GRADUONIMIYA	
3.1-§. O‘zbek va rus tillarida shaxsning tashqi belgilariga oid lug‘aviy graduonimiya.....	92
3.2-§. O‘zbek va rus tillarida shaxs fe‘l-atvoriga oid lug‘aviy graduonimiya.....	115
3.3-§. O‘zbek va rus tillarida rang ifodalovchi lug‘aviy graduonimiya.....	133
III bobga doir xulosa.....	142
XULOSA	144
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	148
ILOVALAR	161

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida olam lisoniy manzarasining belgi-xususiyat tizimini tahlil qilish, madaniyatlararo muloqotda belgi-xususiyatni kategorial baholash, lisoniy tizimda aks ettirish, idrok etishdagi ijtimoiy-sotsial, psixolingvistik, kognitiv omil masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shaxs, narsa-buyum, mavhum hamda aniq voqelik belgisi ma'lum kategorial darajada namoyon bo'ladi va o'zaro gradual munosabatni hosil qiladi. Gradual munosabat borliqdagi barcha jarayonlarda, sotsial-ijtimoiy voqelikda, ijtimoiy sohalarda kuzatiladigan hodisa bo'lib, lisoniy ongda turli ko'rinishda aks etadi hamda muayyan lisoniy vositalar orqali reallashadi. Graduonimiya turli daraja o'rtasidagi munosabat tizimi bo'lib, uni ilmiy asosda o'rganish tillararo universal xususiyatlarni va tildan foydalanuvchilarning tafakkuri, baholash omili bilan belgilanuvchi farqli jihatlarni aniqlashda ahamiyatlidir.

Dunyo tilshunosligida gradatsiya, gradual munosabat, graduonimiya, daraja kategoriyasi, turli tizimdagi rang bildiruvchi leksemalar semantikasi, sifat darajalari, onomastikada belgi bildiruvchi leksemalarning o'rni masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Darajalanishning fonetik, leksik, grammatik vositalari, semantik xususiyatlari, emotsional-ekspressiv funksiyasi tadqiq etilgan. O'zbek tilida daraja kategoriyasi, gradual munosabat leksik-semantik va grammatik aspektda o'rganilgan. Rus tilidagi sifat darajalari, hosil bo'lish usullari, graduonimiyaning xarakterli belgilari yoritilgan. Graduonimiya hodisasi turli lingvistik birliklarda namoyon bo'ladi. Shu kunga qadar o'zbek va rus tillaridagi lug'aviy graduonimiya monografik planda chog'ishtirma aspektda tadqiq etilmagan. O'zbek va rus tillaridagi lug'aviy birliklar graduonimiyasini chog'ishtirma aspektda o'rganish graduonimiyaning yuzaga kelish usullari, ko'rinishlari, har ikki til imkoniyatlari hamda emotsional-ekspressiv xususiyatlarini yoritishda ahamiyatlidir.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida til birliklarining semantik taraqqiyoti,

denotativ va konnotativ semalari kognitiv tilshunoslik, gender tilshunoslik, siyosiy lingvistika, pragmalingvistika, etnolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, yurisingvistika yoʻnalishlarida qiyosiy va chogʻishtirma aspektda oʻrganilmoqda. Til hodisalari antroposentrik nuqtayi nazaridan tadqiq etilmoqda. Shu bilan bir qatorda, anʻanaviy tarzda tizimli strukturaviy yondashuv asosida oʻzbek tili birliklarining umumiy va xususiy belgilari qiyoslash-chogʻishtirish asosida tahlil etilmoqda. Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirishda uni rivojlangan xalqaro metatillarga chogʻishtirish, mental xususiyatlari, kommunikativ, emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu dissertatsiya Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish toʻgʻrisida”gi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2018-yil 18-maydagi PQ-376-sonli “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini oʻzbek tiliga hamda oʻzbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari, mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion

g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turkiy tillar orasida birinchilardan bo‘lib o‘zbek tilida graduonimiyaning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Asos sifatida Alisher Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn” asaridagi “yig‘i” holatini ifodalovchi *ingramoq* → *singramoq* → *yig‘lamsinmoq* → *yig‘lamoq* → *siqtamoq* → *o‘kirmoq* → *hoy-hoy yig‘lamoq* darajalanish qatorini keltirish mumkin.

N.Trubetskoy, R.Yakobsonlarning fonologiya sohasidagi ishlarida graduonimiya hodisasi fonemalardagi muayyan belgining kam/ko‘plik darajasi asosida o‘zaro zidlanishini fonemalar gradual oppozitsiyasi sifatida baholashida aks etgan¹.

A.Xametova turkiy tillardagi ba‘zi so‘zlarning sifat darajalariga o‘xshash kuchli va emotsional belgini ifodalashini asoslab bergan². Biroq daraja va unga yondosh bo‘lgan hodisalar tahlili mazkur tadqiqotlarda kuzatilmadi. S.Giyasov sifatlarning belgini darajalash xususiyatlarida to‘xtalib, “leksik gradual oppozitsiyalar” tushunchasini tadqiq etgan hamda belgi darajasi va umumiy ijobiy baho, tashqi ijobiy baho orqali ushbu tushunchaning mohiyatini ochib bergan, o‘zbek va rus tillaridagi holat sifatlarining leksik-semantik xususiyatlarini sistem-struktur jihatdan tahlil qilgan³. Grammatik kategoriyani o‘rgangan H.Nigmatov qiyosiy darajani sifatga xos bo‘lgan tasniflovchi kategoriya ekanligi, lug‘aviy graduonimiya hodisasining asoslari va ko‘lami kabi masalalarni tadqiq etgan⁴. A.Hojiyev o‘zbek tilidagi ozaytirma sifat darajasining belgilarini qardosh tatar, turkman tillariga qiyosan tahlil qilgan, sifatlardagi qiyosiy, ozaytirma, orttirma

¹ Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М.: Иностранная литература, 1960. – 372 с.; Якобсон Р., Фант Г.М., Халле М. Введение в анализ речи // Новое в лингвистике. – М., 1962. – С.173-186.

² Хаметова А. Превосходная и преувеличительная степени имён прилагательных в тюркских языках (на материалах современных узбекского, уйгурского, казахского и туркменского языков). Дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1969.

³ Гиясов С. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Л.-Бухара, 1983. – С.22-32.

⁴ Нигматов Х. Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII-вв. – Ташкент: Фан, 1989. – С.155.

darajalarni shakllantirish usullari haqida izlanishlar olib borgan⁵. A.Mamajonov qo'shma gaplar gradatsiyasining o'zbek tilida ifodalanishi borasida mulohaza yuritib, gradatsiyaga ifodalilikni asta-sekin kuchaytirib/pasaytirib borish usuli sifatida yondashgan, ushbu hodisa qo'shma gaplarning bir nechta ergash va bosh gapli konstruksiyalarini yaratish uchun juda mos kelishini ta'kidlagan⁶. M.Fayzullayev sinonimiya hamda graduonimiya o'rtasidagi munosabatni tadqiq etgan⁷. Z.Mamarajabova sifatlarning semantik tarkibini konnotativ aspektda tekshirib, sifatning har bir ma'no turida konnotatsiyaning ifodalanishini, sifat darajalari shakllarining konnotativ xususiyatlarini tahlil qilgan⁸. N.Shirinoва darajalanishning so'zlar bog'lanishidagi predmetlik, belgi-xususiyat ma'nolarini voqelantirishdagi o'rni masalalarini o'rgangan⁹. J.Djumabayeva *gradatsiya* (bir matnda uchraydigan birlik) hamda *graduonimiya* (so'zlar darajalanishini aks ettiruvchi lisoniy hodisa) o'rtasidagi farqlarni ochib berib, so'z turkumlarini darajalanish qatorlari ko'rinishida tahlil qilgan¹⁰. O'zbek tilshunoslari R.Safarova, M.Narziyeva, Sh.Orifjonova, O.Bozorov, N.Vohidova, L.Elmurodova, J.Djumabayeva va G'.Rahmonovlar graduonimiya hodisasini turli aspektlarda tadqiq etishgan¹¹. Ta'kidlash joizki, turli til oilalariga mansub gradual leksemalar tahliliga bag'ishlangan ishlar ko'p emas.

⁵ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 109 б.

⁶ Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.41-42.

⁷ Файзуллаев М.Б. Сравнительно-типологические особенности лексико-семантических групп глаголов психического состояния в русском и узбекском языках. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1994. – 23 с.

⁸ Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 160 б.

⁹ Ширинова Н.Д. Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлаш воситалари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 123 б.

¹⁰ Джумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2014.

¹¹ Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке (на материале общепотребительных зоонимов). Дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 142 с.; Нарзиева М.Д. Семантическая структура имен существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Тошкент, 1992. – 28 с.; Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – 113 б.; Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 27 б.; Vokhidova N. Ergebnisse inerwebbasierten Umfragezur Graduonymie // Aktendes 43. Linguistischen Kolloquiums: Pragmantax II. Zumaktuellen Standder Linguistikund ihrer Teildisziplinen, 2007; Ko'rsatilgan muallif. Lexikalisch-semantische Graduonymieim Deutschen // GLDV-2007: Workshopon Lexical-Semanticand Ontological Resources: Proceedings / С.Kunze, L.Lemnitzer, R.Osswald. – p.119-128; Элмуродова Л.Н. Ўзбек тилида даража функционал-семантик майдони (белги даражаси микромайдони). Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 26 б.; Джумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 231 б.; Раҳмонов Ф. Ўзбек тилида луғавий

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlarining "Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va rus tillaridagi lug'aviy graduonimiyaning leksik-grammatik, semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash, umumlingvistik qonuniyatlar asosidagi universalialar hamda til imkoniyatlari, til sohiblarining idroki bilan bog'liq farqli belgilarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

graduonimiya, daraja kategoriyasi tavsiflarini umumlashtirish;

graduonimiya hodisasini tadqiqot predmeti nuqtayi nazaridan tavsiflash, yondosh tushunchalardan farqini ochib berish;

o'zbek va rus tillaridagi shaxs, narsa-buyum, voqea-hodisaga oid gradual qatorlarning semantik va grammatik xususiyatlarini tahlil qilish;

belgi bildiruvchi gradual qatorlarning semantik va grammatik xususiyatlarini yoritish;

o'zbek va rus tillaridagi gradual qatorlarning semantik tarkibi va milliy-madaniy o'ziga xosligini diskursiv planda aniqlash;

gradual munosabatning ichki lingvistik mexanizmga, lisoniy ong bosqichiga xos hodisa ekanligi haqidagi ilmiy farazni asoslash;

o'zbek va rus tillarida graduonimiyani shaxs, voqea-hodisa, narsa-buyum va belgi-xususiyat ma'nolaridagi farqlanish natijasi sifatida talqin qilishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida o'zbek va rus tillaridagi badiiy¹², ilmiy¹³, publitsistik¹⁴ matnlarda aks etgan lug'aviy birliklardagi gradual munosabat, o'zbek

синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати. Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2019. – 132 б.

¹² Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 2001. – 448 b.; Ko'rsatilgan mualluf. Muhokamatul-lug'atayn. 16-jild. – Toshkent: Fan, 2001. – 448 b.; Чехов А.П. Рассказы. Im Werden Verlag, München, 2005. – 42 с.; Hoshimov O'. Qalbingga quloq sol. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – 137 b.; Hamid Olimjon. She'rlar, nazm. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2016. – 48 b.; Vohidov E. O'zbekim: she'rlar, dostonlar, hajviyalar, muxammaslar, tarjimalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 400 b.; Oripov A. Saylanma. Toshkent: Tafakkur qanoti, 2018. – 128 b.; Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 2019. – 432 b.; Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar. – Toshkent: Sharq

va rus tillarining izohli¹⁵, sinonimlar lugʻatlari¹⁶, nazariy manbalarda qayd etilgan shaxsni ifodalovchi, sohalarga oid, belgi bildiruvchi soʻzlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini oʻzbek va rus tillaridagi daraja, graduonimiyaning umumiy va xususiy belgilari, lugʻaviy graduonimiya semantikasi va ifoda vositalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada chogʻishtirma, qiyosiy metod, tizimli tahlil, tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil, konseptual tahlil va modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

graduonimiyaning ortiq-kamlik darajasini koʻrsatish jihatidan yondosh tushunchalardan farqlari asoslangan, lugʻaviy graduonimiyaning milliy-madaniy konseptosferani ifodalashdagi lisoniy imkoniyatlari ochib berilgan;

oʻzbek va rus tillaridagi lugʻaviy graduonimiyaning universal va farqli belgilari, daraja koʻrinishlari, daraja hosil qilish vositalari, darajaning meʼyorga munosabati, til sohibining idroki, ijtimoiy munosabat belgilari aniqlangan;

oʻzbek tilida frazeologik biriklarning, rus tilida grammatik shakllarning yuqori semantik daraja ifodalash imkoniyatlarini tahlil qilish orqali graduonimiyada shaxs omilining oʻrni, subyektiv baho munosabati, til sohibining tafakkuri, mental xususiyatlari, etnik belgilarning aks etish darajasi aniqlangan;

sohalarga oid gradual qatorlarning oʻzbek va rus tili kommunikativ va emotsional-ekspressiv funksiyasini aks ettirishdagi oʻrni, narsa-buyum, voqea-

2019. – 544 b.; Крылов И.А. Басни. – М.: Эксмодетство, 2020. – 162 с.; <https://www.labyrinth.ru/books/361017/>
<https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/oybek-mukammal-asarlar-toplami/attachment/oybek-asarlar/?lng=lat>.

¹³ Холманова З.Т. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: ЎзМУ, 2007. – 177 б.; Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида харакат феълларининг семантикаси ва валентлиги. – Тошкент: Фан, 2013. – 118 б.; Джумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2014. – 153 б.; Колесникова С.М. Функционально-семантическая категория градуальности в современном русском языке. – М.: Флинта, 2021. – 280 с.

¹⁴ Сэпир Э. Градуирование: семантическое исследование // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16: Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С.70-78; Нигматова М.Ф. Градуонимические ряды в словаре узбекских, английских синонимов // Вестник науки и образования. – Иваново, 2021, №2 (105).

¹⁵ <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/>; <https://ushakovdictionary.ru/>.

¹⁶ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 б.; Vobojonov Sh., Islomov I. Oʻzbek tilining soʻzlar darajalanishi oʻquv lugʻati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 46 b.; Бабенко Л.Г. и др. Словарь-тезаурис синонимов русского языка. – М.: АСТ-Пресс, 2021. – 448 с.

hodisalardagi gradual belgilarning baholash prizmasidan o'tishi, shaxs lisoniy ongida qaror topishi, idrok etilishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek va rus tili uchun universal va spetsifik gradual belgilar, o'zbek va rus tili diskursidagi subyektiv bahoni ko'rsatuvchi daraja ko'rinishlarining leksik-semantik mundariyasi yoritilgan;

sifatlar semantikasining asosini graduonimiya hodisasi belgilab berishi dalillangan hamda sifat darajalari semantik belgilarining diskursiv o'zgarishi bir nechta asosga ega ekanligi: harakat yo'nalishi va chiziqdagi masofasi, nomlanish xususiyati (kattalashish/kichrayish), miqdoriy belgi ko'rinishi dalillangan;

o'zbek va rus tillaridagi gradual qatorlarning polileksem va monoleksem birliklari nafaqat ushbu tillarning morfologik va sintaktik xususiyatlariga, balki etnik va madaniy xususiyatlariga ham bog'liqligi ko'rsatib berilgan;

rus tilidagi affikslarning miqdoriy ustunligi belgining xususiyatlarini aniqlab berishga xizmat qilishi hamda o'zbek va rus tillaridagi affikslardan unumli foydalanish imkoniyati asoslangan;

gradual qator, daraja turlari hamda o'zbek va rus tili gradual ekvivalentlarini yaxlit tizimga solish, daraja lug'atlarini shakllantirish nafaqat bu tillardagi o'xshashliklar va farqlarni yoritishda, balki tarjimashunoslik borasidagi muammolarni hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'zbek va rus adiblarining she'riy va nasriy janrlarda yaratilgan asarlarida aks etgan graduonimiya haqidagi nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, metodikaning nisbatan mukammalligi, qo'yilgan muammoning aniq va yetarlicha asoslanganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, jahon tilshunosligining yangi yo'nalishlari va tahliliy usullari asosida tadqiq qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati sifat darajalarining kognitiv va lingvistik mohiyatini o'rganish bilan belgilanishi, miqdoriy va belgi

bildiruvchi birliklarning semantik mohiyati aniqlangani, pragmatik ma'nolarning kognitiv diskursda ishlatilishi, tildagi qiyoslash va orttirma daraja ifodasini ochib beruvchi mantiqiy chog'ishtirish tasvirlab berilgani, o'zbek va rus tillaridagi lug'aviy graduonimiyaning zamonaviy tizimiga aniqlik kiritilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek va rus tillarida graduonimiya, sifat darajalari kategoriyalarini yoritib berishda, ilmiy xulosalardan zamonaviy o'zbek va rus tillaridan qo'llanma, darsliklar yozishda, tilshunoslikning nazariy va amaliy muammolarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek va rus tillaridagi graduonimiya tahlili bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'zbek va rus tillaridagi graduonimiyaning universal va farqli belgilari, daraja ko'rinishlari, daraja hosil qilish vositalari, darajaning me'yorga munosabat ekanligi, til sohibining idroki, ijtimoiy munosabatlar tahlillari, darajalanishning turkologiyaga oid qadimgi manbalarda kuzatilishi, ilmiy adabiyotlardagi talqiniga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2019-2022-yillarda bajarilgan A-OT-2019-10 raqamli "O'zbek tilida neyning: me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 19-noyabrdagi 04/1-3194-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek va rus tillaridagi graduonimiyaning kommunikativ, emotsional-ekspressiv xususiyatlarini ko'rsatishga erishilgan;

o'zbek tilshunosligiga yangi yo'nalish sifatida kirib kelayotgan antroposentrik tilshunoslik, uning yo'nalishlari, graduonimiyada shaxs omilining o'rni, subyektiv baho munosabati, til sohibining tafakkuri, dunyoqarashi, mental xususiyatlari, etnik belgilarining aks etishi haqidagi nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2022-yillarda bajarilgan AM-FZ-201908172 raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" nomli amaliy loyihaning nazariy qismida foydalanilgan (Alisher Navoiy

nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 4-fevraldagi 01/4-246-son ma’lumotnomasi). Natijada graduonimiyaning shakllanishi, o‘zbek va rus tillari tizimida tutgan o‘rni, graduonimiyaga yondashuvlarning xilma-xilligi, darajalanishning leksik-semantik, kognitiv xususiyatlari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

narsa-buyum, voqea-hodisalarning graduonimik belgiga egaligi, mazkur belgilarning baholash prizmasidan o‘tishi, shaxs lisoniy ongida qaror topishi, idrok etilishi haqidagi ilmiy-nazariy xulosalardan Sirdaryo viloyat teleradiokompaniyasining “Xayrli kun!” ko‘rsatuvi ssenariylarini yozishda foydalanilgan (O‘zMTRK Sirdaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 9-noyabrdagi 482-son ma’lumotnomasi). Natijada teleko‘rsatuv uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni nazariy va amaliy ma’lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 7 ta maqola, shundan, 4 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 145 sahifani tashkil etadi.

I BOB. GRADUONIMIYA TAVSIFI VA GRADUAL MUNOSABAT TADQIQI

1.1-§. Graduonimiya tavsifi va uning yondosh tushunchalardan farqi

Jahon tilshunosligida tillar tipologiyasini o‘rganish XIX asr oxiri XX asr o‘rtalarigacha davom etib, ular orasidagi farq va o‘xshashliklarni aniqlash hozirgi tadqiqotlarda o‘z aksini topmoqda. Aynan shu davrda tilshunoslikning empirik (tasvir etish) jihatidan dialektik (mohiyat) tomonga o‘tishi kuzatilgan. Semantika tilshunoslikning uzviy qismi, uning tuzilishi keng qamrovli, pragmatik ma’no kasb etishi semantikaning predmet va uning belgisi o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Tadqiqotimiz predmeti bo‘lgan graduonimiya bevosita semantika bilan aloqador. Hozirgi kunga qadar bevosita graduonimiya termini bilan nomlanmagan bo‘lsa-da, shu kabi hodisani ko‘plab olimlar (N.Grech, G.Pavskiy, A.Potebnya, A.Nikulin, V.Vinogradov, N.Arutyunova, Y.Volf, I.Ubin, B.Norman, E.Sepir, D.Bolindjer, R.Boyar) o‘z ilmiy izlanishlarida tahlil etishgan. Ular aks ettirgan belgi darajalari Arastu davridan to hozirgi paytgacha graduonimiyani tadqiq etishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ba’zi bir daraja va me’yorni anglatuvchi so‘zlarni tadqiq etish E.Sepir, D.Bolindjer, Y.Krjijkova, Y.Sheygal, A.Baranova, T.Markelova, I.Turanskiy kabi olimlar orasida keng tarqalgan. Aksariyat tilshunoslar graduonimiya hodisasini miqdor, belgi, intensivlik, iyerarxik munosabatlar, dennotativ va konnotativ makroelementlar asosida shakllanishi hamda gradosemaning zarur element sifatida yuzaga chiqishini qayd etishgan. Graduonimiyaga oid izlanishlarda aksariyat o‘rinda darajalanish haqida so‘z yuritilgan, darajalanishga oid tadqiqotlarda ko‘pincha sifat darajalari tushuniladi, biroq lug‘aviy darajalanish va sifat darajalari boshqa-boshqa hodisadir.

Graduonimiya hodisasi borasidagi ilk izlanishlar Arastu bilan bevosita bog‘liq, u o‘z tadqiqotlarida 10 ta kategoriyani (substansiya, miqdor, sifat, munosabat, vaqt, makon, holat, o‘rin, harakat, kechinma) ajratish barobarida qiyoslash va miqdor kategoriyalaridan tashqari ular sirasiga sifat kategoriyasini

kiritgan, ularning ba'zi hollarda ortiqroq/kamroq darajaga ega ekanligini ta'kidlab, nafaqat darajalanish mexanizmi, balki darajalanishga moyil bo'lgan so'zlar kategoriyasi, ya'ni daraja obyektini ham belgilab bergan. Ushbu so'zlar kategoriyasiga belgi va xususiyat kategoriyalarini kiritgan va *ko'p/kam* tushunchalari bir-biri bilan qiyoslanishi, belgi va xususiyatlar ko'proq/kamroq darajada bo'lishi bilan bir qatorda "o'ziga nisbatan qarama-qarshilikda bo'lishi va ortiq yoki kam darajada qo'llanishi mumkin"ligini ta'kidlagan¹⁷. Olim binar oppozitsiya usuli bilan zidlanishni qarama-qarshi qo'ygan hamda ma'no jihatidan keskin farq qiladigan sinonimiya va antonimiya munosabatlarini graduonimiya hodisasida mujassamlashtirgan, graduonimiya zamirida ikki hodisaning o'zaro munosabatlarini ham chegaralab bergan. Darajalanuvchi belgi ostida birlashgan qatorning ikki chekka birligi to'liq zidlanishi, ziddiyat denotativ sema asosida emas, balki konnotativ sema negizida yuzaga kelishi kuzatiladi.

Har bir insonning tafakkuri o'ziga xos tasavvurga ega. Yuqorida tilga olingan binarlik tushunchasi borasida ham binar oppozitsiya sinonimlar va antonimlarni o'zida birlashtirishi, hosil bo'lgan gradual qatorning ikki chekka birligi o'zaro zidlanishi haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Graduonimiya hodisasi o'z tadqiqini kutib yotgan lingvistik muammo, so'zlovchining yetkazib bermoqchi bo'lgan munosabatlari va maqsadi bilan uzviy bog'liq. Daraja bildiruvchi so'zlar, daraja kategoriyasi, daraja-miqdor holi, daraja-miqdor ergash gapli qo'shma gaplar sifatida turli jihatdan alohida o'rganish obyekti bo'lgan. Bu esa har bir tilning o'ziga xos ifoda vositalari, grammatik tuzilishlari mavjudligidan dalolat beradi.

N.Trubetskoy va R.Yakobson fonologiya sohasidagi ishlarida fonemalardagi muayyan belgining ko'p/kamlik darajasi asosida ularning o'zaro zidlanishlarini fonemalarning gradual oppozitsiyalari sifatida talqin etishgan, turli tillardagi tovushlar juft xususiyatlaridan (*jarangli/jarangsiz, qattiq/yumshoq* kabi) kelib chiqqan holda aniqlash mumkinligini hamda fonologik metodologiya asosida binar

¹⁷ <http://lib.ru/POEEAST/ARISTOTEL/kategorii.txt>.

farqlar mavjudligi, fonemalardan soʻzlarni hosil qilishda fonemalar soni soʻzlarga nisbatan kamligini taʼkidlashgan¹⁸. Nutqning minimal birligi boʻlgan fonemalar talaffuzi jarayonida kuzatilgani kabi, darajalanuvchi soʻz birliklarini ham nafaqat zid qoʻyish, balki zidlashning oʻlchami, meʼyori, kognitiv komponent tuzilmasining aloqasini taʼminlash imkonini beradi.

S.Katsnelson lugʻaviy sinonim qatorlar baʼzida belgi darajalanishi farqlariga ham ega boʻlishi mumkinligini taʼkidlab, oraliq holatlar mavjudligi, ular leksik birliklar bilan ifodalanishini, gradual qator uchlari oʻzaro antonimik munosabatda boʻlsa, ular oraligʻidagi soʻzlar qatorida bir holat yoki belgidan ikkinchisiga oʻtishi va sinonim soʻzlar qatorini hosil qilishi borasida ham fikr yuritgan¹⁹. Y.Stepanov bu borada qatordagi soʻzlar uchlari oʻzaro antonimik juftliklar, oʻzaro sinonimik munosabatlarni hosil qilishi, graduonimiya hodisasi sinonimiya, antonimiya bilan bogʻliqligini taʼkidlagan, masalan: *semizlik/ozgʻinlik* maʼnosida:

истоцённый – тощий – худой – сухопарый – нормальный – упитанный – полный
-4 -3 -2 -1 0 +1 +2²⁰.

Zamonaviy tilshunoslikda aniqlangan graduonimiya hodisasi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan mantiqiy-semantik (E.Sepir), leksik-grammatik (S.Kolesnikova, V.Gorshkova) kategoriya sifatida talqin etilgan. I.Turanskiy ushbu hodisani intensivlikka, I.Sushinskiy esa kuchaytirma kommunikativ-pragmatik kategoriya tarkibiga kiritgan. Graduallik borasida soʻz ketganda intensivlik ham tilga olinadi. Y.Sheygal intensivlikka quyidagicha taʼrif bergan: “Intensivlik kategoriyasi belgining taxminiy miqdorini bildirib, nodiskret miqdor sifatida taʼriflanayotgan xususiy miqdor koʻrinishi hisoblanadi”²¹. Daraja kategoriyasida ushbu kategoriyaning mazmuni asosini tashkil etuvchi intensiv belgi atamasidan foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi. Oʻzbek va rus tillarida graduonimiya hodisasi bevosita intensivlik bilan chambarchas bogʻliq, chunki graduonimiya

¹⁸ Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М.: Иностранная литература, 1960. – 372 с.; Якобсон Р., Фант Г.М., Халле М. Введение в анализ речи // Новое в лингвистике. – М., 1962. – С.173-186.

¹⁹ Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение. – М.-Л.: Наука, 1965. – С.81-83.

²⁰ Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. – М.: Просвещение, 1975. – С.38.

²¹ Шейгал Е.И. Интенсивность как компонент семантики слова в современном английском языке. Дисс. ... док. филол. наук. – М., 1981. – 244 с.

hodisasining barcha tashkiliy bosqichlari va qatorlarida intensivlikning oʻrni oʻziga xos boʻlib, belgining kuchaytirish maʼnolarini oʻzida mujassam etadi.

Oʻtgan asrda graduallashishda meʼyor va ularning qutblarini tadqiq etgan E.Sepir graduonimiya hodisasini psixologik jarayon sifatida oʻlcham va miqdoriy xususiyatlarga bogʻliqligini taʼkidlab, hissiyotlarning ortishi/kamayishiga koʻra *mantiqiy, psixologik, lingvistik* graduallashish turlariga ajratgan. U nafaqat graduallashishdagi markaziy va boshlangʻich nuqta, gradual shkala va uning qutblari, balki graduonimiyani psixologik jarayon sifatida belgi va miqdordan oldin inson tafakkurida shakllanishini asoslagan: “Biror narsani miqdor yordamida ifodalanishiga moyil boʻlgan soʻzlar ... oʻz zamirida eksplitsitlikning toʻrt darajasiga ega ekanligi (potensial graduallashgan soʻzlar yoki iboralar (*uy-uylar*); kvantifikatsiya natijasida implitsit graduallashgan soʻzlar yoki iboralar (*uyning yarmi-oʻnta uy*); implitsit graduallashish natijasida kvantifikatsiyalashgan soʻzlar yoki iboralar (*uyning koʻp qismi, katta uy, koʻp uylar*); eksplitsit graduallashgan, biroq implitsit kvantifikatsiyalashgan soʻzlar yoki birikmalar (*uydan (koʻra/nisbatan) katta, kattaroq uy, ...dan uylar koʻp*)” aniqlangan²². Demak, nafaqat lisoniy iboralar, balki ular ifodalayotgan belgi va xususiyatlar ortiq/kam darajada graduallasha oladi. E.Sepir tilning barcha qatlamlarida gradual munosabatlarni aniqlash barobarida Ferdinand de Sossyurning til oʻxshashliklar va farqlardan iborat, degan fikriga qoʻshimcha ravishda oʻz ona tilida soʻzlashuvchi shaxs atrofidagi olamning maʼlum bir belgisidagi farqlarni oʻz tafakkuri orqali ifodalashi va shu sababli ham tillarda farqlar mavjudligini taʼkidlagan.

Leksik birliklar D.Kruz tasnifida (zanjir, spiral, aylanasimon, martaba, daraja anglatuvchi leksemalar, miqdor va hajmiga koʻra darajalanuvchi atamalar/otlar) oʻz aksini topgan²³ va yuqoridagi tasnif koʻrinishlarida soʻzlarning asl holati gradual munosabatga hech qanday qoʻshimchalar qoʻllanmagan holda shakllangan. Unda darajalanishga oid taʼriflar mujassamlashganligini koʻrish mumkin:

²² Сэпир Э. Градуирование: семантическое исследование // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16: Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С.43-78.

²³ Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P.183-200.

- a) qo‘shimcha vositalar qo‘llanmasligi;
- b) asosiy lug‘aviy ma‘nosiga ko‘ra darajalanishi;
- v) gradual shkalada ularning o‘zaro miqdori va belgisiga ko‘ra farqlanishi;
- g) gradual qatordagi so‘zlar dominanta so‘z atrofida birlashishi.

Olim gap tuzish jarayonini o‘ziga xos darajalanishga mos ravishda *sentence level* (gap qatlami), *clause level* (qo‘shma gapning sodda gapga teng qatlami), *phrase level* (so‘z birikmasi qatlami), *word level* (so‘z qatlami), *morpheme level* (morfema qatlami) ko‘rinishida aks ettirgan²⁴.

Graduonimiyani semantik jihatdan sinonimiya, antonimiya kabi leksik paradigmalar bilan qiyoslashda leksik birliklarning sinonimik qatorga birlashishiga umumiy integral belgi semasining a‘zolari asos bo‘lishi aniqlangan. Demak, gradual qatorni hosil qilishda semantik tuzilma uchun belgi va miqdor ko‘rsatkichlari muhim, chunki ular gradual paradigmalarni shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Tuzilishiga ko‘ra gradual paradigma qatoridagi dominantaning mavjudligi boshqa a‘zolarining pog‘onaviy tarzda joylashuvini taqozo etadi. Leksik vositalarning imkoniyatlari birmuncha chegaralangan, chunki ular gradual ma‘noni to‘liq ifodalab bera olmaydi. Ma‘noni to‘laqonli ochib berish esa gradual sintaktik tuzilma tarkibidagi uzluksiz semaga ega bo‘lgan so‘zlar hisobiga amalga oshiriladi.

S.Kolesnikova graduonimiya sintaktik va stilistik darajada yuzaga kelishi, asliy sifatlarda ifoda etilayotgan belgi graduonimiyasi, daraja ravishlari bilan bevosita bog‘lanib keladigan fe‘llarda hosil qilinishini ta‘kidlab, leksik graduonimiyani grammatik hamda nogrammatik turlarga ajratgan, sifatlarda intensivlik funksional-semantik kategoriya sifatida to‘laqonli ravishda graduallik kategoriyasiga asoslanganligini ta‘kidlagan²⁵.

U *graduallik*, *graduonimiya* hodisalarini o‘rganib, o‘lchov/daraja, belgining katta/kichikligi va mavjud/mavjud emasligini tasvirlovchi so‘z, so‘z birikmasi, gaplardagi shu funksiyani ifodalovchi ko‘p ma‘noli so‘zni darajalanishning birligi

²⁴ Ko‘rsatilgan manba. – P.183.

²⁵ Колесникова С.М. Градационные отношения в современном русском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1993. – 225 с.

sifatida belgilab bergan. Graduallik markaziy a'zo, ikki qarama-qarshi me'yoriy, me'yordan ortiq uch a'zodan tarkib topishini ta'kidlab, gradual lug'atni ikki guruhga ajratadi:

a) *asosiy* – sifatlar, otlar, fe'llar, chunki ularning gradual ma'nosi leksemada mujassam: sinonim/antonim darajasida – *белый, чёрный, красивый* va h.; fe'llarda graduator funksiyasini affikslar (*варить – недоварить, переварить*) bajaradi;

b) *yordamchi* (sintaktik kvantifikatorlar) – o'lchov va daraja ravishlari graduatorlar funksiyasini bajaradi hamda gradual ma'noni ifodalashda asosiy vositalar orqali ifodalanadi (*очень интересная; гораздо лучше; просто хорошая*). So'zlovchining boshqa predmet, belgi, holat, harakat va hokazolarning o'lchov belgisiga bo'lgan munosabati, ularning ortib/kamayib borish xususiyatlari, belgilar orasidagi farqlarni aniqlash uchun me'yoriy birlik (0)dan foydalanish, graduonimiyaning maydonida *grand-yetakchi* hamda *grand-hosil qilinuvchi* tushunchalarining aks ettirilishi borasida izlanishlar olib borib, *gradatsiya, graduallik, gradual munosabatlar, graduonimiya* atamalarini umumiy tilshunoslikka olib kirgan va graduallik kategoriyasini semantik maydon hamda rus tilidagi tizimli aloqalari, munosabatlarini tadqiq etgan. Olima graduonimiya hodisasi va belgi miqdoriy ifodalanishining bir-biri bilan bog'liqligiga ishora qilib, gradual qator tuzishda zarur asosiy tushunchalarni ta'kidlagan: bir kattalikning ikkinchisiga bosqichma-bosqich o'tishi; ochiq strukturaning ma'lum bir nuqtasida nolning joylashuvi; nol holatiga ko'ra *ortiq/kam; balandroq/pastroq* kabi graduatorlarga asoslangan holda ma'nolar joylashuvi; bir turkumga oid graduallashuvchi so'zlarni chog'ishtirish; graduallashishning yo'nalishiga ko'ra o'zgarishi (interpolyatsiya [lot. *interpolate* – o'zgarish] natijasida)²⁶.

Graduallikning kognitiv sohasi R.Leneker tomonidan aniqlangan bo'lib, u o'z zamirida atrofdagi olam bilan o'zaro aloqa davomida insonning erishgan bilimlari yig'indisi hisoblangan. Hattoki, "inson omili" ta'siri asosida diqqat-

²⁶ Колесникова С.М. Категория градуальности в современном русском языке. Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1999. – С.3.

e'tiborini tortuvchi "lingvistik fanlar integratsiyasi" an'anasi²⁷ paydo bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaholanki, ushbu jihat graduonimiya hodisasini semantik, grammatik, pragmatik jihatdan tadqiq etish imkonini yaratib, tilshunoslikda gradual munosabatlarni tahlil etishga zamin yaratadi.

P.Lekant, N.Golsovalar sifatlar uchun komparativ va superlativ kabi sifat darajalari kategoriyalari xosligi haqida so'z yuritib, ular haqida ma'lumot berishgan, semantik paradigma ostida birlashgan sifatlar aynan o'z ma'nosini bildirishi hamda graduonimiya hodisasiga hech qanday aloqasi yo'qligini ta'kidlashgan²⁸. M.Bondarenko gradual qatorning leksik-semantik maydon komponenti sifatida kelishi leksik birliklarni gradual qatorga birlashtirishda maydon tamoyilini qo'llash noo'rin ekanligi, leksik-semantik maydon "markazchekka qism" tamoyiliga ko'ra hosil qilinishiga urg'u bergan²⁹.

Tadqiqotimizda I.Galperin tomonidan *graduonimiya* atamasi bilan bir qatorda *gradatsiya* atamasi "bosqichma-bosqich kuchaytirib yoki pasaytirib borishini ta'minlovchi tartibda joylashuvi", bunda *klimaks* gradual o'sish hamda stilistik vosita sifatida ta'riflangan³⁰. M.Biyervish gradatsiya atamasini aynan sifat, qisman ravish darajalariga nisbatan qo'llab, ularning o'ziga xos semantik, sintaktik xususiyatlari borasida so'z yuritgan³¹. *Gradatsiya* atamasi rus lug'atida quyidagicha ta'riflangan: "*gradatsiya* – biror belgi ortishi/kamayishi tarzida biror jarayonning bosqichlarga, davrlarga bo'linishi"³². Yana birida: "*Gradatsiya* – "biror belgi, harakatning bir holatdan ikkinchi holatga bosqichma-bosqich, navbatma-navbat o'tishidagi ortib/kamayib borishi"³³, deya ta'riflangan. O.Axmanova esa shunday izohlagan: "*Gradatsiya* – klimaks va antiklimaksni

²⁷ Колесникова С.М. Категория градуальности в современном русском языке. Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1999. – С.14.

²⁸ Лекант П.А., Гольцова Н.Г. и др. Современный русский литературный язык. – М.: Высшая школа, 2001. – С.218.

²⁹ Бондаренко М.В. Градуальность как свойство лексики и основание для построения лексической парадигмы. Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2001. – 138 с.

³⁰ Galperin I. Stylistics. – М.: Высшая школа, 1977. – 334 с.

³¹ Bierwisch M. The Semantics of Gradation. – Berlin: Springer-Verlag, 1989. – P.70-75.

³² Словарь синонимов русского языка / Под ред. Евгеньевой А.П. – М.: Астрель: АСТ, 2003. – 702 с.

³³ Большой академический словарь русского языка. Под ред. К.С.Горбачевича. – М.-СПб.: АН, 2004. Т.4. – С.365.

birlashtiruvchi umumiy atama, bunda *klimaks* – gap qismlarining har bir keyingi qismi avvalgisiga qaraganda to‘yingan, ifodali yoki ta’sirchan bo‘lishidan iborat nutq figurasi”³⁴. Demak, aslida lotin tilida mavjud bo‘lgan *gradatio* so‘zi “ortib borish, o‘shish” ma’nolarini anglatib, *gradi* “odim tashlamoq” hamda *gradus* “qadam, harakat, yaqinlashish, pog‘ona, daraja” so‘zlaridan hosil qilingan hamda XVIII asrning oxirlarida fransuz tili orqali rus tiliga o‘zlashgan.

O‘TILda *gradatsiya* [lot. *gradatio* – asta-sekin balandlatish, kuchaytirish <*gradus* – daraja, bosqich]. Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma’nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy vosita sifatida ta’riflangan.

Gradus [lot. *gradus* – daraja, bosqich] 1. Aylananing 360⁰ dan bir bo‘lagiga teng burchak yoki yoy o‘lchov birligi. 2. Temperatura o‘lchov birligi: daraja. *O‘ttiz besh gradus issiq. Toshkentdan kelgan lektor “Oyda hayot bormi?” degan mavzuda leksiya o‘qib, “Oyda kechasi yuz gradus sovuq, kunduzi yuz gradus issiq bo‘ladi”, – degandi.* Said Ahmad. Ufq. Suyuqlikning zichligini, shuningdek, eritma yoki spirt kuchini o‘lchash birligi³⁵. Qo‘shimcha ravishda lug‘atdagi *daraja* so‘ziga ma’nodosh *daraja-badaraja* ravishi, *darajama-daraja* sifatiga “tadrijiy ravishda, bir darajadan ikkinchi darajaga ko‘tarilib, asta-sekin” ta’rifi mavjud.

Rus tilshunosligida *graduonimiya* atamasi quyidagicha ta’riflangan:

1) *graduallik* – keng qamrovli tushuncha, ikki ma’nodosh shakli mavjud: a) graduonimiyaning bosqichlar/pog‘onalarga bo‘linishi, gradual shkalaning joylashishida ma’lum bir ko‘rinishdagi bosqichma-bosqichlik xarakterliligi; b) ma’no va emotsional jihatidan ortib/pasayib borish tartibidagi so‘zlardan iborat stilistik shakl ham graduonimiyani hosil qilishi;

2) *gradual munosabat* – grammatik jihatdan subyekt va obyektning belgi sifati, darajasi, miqdorini me’yorga nisbatan ifodalab beruvchi o‘zaro munosabatlari; *graduonimiya* esa belgining nol darajasiga nisbatan gradual shkalada aks ettirilishini anglatadi;

³⁴ Словарь лингвистических терминов. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.

³⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – Б.510 <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/>

3) *gradual lug'at* – darajalanish ma'nosidagi so'zlar, so'z birikmalar;
4) *gradual shkala* – belgining ortib/kamayib borishini aks ettiruvchi, maksimal va minimal belgi chegaralariga ega bo'lgan birlik;

5) *graduator* – belgini orttiruvchi/kamaytiruvchi maxsus vosita (affikslar, lug'aviy vositalar va h.), u quyidagi funksiyalarga ega: a) bir belgidan ikkinchi belgiga o'tishda umumiy gradual tushuncha; b) belgining ortishi/kamayishiga ta'sir etuvchi maxsus vositalar (daraja-miqdor ravishlari, olmoshlar, yuklamalar va h.); *ko'p/kam (больше/меньше)*, *baland/past (выше/ниже)* kabi so'zlari ham graduator sifatida o'zbek va rus tillarida gaplar tarkibida uchraydi;

6) *gradual funksiya* – turli obyektlar belgisining (eng) yuqori/(eng) past darajalarini ifodalovchi kommunikativ maqsadga ega bo'lib, ushbu funktsiyani faqatgina gradosemalar mavjud til vositalari tashkil etadi;

7) *gradosema* (lot. *gradus* – bosqich, daraja; yunon. *sema* – belgi) – graduallik miqdorining ortishi/kamayishi sifatida belgilab beruvchi birlik, gradual shkalada turli yo'nalishlarda (xoh yuqoriga/xoh pastga) joylashishi mumkin. Gradosemaning asosi sifatida affikslar, qo'shimcha tovushlar, harflar, so'zlar ishtirok etishi mumkin;

8) *gradotativ* – graduallik belgisining natijasini taqdim etuvchi graduatorlarning harakatlarini aks ettiradigan gradual shkala o'lchamlariga ega bo'lgan lisoniy birlik. Bu tushuncha me'yoriy (0) daraja bilan mutanosib bo'ladi.

Graduator va *gradosema* atamalari *gradotativ* atamasi bilan o'zaro bog'liq, chunki gradotativ shakllanishi uchun gradosemalar va graduatorlar mavjudligi muhimdir.

9) *graduallashtiruvchi subyekt* – atrof-muhitdagi obyektlarga nisbatan o'z miqdoriy munosabatlarini ifodalovchi subyekt;

10) *graduallashayotgan obyekt* – fazoviy tuzatishlarni inobatga olgan holda belgi xususiyatlarining namoyon bo'lishi;

11) *graduallikning funksional-semantik kategoriyasi* – gradual semantikani turli ko'rinishlar va usullarda ifodalashda muhim ahamiyat kasb etgan til vositalari

tahlili. Gradual semantikani talqin etuvchi asos lug‘aviy jihat hisoblansa, gradual ma’no ifodalashda asliy sifatlarning o‘rni beqiyos³⁶.

XX asrning so‘ngida lingvistik kategoriya sifatida graduallik kategoriyasi masalasini o‘rganishda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Graduallik falsafa, mantiq, psixologiyaga asoslanib, insonning ongi, dunyoqarashi, faoliyati, atrof-olamga nisbatan bo‘lgan munosabatlarning ko‘proq/kamroq namoyon bo‘lishi bilan bir qatorda gradual shkala shaklida ifodalanadi. Bu holatda graduallik markazida to‘liq darajalanish, uning atrofida qisman darajalanish kuzatiladi. *Graduallik* deganda, *gradatsiya*, *gradual munosabatlar*, *graduallashish* ham tushuniladi.

A.Sherbakov gradatsiyaning stilistik uslublardagi ahamiyatini statistik ma’lumotlar orqali ko‘rsatgan: gradatsiyaning stilistik uslubi publitsistik asarlarda baholovchi (27%) va ajratuvchi (26,2%) funksiyalarini amalga oshirishga yordam bersa, eng kam uchraydiganlari aniqlashtiruvchi (11,2%) va matn hosil qiluvchi (10,3%) funksiyalarga to‘g‘ri kelgan. Ajratuvchi va mantiqiy funksiyalar, asosan, oratorlar nutqida juda ko‘p (65,7%) uchrasa, eng kam uchraydigan emotsional-kuchaytiruvchi (13,2%) funksiyadir. Badiiy adabiyotda esa yuqori ko‘rsatkichni emotsional-kuchaytiruvchi (21,3%), ajratuvchi-mantiqiy (21,1%), tasviriy (20,6%) funksiyalar egallaydi. Bu uslub uchun tavsiflovchi (12,1%) hamda ritm hosil qiluvchi funksiyalar eng kam uchraydigan funksiyalardir (11%). Gradual munosabatlar antonimlar va sinonimlardan ajralib turishi hamda ular bilan o‘zaro bog‘liqligi borasida so‘z yuritib, gradual shkalani to‘rt asosiy qism (belgining yuqori va eng yuqori darajasi, belgining past va eng past darajasi hamda ularning markazidagi neytral nuqta)ga bo‘lish maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan³⁷.

Gradatsiyaning stilistik funksiyasi atamasiga berilgan ta’rifda ham o‘z aksini topgan: “*gradatsiya* – (lot. *gradatio* – bosqichma-bosqichlik) stilistik usul: so‘zlar (iboralar, qo‘shma gaplar) joylashuvi, bunda har bir keyingi so‘z avvalgisining ma’nosini kuchaytiradi (ba’zida kuchsizlantiradi), bu esa voqealar, harakatlar,

³⁶ Колесникова С.М. Категория градуальности в современном русском языке. Дисс. ... док. филол. наук. – М., 1999. – С.66-102.

³⁷ Щербakov А.В. Градация как стилистическое явление современного русского литературного языка. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Красноярск, 2004. – С.27-28.

fikrlar va his-tuyg'ular jarayonini yaratish imkonini beradi – rivojlanish jihatidan esa kichikdan kattagacha yoki kattadan kichikkacha. Graduonimiya tufayli intonatsiya va nutqning hissiyligi oshadi³⁸. Demak, *gradatsiya* – so'zlarning emotsionallik ifodalanishi va ma'nolarining ortib/kamayib boruvchi tartibidagi so'zlar qatori, u faqat nutqqa xosligi o'z isbotini topdi.

Gradatsiya darajasi (belgi intensivligi darajasi) *gradual shkala* tushunchasining tadbiq etilishiga sabab bo'ladi. *Gradual shkala* – belgi darajasining ortib/kamayib borish sifatida ko'p/kam/teng nisbiy graduatorlar birliklarining tartibga solinishi bo'lib, shkalada belgilangan nuqtalar subyektiv xususiyatga egadir: uning asosini individning idrok etishi hamda baholashi tashkil etadi. Belgi gradatsiyasi ma'lum qoidalarga ko'ra modellashtiriladi. Shu bilan birga belgini ifodalashda gradual shkala gorizontal va vertikal ko'rinishlarda amalga oshiriladi. Bunda shkala to'rt qismga bo'linishi lozim: belgining yuqori darajasi (+; –), belgining eng yuqori darajasi (+; +), belgining past darajasi (–; +), eng past darajasi (–; –). Shkala markazida neytral me'yoriy nuqta (0) joylashadi hamda tasniflovchi vazifani bajaradi. Shu bilan bir qatorda inson hamda uni qurshab olgan obyektlar orasidagi faoliyat ham o'rnatilishi, belgining o'lchami, darajalarini ham belgilab berishi, unda joylashgan so'zlar esa gradatsiyaning darajasini belgilab berish asosida lug'aviy me'yorga nisbatan graduallashuvchi darajaning (predmet, harakat, holat, predmet belgisi/holati) qay darajada uzoqlashishi/yaqinlashishini belgilab beradi.

Gradual shkala gradual qatordan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

gradual shkalaning asosiy sharti – me'yor (yoki dastlabki nuqtasi), ya'ni belgining me'yorga nisbatan ortib/kamayib borishi;

shkala hosil qilish xususiyatiga ko'ra gradual shkala turli shakllar ko'rinishida bo'lishi ham mumkin. Xususan, bu shakllar shkala hosil qilish belgisi, chegaralanganlik, davriylik ko'rsatkichlariga ko'ra aniqlanadi.

³⁸ Словарь литературоведческих терминов. Санкт-Петербург: Паритет, 2012. – 316 с.

Miqdoriy belgi soʻzlovchining atrofidagi oʻrab turgan obyektlar, predmetlar, belgi-xususiyatlar, harakat va holatlarga dastlabki (0) nuqta darajasiga nisbatan ifodalanishini koʻrsatadi hamda gradual shkala shakllanishiga asos boʻladi. Meʼyoriy darajaga nisbatan qolgan toʻrtta koʻrsatkich oʻzaro belgining koʻproq/kamroq darajasiga koʻra farqlanadi. Gradual shkaladagi soʻzlar paradigmasi meʼyordan ortiq boʻlsa ...*dan koʻp/больше, чем ...*; kam boʻlsa ...*dan kam/меньше, чем ...* graduatorlari yordamida hosil qilinadi. Bunda har bir belgi shartli subyektiv tusda boʻlib, graduallikning maʼnoviy tuzilmasida obyektiv va subyektivlikni namoyon etadi.

Lugʻaviy graduonimiyaning oʻziga xos xususiyati – gradual shkaladagi soʻzlar meʼyorning ortib/kamayib borish yoʻnalishida boʻlishi, oʻzaro sinonimik munosabatlarda, soʻz birliklari meʼyorning ikki qarama-qarshi yoʻnalishida boʻlsa, antonimik munosabatlarni namoyon etishi hamda feʼl zamonlari nomlanishida shu kabi oʻziga xos darajalanish aks etgan: *oʻtgan zamon → hozirgi zamon → kelasi zamon/прошедшее время → настоящее время → будущее время*.

Lugʻaviy graduonimiya atamasi belgi, miqdor, oʻlchov kabi dialektik va falsafiy jihatlar miqdoriy oʻzgarishlarining sifat oʻzgarishlariga oʻtib borishini aks ettiradi. Lugʻaviy maʼno guruhlarida til tizimi sistemali munosabatlar bilan chegaralanib qolmasdan giponimik, partonimik va gradual munosabatlarga ham egaligi aniqlangan. Bu borada gradual leksika atamasi maʼnosi zamiriga esa *gradosema* (belgining oʻlchami yoki darajasi maʼnosi) mavjud predmet, narsa, buyum, belgi, harakat, holatlarni anglatuvchi soʻzlar yoki soʻz birikmalar kirishini taʼkidlash joiz. Gradual leksika yordamida soʻzlovchi predmet, harakat belgisining darajasi, ortiq/kamligi kabi xususiyatlarini ifodalaydi. Graduonimiya komparativ, ekspressiv, intensiv kategoriyalarni oʻzida mujassam etadi va yuqoridagi kategoriyalarning oʻzaro aloqasi mavjud, yaʼni lugʻaviy birliklar gradual shkalasini tuzish uchun belgining intensivlik xususiyatini aniqlash va uni boshqa lugʻaviy birlik bilan taqqoslash joiz. Gradual shkala tuzish tamoyillari quyidagilar: a) meʼyor mavjudligi, lugʻaviy birliklarning intensivligiga koʻra ortib/kamayishi; b)

gradual shkala turli shakllarda (*chiziqli* – nur, kesma, to‘g‘ri chiziq; *siklik*) namoyon bo‘lishi, davriyligi, chegaralanganlik/chegaralanmaganligi.

Lug‘aviy birliklarni sinonimlar qatoriga birlashtirishda uning barcha belgilari umumiy, antonimik juftlar hosil qilishda esa lug‘aviy birliklarning ma‘nolari zidlanishi inobatga olinadi. Gradual munosabat me‘yorga nisbatan belgi, xususiyat, miqdorning o‘lchovlarini yetkazib berishdan iborat, belgining me‘yori esa gradual maydonda dominant belgi hisoblanadi. Rus tilida graduonimiya kategoriyasining *grammatik* va *nogrammatik* usullari kuzatiladi. Graduonimiya maydonida bir necha komponentlarni kuzatish mumkin, masalan, sifat va ravish darajalari, fe‘lning semantik guruhlarini, belgi ma‘nosini anglatuvchi lug‘aviy va so‘z yasovchi ko‘rsatkichlar shular jumlasidandir.

Fonologiyada gradual oppozitsiyalar tilning leksik-semantik tizimida keng ko‘lamdagi antonimlarni o‘z ichiga oladi, ularga, asosan, asliy sifatlar kiradi: *чёрный* → *тёмный* → *тёмносерый* → *светлый* → *светлосерый* → *серый* → *белый* qatoridagi qarama-qarshi nuqtalar belgining chegarasini namoyon etadi.

Gradual oppozitsiya a‘zolari kam bo‘lishi ham mumkin, bunda ikki a‘zoli oppozitsiyada oraliq holat kuzatilmaydi: *грубый* → *нежный* kabi. Ikki a‘zoli oppozitsiyadagi ko‘p so‘zlarning oraliq shakli *не-* prefiksi yordamida hosil qilinadi: *вежливый* → *невежливый* → *грубый*. Ortib borish tartibida joylashgan darajalar belgi intensivligining gradual shkalasini hosil qiladi.

Shkala tipologiyalarini aniqlashda uning so‘z semantik strukturasi holatini inobatga olish zarur, shunga ko‘ra shkalalarda belgisiga ko‘ra dominant va nodominant shkalalar farqlanadi. Dominant belgili shkalalar holat, doimiy xususiyat, belgi, emotsional va intellektual munosabatlarini anglatuvchi sifatlar, abstrakt otlar, fe‘l predikatlariga xos bo‘ladi. Bunday gradual oppozitsiyalar xususiyat va jarayonlarning oraliq holatlarini anglatadi.

Nodominant shkalalar asosiy sema uchun ikkinchi darajada bo‘ladi. Bu kabi shkalalarga yomg‘ir kuchi, ip qalinligi kabilarni ifodalovchi so‘zlar misol bo‘la oladi; bu holat fe‘llarda ham uchraydi, bunda fe‘llardagi gradual holatlar ikkinchi

qo‘shimcha ma‘noni va murakkab, kompleks semantikasini anglatuvchi xarakterda bo‘ladi. Atmosfera haroratidagi o‘zgarishlarni anglatuvchi birliklar suyuqlik haroratini o‘lchashni belgilab berishdan tubdan farq qiladi, chunki organizm atrofimizdagi suyuqliklar va havo haroratini turlicha qabul etadi: kimgadir sovuq bo‘lgan havo kim uchundir iliq, kimgadir issiq bo‘lgan suv kim uchundir qaynoq bo‘lishi mumkin. Shkalalarning ikki turi aniqlangan: a) denotativ xarakterdagi shkalalar (so‘zlovchining idrok etishiga bog‘liq bo‘lmagan o‘lchamlar, masalan: shamol kuchi); b) denotativ-baholovchi xususiyatga ega shkalalar (subyekt obyektning xususiyatini tasniflaydi, bu esa qo‘shimcha ma‘no kasb etadi, masalan: *yengil shamol* → *kuchli shamol* → *juda kuchli shamol*); d) baholovchi shkalalar (subyekt bahosi graduonimiya asosini tashkil etadi).

O‘lchov gradatsiyasi, uning bosqichma-bosqich ortib borishi birliklarning ma‘nosini differensiallash funksiyasini bajaradi, umumiy integral belgi mavjudligi gradual oppozitsiyani boshqarish uchun shartli jihat. Gradual qatorlar otlarni tizimlashtirish vazifasini bajaradi, masalan: insonning xususiyati va xulqiga ko‘ra nomlash (*irkít//зрянула*); biror predmet yoki narsalarning miqdori, sifatiga ko‘ra.

Gradual shkalalarni tuzish qonuniyatlari shu guruhga kiruvchi so‘zlar semantik tarkibini o‘z ichiga oladi, gradual qator yadrosini predmet nomlari tashkil etsa, ularni bir gradual qatorga guruhlash belgisiga ko‘ra amalga oshiriladi. Gradual qator atrofidagi predikat belgilarni anglatuvchi va substansiya kabi idrok etiladigan so‘zlardan tashkil etiladi.

Fe‘llar sintaktikasi fe‘l harakatlarining subyekt va obyekt munosabatlarini o‘z ichiga oladi hamda subyekt zamirida sodir bo‘layotgan jarayon gradatsiyasi ajratiladi. Semantika harakat fe‘llarining aniqlovchi munosabalarini bildiradi. Fe‘llar gradual qatorida natijadorligi, to‘laqonliligi katta ahamiyat kasb etadi. Asosan, fe‘llarda “harakat+harakat bajarilish usuli” gradual shkala uchun asos sifatida xizmat qiladi. Fe‘l gradual qatorlaridagi pragmatik jihat nutq subyekti baholanishini taqozo etadi. Tizimli munosabatlarga pragmatikaning kirib borishi ko‘pincha ma‘lum baholashga ta‘sir o‘tkazadi va gradual qator tamomila boshqa

ma'no kasb etadi. Graduallashuvchi predmet belgisining ifoda etilishida graduatorlar ko'rinishi ham muhim.

Fiziologik holat, ruhiy holat, baholash, vaqt, parametrik xususiyatlar, harakat va holat uslubi, fazodagi va harakat holatining o'zgarishi, jismoniy harakatning natijadorligi, mavjud narsalarning chegaralanganligi va mavhumligi, mavjud emaslik, fazodagi yo'nalish, verbal kauzatsiya, relyativlik, individual tegishlilik, inson ehtiyojlari, yangi holat kauzatsiyasi, harorat xususiyatlari, jismoniy harakat va holat, vaqt munosabatlari hamda intellektual qobiliyatlarni qamrab oladi.

N.Trubetskoy fonologiyada oppozitsiya munosabatlarini o'rganishda tilshunoslikdagi *graduallik* tushunchasini kiritgan va belgining darajalariga e'tibor qaratib, graduallikni mantiqiy-semantik, lug'aviy-sintaktik kategoriya sifatida talqin etgan hamda kuchaytiruvchi kategoriya toifasiga kiritgan (Kiryan 1980³⁹, Sepir, 1983⁴⁰ va b.). Bunda semantik (ba'zi til birliklarining lug'aviy semantikasi), sintaktik (til birliklarining graduator bilan munosabatga kirisha olishi) omillarning gradual ma'nolarni faollashtirishga xizmat qilishi ham ta'kidlangan.

Funksional-semantik yondashuv jihatidan (Arno, Lanslo 1990, Medvedeva 1996, Vinogradov 2001) graduonimiya turli gap bo'laklarining graduator vazifasini bajara olishi asoslab berilgan. Graduonimiya beixtiyor yuzaga kelmaydi, u insonning baholash-talqin etish, ya'ni modus faoliyatining natijasi hisoblanadi. Gradual kategoriya zamirida graduallik mavjud va quyidagilarni mujassam etadi: voqea rivojlanish bosqichlari va obyekt belgilarining darajalari; belgi va harakatlardagi xususiyatni taqqoslashda me'yoriylik; belgidagi miqdoriy xususiyatlarni ajratish.

Miqdorni belgilash uchun shkala va me'yor muhim ahamiyat kasb etadi, bunda insonning baholash faoliyati jarayoni va individual baholari ham ahamiyatga ega. Graduonimiyaning kognitiv jihati turli sohalarning o'zaro ta'siri


³⁹ Кирьян А.Д. Градация как способ организации лексико-семантической группы (качественные прилагательные со значением характеристики человека в современном русском языке). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: Ун-т дружбы народов, 1981. – 22 с.

⁴⁰ Сэпир Э. Градуирование: семантическое исследование // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16: Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С.43-78.

hisobiga vujudga keladi. Miqdoriy xususiyatlarni o‘rnatishda shkala va me’yorga murojaat etmasdan ilojimiz yo‘q, vaholanki, bunda insonning baholash faoliyati faollashadi hamda individual baholash muhim ahamiyat kasb etadi. *Graduonimiya* negizida belgining darajasi yoki holatning rivojlanish bosqichlari qiyoslanadigan ma’lum me’yorning mavjudligi, belgining miqdoriy xususiyatlari yotadi.


Graduonimiya koordinatalar tizimiga ega va bu holatda me’yor hisobning neytral nuqtasi bo‘lib, umumiy belgilarini ko‘rsatuvchi ijobiy va salbiy minimum/maksimum nuqtalariga ega. Antonimlar, sinonimlar, giponimlar gradual munosabatlarga kirishadi, bu esa graduonimiya hodisasini iyerarxik, baholash, o‘lchov kabi tushunchalarsiz tasavvur etish qiyinligini anglatadi.

Graduonimiya *shkala, miqdor, me’yor* bilan o‘zaro bog‘liq, me’yor tushunchasida belgining yetarli miqdori tushunilsa, miqdor esa *yetarli* yoki *yetarli bo‘lmagan* darajada kuzatiladi. Ma’lum miqdor uchun me’yor noaniq miqdorga nisbatan yo‘nalish vazifasini o‘tamaydi, balki shkalada aniq belgi ostida joylashadi. Noaniq miqdorda dastlabki nuqta *me’yor*, unga nisbatan *ko‘payish* yoki *kamayish* yo‘nalishlari aniqlanadi. Demak, har bir zonada miqdorning turli belgilari – *yetarli, kam, ko‘p, chegaralangan* jihatlar kuzatiladi (1.1-rasm).



1.1-rasm. Graduallikning kognitiv ko‘rinishi.

Graduallikning to‘rt xil (*chegaralangan, yuqori, yetarli, past*) darajada aks etishi, darajalar esa chegaralangan yuqori daraja, yetarli yuqori daraja, yetarli bo‘lmagan yuqori darajaga bo‘linishini ko‘rishimiz mumkin (1.2-rasm).



1.2-rasm. Graduallik kategoriyasining tipologiyasi.

Gradual munosabatlar til universalialari sirasiga kiradi va tilning muhim leksik qatlamini o‘z ichiga oladi, miqdor tushunchasi ustuvor bo‘lib “kam/ko‘p” belgilariga ko‘ra o‘zaro oppozitsiyaga kirishadi. Gradual munosabatlar shaxsning ruhiy va fiziologik xususiyatlariga ko‘ra milliy mentalitetga asosan shakllanadi. Bunda graduonimiya uzvlari ikkitadan to‘qqiztagacha bo‘lishi kuzatilgan.

Gradual munosabatlarga nafaqat o‘lchanadigan jismoniy belgilar, balki qiyoslash jarayonidagi subyektiv belgilar ham kirishadi. Rus tili lug‘at tizimida turli gradual maydonlar mavjud, ularning tipologiyasi tematik va tuzilish tamoyillariga asoslanadi. Y.Divina ranglarni, O.Kuznetsova atmosfera yog‘ingarchiliklarini, N.Trubetskoy, L.Novikov, L.Kuznetsovalar antonim va sinonimlarning gradual munosabatlarini tadqiq etishgan. Belgi darajasi semasi asosiy (so‘zning asosiy semantik belgisi graduallashganda) va ikkinchi darajali (agar ikkinchi darajali semantik belgisi graduallashganda) bo‘lishi mumkin.

Bizningcha, gradual maydonlar tasnifiga asosan graduallashuvchi leksemalarning semantik belgilari chiqishi hamda “daraja” semasini o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir. Gradual kategoriyalar “masofa” semasi vaqt va harakat, “yosh” semasi vaqt kategoriyalariga o‘tishi kabi bir-biriga o‘tadi.

Gradual shkalani rang, tovush, shamol, dengiz to‘lqinlari, musiqiy gammalar, tovushlar, sonlar, alifbo va nota qatorlari, taqvim, matematik, kimyoviy

jadvallar va o'lchov asboblari bilan bir qatorda miqdoriy tamoyilni o'z ichiga olgan unvonlar, turli tasniflar tashkil qiladi. Ko'plab proporsional bog'liqliklarni o'z ichiga olgan ilmiy qonunlar zahirida ham graduonimiya kuzatiladi. Insonning psixofiziologik xususiyatlari hissiyotning xususiyatiga ko'ra graduallashgan bo'lib, bunda tinch holat barcha emotsiyalarning boshlang'ich nuqtasi hisoblangan: *cho'chimoq//бояться, qo'rqmoq//страшиться* kabi.

Graduallikning funksional-semantik maydoni "tizim" hamda o'rab olgan muhitda gradual mulohazalarni ongli ravishda tizimli-strukturaviy mazmun bilan ifodalashning gradual ifodalash vositalarini bog'lab turadi. Ushbu maydonni tashkil etishda quyidagi qonuniyatlar aks etadi: gradual ma'no zahirida sifat va miqdorni anglatmaydigan so'zlar (bog'lovchilar, ko'makchilar) roli; iboralardagi gradual ma'no (yuqori/past daraja) yetkazib beradigan o'tuvchi holatlarda kontekstning roli; gradual maydonda va baholash, miqdor, inkor semantik dominantalari maydonlarida o'tuvchi holatlar mavjudligi.

Lug'aviy graduonimiya denotativ va konnotativ semantikaga asoslanadi, o'z zahirida belgi, miqdor, o'lchov kabi dialektik qonuniyat hamda falsafiy kategoriyalar miqdoriy o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tib borishi, *gradual leksika* atamasi esa *gradosema* (belgining o'lchami yoki darajasi ma'nosini anglatuvchi affiks, qo'shimcha tovush, leksemalar) mavjud predmet, narsa, buyum, belgi, harakat, holatlarni anglatuvchi so'zlar yoki so'z birikmalarini o'zida mujassam etadi. Ta'kidlash joizki, lug'aviy graduonimiyaning o'ziga xosligi – semantik tuzilishdagi ma'lum semantik kattaligi. U ikki va undan ortiq ma'noga ega bo'lishi hamda shunga mos ravishda semantik bog'liqlikni tashkil etishi mumkin. Gradual leksika yordamida so'zlovchi predmet, harakat belgisining darajasi, ortiq/kamligi kabi xususiyatlarini ifodalaydi. Gradual leksika ikki guruhga ajratiladi: a) asosiy (implitsit hamda eksplitsit) – mustaqil so'z turkumlaridan iborat; b) yordamchi (graduator) – yordamchi so'z turkumlaridan iborat.

Implitsit graduallashgan soʻzlar, soʻz birikmalar, gaplar ...*dan ortiq*//*больше, чем ...*, ...*dan kam*//*меньше, чем ...* graduatorlari⁴¹ yordamida hosil qilinib, tildagi koʻp gradual hodisalar kabi muhim ahamiyat kasb etadi. Graduonimiya maʼlum bir meʼyoriy belgining ortiq yoki kamligiga asoslangan nutq hodisasidir.

1.2-§. Jahon va rus tilshunosligida graduonimiya tadqiqi

XIX asrgacha N.Grech, A.Vostokov, G.Pavskiy, K.Aksakov, A.Peshkovskiy va boshqalar tomonidan qiyoslash va uning darajalari, ularni turli gap boʻlaklaridan ajratish tamoyillari, meʼyor tushunchasini oʻrnatish masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. XX asrda turli gap boʻlaklarida qiyoslash kategoriyasi shakllangan va qiyoslash meʼyori ham chegaralangan. Sifatlarni tasniflashda belgilar birida koʻproq/kamroq namoyon boʻlishini taʼkidlashgan. Ular nafaqat bir necha sifatlarning oʻzaro farqlarini qiyoslash, balki har birining meʼyorga nisbatan boʻlgan xususiyatidan vujudga kelishini ham koʻrsatib oʻtishgan, belgi uchun ham tafakkurda shakllanadigan maʼlum meʼyor mavjudligi, ushbu meʼyordan chekinish esa sifat maʼnolarining kattalashishi/kichrayishiga olib kelishi, narsani oʻziga xos meʼyor emas, balki boshqa narsaning meʼyori bilan ham qiyoslash sifat darajalarini yuzaga keltirishini taʼkidlashgan. Biror narsani boshqasi bilan qiyoslash jarayonida undagi ortiq/kam belgilari mavjudligiga urgʻu beriladi. Bunda qiyoslanayotgan sifat darajasi oʻzgarib boradi: *insonlarning buyugi - величайший из людей*.

Y.Beloglazova til turli vositalarining gradual funksiyasi, uni hosil qilishda kommunikativ maqsad, kontekst, nutqiy vaziyat muhim oʻrin tutishini, sodda gaplar shakllanishida gradual bogʻlovchilar, qoʻshma gaplarda atributiv-ajratuvchi tobe gaplar va sodda nominativ gaplarning oʻrni, gradual funksiyaga

⁴¹ Колесникова С.М. Функционально-семантическая категория градуальности в современном русском языке. – М.: Флинта, 2021. – 280 с.

kommunikativ maqsad, kontekst, nutqiy vaziyatlar sabab bo'lishini hamda rus tilida 32 ta prefiks, 34 ta suffiks gradual funksiyani ifodalashini aniqlagan⁴².

N.Fedyayeva tomonidan graduonimiyaning tuzilishi batafsil ishlab chiqilgan: *graduallashuvchi subyekt, graduallashuvchi obyekt, gradual belgi, gradual shkala* mavjudligi; graduonimiyaning leksik-semantik kategoriya ekanligi, ushbu kategoriya “maydon” tuzilishiga ega bo'lishi, uning yadrosini esa sifat darajalari, o'lcham, daraja ravishlari tashkil etishini ta'kidlagan⁴³. V.Belyanin sifat belgilarini gradual shkalada o'lchash mumkinligi haqida ma'lumot bergan va gradual shkalani shakllantirishda semantik qator hosil qiluvchi so'zlar yig'indisi “navbatma-navbat” joylashtirilishi, so'zlarni odatdagi lug'atlarda berilishidan farqlanishini ko'rsatib o'tgan⁴⁴.

P.Bereznitskaya rus tilidagi *gradual maydonlar, gradual leksika* adabiy asarlar poetikasida konnotativ baholashni ifodalash maqsadida qo'llanishi, tillarda gradual munosabatlarni konkretlashtirish umumiy hisobdan inson tafakkuri va idrokining ruhiy fiziologik xususiyatlariga, qisman milliy mentalitetning lingvomadaniy xususiyatlariga bog'liqligi borasida o'z izlanishlari natijalarini bayon etgan⁴⁵. Frazelogizmlardagi graduonimiya hodisasi N.Gorshkova, S.Tkachenko; maqollarda graduonimiya hodisasi N.Prekina, Y.Volf, M.Krilova, T.Markelova va boshqalar tomonidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. I.Sushinskiy, S.Rodionovalar intensivlik va unga yaqin kategoriyalarni farqlash va graduonimiyadan chegaralash maqsadida gradual shkalada joylashgan so'zlar gradualligining nol o'lchov tizimiga nisbatan belgi va xususiyatlarning tartibli joylashuvi (*высокая* → *средняя* → *низкая интенсивность, избыточность* → *достаточность* → *недостаточность* kabi) muhimligi, intensivlik uchun esa boshqa o'xshash “subyektiv” kategoriyalarda mavjud bo'lmagan pragmatik jihat,

⁴² Белоглазова Е.В. Градуальная функция разноуровневых средств языка в формировании диктумного содержания предложения. Дисс. ... канд. филол. наук. – Саранск, 2003. – С.14-16.

⁴³ Федяева Н.Д. Языковой образ среднего человека в аспекте когнитивных категорий градуальности, дуальности, оценки, нормы. Дисс. ... канд. филол. наук. – Омск, 2003. – С.24.

⁴⁴ Белянин В.П. Психолингвистика. – М.: Флинта, 2004. – С.143-145.

⁴⁵ Березницкая П.П. Типология и структура градуальных полей в русском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2004. – 20 с.

ya'ni "belgi miqdorining ortishida ishtirokchilar uchun subyektiv ahamiyat" muhimligini qayd etishgan⁴⁶.

N.Prekina rus maqollar graduonimiyasi, gradual semantikani anglatuvchi gradual maqollarda "xayoliy obraz" gradual sintaktik a'zo, gradual subyekt, gradual obyektini o'zida mujassam etishi, gradual iboradagi nutqiy ma'no atrof-muhitning o'zaro ta'siri ostida aktuallashib, muloqot davomida o'lchovli munosabatlarni aks ettirishini ta'kidlagan: *Меньше на дворе, легче голове; меньше → немножко → средне → много → очень много*⁴⁷ kabi.

A.Ilyina "gibrid" so'zlar (*просто, ещё*), ya'ni gradual ma'no kasb etuvchi funksional omonimlarning tuzilishi, ularni qo'llash yordamida hosil qilingan gradual holatlarni tahlil etib, *просто, ещё* so'zlari turli gap bo'laklari (ravish, yuklama) vazifasini bajarishini ham ko'rsatib o'tgan⁴⁸. A.Minka ingliz tilida kognitiv o'lchamdagi sifatlar, mantiqiy, semantik va gnoseologik aspektda daraja kategoriyasi, ilmiy bilimlar kognitiv paradigmasidagi diskurs, gradual-semantik belgilarning ko'rinishi kabilarni ilmiy jihatdan asoslab bergan⁴⁹.

L.Shilovskaya graduonimiyaning shkala bo'yicha ortib/kamayib borish xususiyatlarini intensivlikka mosligi hamda ortib borishni intensivikasiya, kamayib borishni esa deintifikatsiya jarayoni⁵⁰, deb ko'rsatgan. M.Zubayrayeva belgi xususiyatlarini chechen va ingliz tili misolida ko'rib chiqqan, graduallik deb atalmish belgilarning miqdoran tavsif etuvchi turli vositalarni o'zida mujassam etgan qiyoslash kategoriyasiga mansubligi noo'rin talqin etilganligini,

⁴⁶ Словарь усилительных словосочетаний русского и немецкого языков. – М.: Русский язык, 1997. – С.384; Родионова С.Е. Интенсивность и её место в ряду других семантических категорий // Славянский вестник. – М.: МАКС Пресс, 2004, №2. – 303-308 с.

⁴⁷ Прекина Н.В. Градуальная семантика русских пословиц. Дисс. ... канд. филол. наук. – Саранск, 2005. – 168 с.

⁴⁸ Ильина А.Б. "Гибридные" слова с градуальной семантикой в современном русском языке: Наречия-частицы. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саранск, 2005. – С.7-9.

⁴⁹ Минка А.Н. Прилагательные со значением степени и дискурсивное варьирование их градуальных признаков (на материале русского и английского языков). Дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2005. – 149 с.

⁵⁰ Шиловская Л.В. Средства выражения ослабленной интенсивности действия и состояния в современном французском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2007. – С.197.

graduonimiya belgi vositalari nafaqat til an'analari va pragmatik omillarga, balki muallifning xohishi va tilning modasiga bevosita bog'liq bo'lishini ta'kidlagan⁵¹.

C.Perevolochanskaya A.Pushkin asarlarida uchrovchi "ayol" so'zining kontekstga ko'ra u yoki bu semantik ma'nosiga oid darajalanish qatorlari, sinonimlar o'zining kontekstual va stilistik ma'no kasb etuvchi birliklarini hosil qilishini ta'kidlagan bo'lsa-da, aksariyat so'zlar (*Куприда, 7 рублёвая Варюшка*) mifologik obrazlar, ramzlarni o'zida mujassam etgan⁵².

I.Nazarova zamonaviy ingliz tilida ravishlar graduonimiya kategoriyasining representatsiyasi vositasi sifatida o'rgangan bo'lib, graduonimiyani boshqa tillarda o'rganilishi zarurligi, ko'p jihatdan graduonimiyani keltirib chiqaruvchi omillar sifatida insonlarning hissiyotlari, jismoniy holati, atrof-muhitda individning o'zaro munosabatlarini ko'rsatib o'tgan⁵³. Bir guruh rus olimlari darajalanish kabi lisoniy hodisaning ma'lum ma'noga ega ekanligi, ushbu hodisani struktur-semantik jihatdan (N.Arutyunova 1999, M.Bondarenko 2001, S.Kolesnikova 1999, I.Sushinskiy 1977, E.Sepir 1985, I.Fyodorova 2000, N.Xalina 1998 va b.) mantiqiy-semantik, leksik-semantik, leksik-sintaktik kategoriya, deya ta'kidlab, kuchaytiruvchi kommunikativ-pragmatik kategoriya sirasiga kiritishgan.

Zamonaviy rus tilshunosligida graduonimiya hodisasi borasidagi ilmiy tadqiqotlar to'rt yo'nalishda olib borilgan:

a) turli sohalardagi graduonimiya (Y.Stepanov, A.Uyemov va b.); gradual ma'noning globalligi (E.Sepir⁵⁴); so'z gradual ma'nosining funksional va pragmatik tahlili (Y.Apresyan⁵⁵, N.Arutyunova⁵⁶ va b.);

⁵¹ Зубайраева М.У. Градационность качественного признака (на материале чеченского и английского языков). Дисс. ... канд. филол. наук. – Грозный, 2008. – 119 с.

⁵² Переволочанская С.Н. Смысловые градации в рамках синонимических отношений // Нижний Новгород: Вестник Нижнего Новгородского университета имени Н.И.Лобачевского, 2008, №4. 252-255 с.

⁵³ Назарова И.В. Наречия как средства репрезентации категории градуальности в современном английском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2009. – 182 с.

⁵⁴ Сэпир Э. Градуирование: семантическое исследование // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16: Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С.43-78.

⁵⁵ Апресян Ю.Д. Избранные труды. Т.П: Интегральное описание языка и системная лексикография. – М.: Языки русской культуры, 1995. – С.348-388.

⁵⁶ Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С.89б.

b) gradual ma'noni turli tillarda ifodalanishining lisoniy vositalarini tadqiq etish (fonetik jihatdan – N.Trubetskoy; leksik jihatdan – N.Shvedova, L.Novikov, V.Vinogradov⁵⁷, Y.Zemskaya, Y.Arbatskaya, D.Arbatskiy⁵⁸; morfologik jihatdan – A.Isachenko; sintaktik jihatdan – V.Beloshapkova, V.Babayseva, N.Nesterova⁵⁹);

v) graduallik – xususiyatlarning intensivligi darajasi (D.Bolinger);

g) graduallik – belgi va munosabatlar intensivligi darajasi (I.Turanskiy⁶⁰).

Yuqoridagi tadqiqotlar rus tilida hanuzgacha graduonimiya borasida bir to'xtamga kelinmagani, graduallik va intensivlikka nisbatan turli qarashlar mavjudligini ko'rsatadi. Intensivlik belgining kuchliligini ifodalash orqali namoyon bo'lsa, graduonimiya belgining ortiq/kam darajadagi xususiyatlarini aks ettiradi. Graduallik ma'nosining zamirida graduallovchi subyekt, graduallashgan obyekt, graduallikning xususiyati va uning asosi kabi to'rt asosiy komponent o'rin olgan bo'lib, bu hodisaning tub mohiyati gradual predikat tarkibidagi birliklarning bosqichma-bosqich ortib/kamayib borishida ko'zga tashlanadi.

N.Xalina morfologiyadagi graduallikni nafaqat yangi xususiyatlarni oshkor etuvchi, balki mavjud kategoriyalarning ma'lumotlarga boyitilishi, dunyoni verbal anglash natijasida shakllanishi va aks ettirilishi, tilning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etishini ta'kidlagan⁶¹ bo'lsa, A.Nagornaya semantik graduonimiyaning paradigmatic va kontekstual darajalarini chegaralash, gradual qatorlarda miqdoriy jihatdan hech qanday bog'liqlik yo'qligi, graduonimiya belgining kuchli ifodalanishi emas, balki ma'lum iyerarxik so'zlar jamlanmasi ta'rifini bergan. So'zlashuv uslubidagi iyerarxik so'zlar sirasiga superemik, emik, arxiemik, kvaziemik jihatlar kiritiladi. Ikki tilni chog'ishtirish asosida kontekstual semantik graduonimiya muammosi dolzarbligi, bu birliklarning boshqa tilga tarjima

⁵⁷ Виноградов В.В. Русский язык. – М: Русский язык, 2001. – С.285.

⁵⁸ Арбатская Е.Д., Арбатский Д.И. О лексико-семантических классах имён прилагательных русского языка // Вопросы языкознания. 1983, №1. С.52 – 66.

⁵⁹ Нестерова Н.А. Градуальность в сложноподчинённых предложениях с атрибутивно-выделительными придаточными. Дисс. ... канд. филол. наук. – Саранск, 2005. – 172 с.

⁶⁰ Туранский И.И. Семантическая категория интенсивности в английском языке // И.И.Туранский. – М.: Высшая школа, 1990. – 173 с.

⁶¹ Халина Н.В. Категория градуальности в морфологии. Дисс. ... канд. филол. наук. – Барнаул, 1996. – С.11-20.

qilinishida ma'lum kontekstning konkret sharoitlaridagi so'z ma'nosining paradigmatic hajmini hisobga olish maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan⁶². Yuqoridagi tur paradigmalari semantik jihatdan gradatsiyadan tubdan farq qiladi.

G.Kireyeva zamonaviy rus tilidagi *междометие* (undov so'zlar) so'z turkumida graduallik hodisasi, hissiy undov so'zlar semantikasining graduallik nuqtayi nazariga ko'ra tavsifi, ularning eng ko'p uchraydigan *ай, ах, ох, ух* turlari borasida ham o'ziga xos fikrlarini keltirib o'tgan⁶³: *Однако в какую глушь занесла нас судьба! Досаднее всего, что здесь и умирать придётся. Эх!* (А.Чехов. Палата №6) – ushbu gapdagi *досаднее* sifatning qiyosiy darajasini va *эх* undov so'zi emotsional holatning keskinlashish chegarasini ifodalagan.

S.Asaturova, N.Geldiashvili, M.Garibashvililar turli oila tillariga mansub bo'lgan rus, ingliz va gruzin tillarida darajalanish kategoriyalarini tahlil etishgan, sifatlardagi darajalanishlar, ularning sintetik va analitik shakllari, hosil qilinishda mutlaq o'xshashlik mavjud emasligi hamda tarjima borasida samaraga erishish uchun ulardagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash masalasini atroflicha ko'rib chiqishgan⁶⁴. L.Efanova me'yorning nisbiy barqarorligi predmetning o'zgaruvchanligi, graduallashuvini talab etishi, natijada esa *skalyar-sinonimik* yoki *skalyar-antonimik* shakllar hosil qilinishini asoslab bergan⁶⁵.

Rus milliy korpusida 39 246 ifodani o'z ichiga olgan 40 000 so'zdan iborat 7 528 sinonimik qator, 16 ta sohada gradual hodisa, ideografik guruh va guruhchalar, 430 guruh va guruhchalarni qamrab olgan rus tili lug'at-tezaurusi ham o'rin olgan⁶⁶. Nguen Man Xay rus milliy korpusi hamda N.Abramovning sinonimlar lug'atidan foydalangan holda zamonaviy rus tilida graduallik antroposentrik

⁶² Нагорная А.В. Семантическая грация “лексического просторечия” и его межъязыковая транспозиция (на материале английского и русского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ульяновск, 1998. – С.15.

⁶³ Киреева Г.В. Междометие как показатель градуальности в современном русском языке. Дисс. ... док. филол. наук. – Саранск, 2010. – 217 с.

⁶⁴ Асатурова С., Гелдиашвили Н., Гарибашвили М. Формы выражения категории сравнения в разнотипных языках // Актуальные вопросы теории и практики филологических исследований: материалы международной научно-практической конференции. 25-26 марта 2011 г. – Пенза-М.: Решт: Социосфера, 2011. С.65-75.

⁶⁵ Ефанова Л. Г. Категория нормы в русской языковой картине мира. – Томск, 2013. – 501 с.

⁶⁶ Бабенко Л.Г. и др. Словарь-тезаурус синонимов русского языка. – М.: АСТ-Пресс, 2021. – 448 с.

xususiyatga ega bo'lishi, uning yordamida inson o'z ichki kechinmalari va fikrlarining qay darajada ifodalashini ta'kidlagan. Gradual hamda sinonimik so'zlar qatorida nafaqat adabiy tilning neytral leksikasi, balki dialektizmlar ham to'laqonli ishtirok etishi muqarrarligi, ushbu qatorlarning ikki chekkasidagi so'zlar o'zaro bir-biriga yaqin ma'noni bildirmasligi, qatorlar va semantik maydonning o'zaro muvozanat holati kuzatilishini ta'riflab bergan⁶⁷.

Chjao Nan rus tilshunosligida paremiya kesimidagi graduallik hodisasini tadqiq etib, graduonimiya kategoriyasi, ularni shakllantiruvchi sifat va fe'llar, graduonimiyaning semantik tahlillarini keltirgan⁶⁸. S.Kolesnikovaning sifatlardan farqli ravishda *очень, весьма, немного, чрезмерно, безгранично, чрезвычайно* ravishlari graduallikning sintagmatik jihatini aks ettirishi borasidagi fikrlari V.Vinogradov, N.Prokopovich, I.Slesaryova, A.Baranov, V.Plungyan, Y.Raxilina, Y.Krjijkova, A.Xovalkinlar tadqiqotlarida ham uchraydi, graduallik tildagi o'zgaruvchan yoki o'lchanadigan belgi ma'nolaridagi turli darajadagi ko'plab vositalar ko'rinishidagi funksional-semantik kategoriya sifatida tilga olingan⁶⁹.

Gradual semantik belgilarning o'sib borishi shkala bo'ylab ko'rsatkichlarning harakatiga ko'ra belgilanadi. Agar bu harakat obyektida sodir bo'layotgan obyektiv belgining miqdori o'zgarishida aks etsa, u belgi, xususiyat, xususiyatning dastlabki va so'nggi nuqtasi yordamida ifodalanadi: *сейчас* → *сначала* → *с самого начала* → *затем* → *наконец* kabi. Agar so'zlovchi hodisa, predmet, belgi va hokazolardan uzoqlashsa, fikri obyektiv tusga ega bo'lib, vaziyatga xolisona qaragan holda obyektни boshqa shaxslar nomidan tavsiflaydi. Graduonimiya hodisasi graduallik (semantik) hamda sanoq qatori (sintaktik) tamoyillariga asoslanadi. Graduonimiya hodisasi bir qator so'z komponentlari (so'zshakllari, so'z birikmalari, gap bo'laklari, gaplar), ba'zida yaxlit bir

⁶⁷ Нгуен Мань Хай. Градуальная функция имён прилагательных в современном русском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2019. – 227 с.

⁶⁸ Чжао Нань. Градационные отношения и смежные явления в русских паремиях. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2020. – С.12-18.

⁶⁹ Колесникова С. М. Функционально-семантическая категория градуальности в современном русском языке. – М.: Флинта, 2021. – 280 с.

matnlardan tarkib topib, tuzilishiga ko‘ra ortib/kamayib borish tartibidagi ko‘rinishni yuzaga keltiradi.

Insonning aqliy qobiliyatlari (0) darajali shkalada joylashadi: *дурной* → *глупый* → *глуповатый* → *неумный* → *посредственный* → *неглупый* → *способный* → *умный* → *мудрый* → *гениальный*. Qadimgi davr tabiblari har bir modda zahardir, lekin unda me‘yor bo‘lsa, u foydali va zararli bo‘lishi mumkin, deyishgan bo‘lsa, Pifagor dunyodagi hamma narsa sondan iboratdir, deya ta’kidlagan, demak, dunyoda o‘lchov va sanoq sirli kuchga ega bo‘lib, tabiatni boshqarishda katta ahamiyat kasb etgan.

Graduallikni tadqiq etishga qiyoslash mexanizmlari va ularning uzviy davomi bo‘lgan qiyosiy darajalanishni o‘zida mujassam etgan komparativlik kategoriyasi tadqiqi asos bo‘la oladi. Vaholanki, XIX asrdan boshlab turli gap bo‘laklarida darajalanish, qiyoslash qolipi – *me‘yor* tushunchasi tadqiq etilgan.

1.3-§. O‘zbek tilshunosligida graduonimiyaning o‘rganilishi

O‘zbek tilshunosligida sifat darajalari mavzusi juda ko‘p olimlarning izlanishlariga sabab bo‘lgan, jumladan: V.Vinogradov, A.Kononov⁷⁰, A.G‘ulomov, G‘.Abdurahmonov, Sh.Rahmatullayev, H.G‘.Ne‘matov, M.Sodiqova, A.Hojiyev, O.Bozorov, Z.Djumabayeva, G‘.Rahmonov; o‘zbek va rus tillaridagi darajalar – X.Yoqubova, darajalarning affiksli va affikssiz fe‘l shakllari tasnifi – S.Ferdaus, fe‘llarda daraja – M.Mirtojyev, S.Mahmatqulovlar tomonidan tadqiq etilgan.

O‘zbek tilida daraja kategoriyasi dastavval aniqlangan so‘z turkumi hisoblangan sifat tarixan maxsus morfologik ko‘rsatkichga ega bo‘lmagan, u mustaqil so‘z turkumi kabi ham mavjud bo‘lmagan, keyinroq ot turkumidan kelib chiqqan va rivojlangan. Muayyan shakllar ot va sifat uchun mushtarak hisoblangan, yana boshqa birlari faqat sifatgagina tegishli bo‘lib, keyingi davrlarda

⁷⁰ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л., – С.145.

taraqqiy etmagan⁷¹. Turkiy tillar rivojlanib borish jarayonida belgi ifodalovchi bir qator tub va yasama soʻzlar, yasovchi affikslar mavjud boʻlib, turkiy tillardagi sifat darajalari belgining ortiqqligiga ishora etsa – sintaktik (*juda chiroyli*), belgining ozligiga ishora etsa – morfologik (*kichikroq*) yoʻl bilan hosil qilinishi isbotlangan.

R.Qoʻngʻurov sifat yasovchi morfemalardagi sinonimiya, sifat darajalari belgini chogʻishtirib ifodalashi, sifat leksemalarning ifoda semalaridagi konnotatsiya masalasi, yaʼni uslubiy maʼnolarini daraja hosil qiluvchi affikslar, sinonimik qatordagi leksemalarni maʼno nozikliklarini farqlovchi, shu leksemaning muayyan nutqiy vaziyatda anglatadigan konnotativ maʼnosini uslubiy maʼno tarzida oʻrgangan, shu bilan bir qatorda *qaramoq* feʼlining turli: *alang-jalang* → *jozdir-dovdir qaramoq* → *ola-kula* → *dovdir-jozdir* → *moʻlt-moʻlt* → *gʻilt-gʻilt* → *jozdirab* → *alanglab* → *baqrayib* → *angrayib* → *xoʻmrayib* → *ishshayib* → *tikrayib* → *adrayib qaramoq*; *yigʻlamoq* feʼlining quyidagi: *uv yigʻlamoq* → *uvvos tortib yigʻlamoq* → *piqqillab yigʻlamoq* → *hoʻngrab yigʻlamoq* → *oʻkrab yigʻlamoq* → *ingalab yigʻlamoq* → *bagʻillab yigʻlamoq* → *pix-pix yigʻlamoq* → *chirillab yigʻlamoq* maʼnolarini keltirgan⁷².

Oʻzbek tilshunosligida baʼzi soʻzlar sifat darajalariga oʻxshab kuchli va emotsional belgini ifodalashi⁷³, sifatdagi darajani maxsus grammatik kategoriya sifatida ajratilmaganligi, grammatik kategoriyaning faqat ot va feʼlda mavjudligi oʻzbek tilshunosligi formal-funksional yondashuvning asoschisi S.Ivanov tomonidan izohlab berilgan⁷⁴. M.Sodiqova orttirma darajaga belgining normal holatdan yuqoriligini koʻrsatuvchi shakl, uni hosil qilishning morfologik, leksik, leksik-semantik va fonetik usullarini tadqiq etgan, ozaytirma darajaga belgining

⁷¹ Севортян Э.В. Из истории прилагательных в тюркских языках // Тюркологические исследования. – М.; Известия АН, 1963. – С.58.

⁷² Қўнгулов Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.27.

⁷³ Хаметова А. Превосходная и преувеличительная степени имён прилагательных в тюркских языках (на материалах современных узбекского, уйгурского, казахского и туркменского языков). Дисс. ... док. филол. наук. – Тошкент, 1969. – С.14-45.

⁷⁴ Иванов С.Н. Родословное древо тюрков Абу-л-Гази-Хана (имя существительное и глагол). – Ташкент: Фан, 1969. – С.204.

normal darajaga yetmaganligini ifodalovchi daraja shakli, uni hosil qilish uchun affiksatsiya va leksik usullar mahsuldorligi zarurligini ta'kidlagan⁷⁵.

Sh.Shoaabdurahmonov, M.Asqarova, I.Rasulov, X.Doniyorovlar sifatlarning oddiy darajaga munosabatini namoyon etishlari ko'zga tashlanadi: "rang-tus bildiruvchi ayrim sifatda qo'llanuvchi *-ish, -(i)mtir* affikslari belgining kuchsiz darajasini anglatmasdan belgining sifat bildirgan rang-tusga moyilligini, shunga yaqinligini ko'rsatishgan: *oqish, ko'kish, ko'kimtir* kabi. *Qora qizil, oq sariq* kabi shakllarda ham xuddi shunday ma'no ifodalangan: *qora qizil – qoraga yaqin (qoraga moyil) qizil; oq sariq – oqqa yaqin (oq rangga moyil) sariq*"⁷⁶.

S.G'iyosov belgi darajasi hamda ijobiy bo'yoq darajasi semalarini qo'llagan, o'zbek, rus tillaridagi holat sifatlarning leksik-semantik xususiyatlarini sistem-struktur jihatdan tahlil etgan va sifatlarning belgini darajalash xususiyatlarida to'xtalib, "leksik gradual oppozitsiyalar" tushunchasini tadqiq etgan (umumiy ijobiy baho: *tuzuk → durust → yaxshi → ajoyib*; tashqi ijobiy baho: *chiroyli → ko'rkam → suluv → go'zal → zebo*)⁷⁷.

"Grammatik kategoriyani turkiy yodnoma asosida tadqiq etgan H.Ne'matov qiyosiy daraja (степени сравнения – H.N.)ning ma'lum bir turkum (aniqrog'i, sifat)ga xos bo'lgan tasniflovchi kategoriya ekanligini, lug'aviy graduonimiyaning asoslari, ko'lamlari kabi masalalarni atroflicha tadqiq etgan"⁷⁸.

A.Hojiyev sifat darajalari morfologik usullar bilan yasalishi, ozaytirma sifat darajasining belgilari qardosh tatar, turkman tillaridagi kabi ekanligi va sifat darajalari tasnifida belgining me'yoriy yoki me'yordan ortiq/kamligini ifodalash usullarining asosli berilishi, daraja ko'rsatkichlarining konnotativ ma'no aspektini tadqiq etish uchun ushbu tasnif asosida ish ko'rish maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan⁷⁹.

⁷⁵ Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974. – Б.40.

⁷⁶ Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 448 б.

⁷⁷ Гиясов С. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Л.-Бухара, 1983. – С.22-32.

⁷⁸ Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв., – Ташкент: Фан, 1989. – С.155.

⁷⁹ Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 109 б.

A.Mamajonov qo'shma gaplar gradatsiyasining o'zbek tilida ifodalanishi borasida mulohaza yuritib, gradatsiyaga ifodalilikni asta-sekin kuchaytirib/pasaytirib borish usuli, ushbu hodisa qo'shma gaplarning bir nechta ergash va bosh gapli konstruksiyalarini yaratishda qo'l kelishini ta'kidlab o'tgan⁸⁰.

U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar darajani kategoriya sifatida talqin etib, sifatlarda ozaytirma daraja, orttirma daraja shakllari farqlanishi, uning ozaytirma va orttirma daraja yasovchisini olmagan formasi oddiy daraja deb yuritilishi va narsa belgisi ortiq-kamligi jihatidan qiyos qilinmay, balki to'g'ridan-to'g'ri, bevosita belgi anglatishi, ozaytirma va orttirma darajada esa belgi ma'nosi oddiy darajada ifodalangan belgiga chog'ishtirish asosida ifodalanishi, ozaytirma daraja narsa belgisining oddiy daraja holatidan kamligi, kuchsizligini ifodalashi, morfologik ko'rsatkichi –*roq* affiksi ekanini ta'kidlashgan⁸¹.

M.Narziyeva otlarni qarindoshlik ifodalovchi, yosh ifodalovchi hamda yuqoridagi xususiyatlarni o'zida mujassam etgan otlarga bo'lish asosida ularning barchasida gradual oppozitsiya mavjudligini ta'kidlaydi: *chaqaloq* → *go'dak* → *bola* (*o'g'il/qiz*) → *o'smir* → *o'spirin* → *yigit/qiz* → *erkak/ayol* → *qariya* (*chol/kampir*); *qiz* → *juvon* → *xotin* → *kampir*; *bobo/buva/ena/buvi* → *ota/ona* → *bola/farzand/qiz/o'g'il* → *nevara* → *evara* → *chevara*⁸².

Sh.Rahmatullayev sifatlarda intensiv shakl mavjudligi (*qop-qora*; *синее-пресинее* kabi), o'zbek tilidan farqli o'laroq rus tilidagi asliy sifatlarning orttirma daraja shaklini yasashda sezilarli farq borligini ta'kidlagan⁸³ bo'lsa, M.Fayzullayev sinonimiya hamda graduonimiya o'rtasidagi farqlarni tadqiq etish asosida o'zbek va rus tillaridagi ruhiy holat fe'llarini o'rganib, biror belgining turli holatini

⁸⁰ Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.41-42.

⁸¹ Турсунов У. ва б. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.283.

⁸² Нарзиева М.Д. Семантическая структура имён существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992. – С.10-14.

⁸³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек ва рус тилларини қиёслаш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – Б.33.

anglatuvchi bir xil denotativ ma'noga ega bo'lgan fe'llarda graduonimiya hodisasi mavjudligi, lug'aviy graduonimiya va sinonimiya orasidagi farqlarni aniqlagan⁸⁴.

Daraja kategoriyasi talqiniga bag'ishlangan formal-funksional tadqiqot borasida Sh.Shahobiddinova o'zbek tilshunosligida darajalanish hamda qiyoslash kategoriyalarini farqlash tarafdori: "... belgining darajasi va belgining qiyosi farqli. *Eng qizil olma* birikmasida, darhaqiqat, rang-tus belgisining boshqa predmetnikidan ayricha darajada (ortiq) ekanligi ma'nosi bor. Bu kabi orttirma daraja formasi asosida to'liq, lekin birikmada aks etmagan qiyoslash turadi"⁸⁵.

G'.Zikrillayev daraja sifatning lug'aviy ma'nosida mavjud bo'lishini ta'kidlab, daraja ma'nosini ifodalovchi vositaning kategorial xususiyatiga e'tibor qaratmasdan, shaklning struktur xususiyatiga ko'ra o'ziga xos tasnifini berib, bunga ko'ra shakl, tub, yasama, takroriy, qo'shma turlarga bo'linishi, asliy sifatning o'zak-negizi bo'lgan hamda boshqa shakl yasalishi uchun asos bo'lgan tub shakl borasida ham fikr yuritgan. Yasama shakl sifatida olim an'anaviy fonetik usulning bir qismini nazarda tutib, bunda unli cho'zib talaffuz qilinib, urg'u olishi/undosh orttirishini ko'rsatib bergan: *balaand, maayda, chuquur, qaari*⁸⁶ kabi.

O.Bozorov o'zbek tilida graduonimiya hodisasini tilshunoslikning barcha bo'limlariga ko'ra tadqiq etish barobarida darajalanish qonuniyatlarini tabiiy-ontologik, falsafiy, mantiqiy, gnoseologik-metodologik mohiyatlarini ochib bergan, xususan, so'zlardagi stilistik ma'noning ijobiylikdan salbiylikka o'zgarishini aks ettirgan: *aynanlik* → *farqlilik* → *ziddiyat*⁸⁷; *inson* → *shaxs* → *odam* → *kimsa*; *sodda* → *laqma* → *go'l* → *anqov* → *ovsar* → *pandavaqi* → *merov*; *turq* → *bet* → *aft* → *yuz* → *chehra* → *oraz* → *jamol* kabi⁸⁸. Bizningcha, ushbu qatorga qo'shimcha ravishda *buzoq* so'zini kiritish joiz, chunki o'zbek tilidagi *ammamning*

⁸⁴ Файзуллаев М.Б. Сравнительно-типологические особенности лексико-семантических групп глаголов психического состояния в русском и узбекском языках. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1994. – С.10-15.

⁸⁵ Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. – Андижон, 1994. – Б.131-132.

⁸⁶ Зикриллаев Ғ.Н. Ўзбек тили морфологияси. – Бухоро, 1994. – Б.129.

⁸⁷ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Монография. – Тошкент: Фан, 1995. – Б.29.

⁸⁸ Ko'rsatilgan manba. – В.76-78.

buzog'i iborasi “hech bir ishni eplolmaydigan, lavang, shudsiz” semalarini ifodalaydi hamda yuqoridagi so‘zlar bilan identifikatsiyalanadi⁸⁹.

Ushbu ilmiy qarashlar grammatik kategoriya talqinini mukammallashtirishga turtki bo‘lgani bilan daraja ma’nosini ifodalovchi vositani yaxlit tizim sifatida o‘rganish muammosiga birmuncha yechim hisoblanishi ehtimoldan holi emas. Sh.Orifjonovaga ko‘ra: “Aksincha, mazkur vosita tizimini maydon sifatida o‘rganish masalasining dolzarbligini kuchaytiradi, xolos. Chunki qiyoslash kategoriyasi ajratilar ekan, belgining ortiq-kamligini ko‘rsatuvchi boshqa qator vosita e’tibordan holi qolaveradi”. U gradual qatordagi so‘zlarning ma’nolari borasida so‘z yuritib, quyidagi to‘xtamga keladi: a) gradual qatorda belgi darajalanib, ortib/kamayib borishida miqdoriy o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga o‘tishi shakllanishi; b) gradual zanjirning ikki chekka qutbi ma’lum bir belgining tasdig‘i bilan birga bir-birini inkor etishda inkorning inkor qonuni namoyon bo‘lishi; d) bir-birini inkor etuvchi so‘zlarning bir yetakchi so‘z atrofida birlashib, bir lug‘aviy ma’noviy qatorni, butunlikni tashkil etishida qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi qonuni o‘z aksini topishi.

Darajalanish munosabatlari bilan bog‘langan so‘zlar qatorini esa *sof lisoniy* asoslar (ma’noviy omil va so‘zlararo paradigmatic munosabatlar omili) hamda *g‘ayrilisoniy* (nolingvistik) asoslarga tayanib ajratish mumkinligiga ishora qiladi: yetakchi so‘z atrofida birlashishi: *keng* → *o‘rtacha* → *tor*; so‘zlarning miqdori o‘zgarib turishi: *darcha* → *eshik* → *darvoza*; boshqa paradigmalar tarkibiga yetakchi so‘z bilangina kirishishi; qurshov so‘zlarining almashinishi⁹⁰.

O.Bozorov keyingi izlanishlarida sifat darajasi kategoriyasining shakllantirilish asosi, uning semantik xususiyati, hodisaning fonetik, leksik, grammatik sathlarda namoyon bo‘lishi, butun borliq hodisasi darajalanishi uchun umumiy bo‘lgan “oz-me’yoriy-ko‘p” tamoyilidan kelib chiqish zarurligiga diqqatni qaratadi:

⁸⁹ ЎТИЛ. 1-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. – 79-б.

⁹⁰ Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – Б.34-39.

a) me'yoriy daraja ma'nosi uchun xizmat qilib kelgan "oddiy daraja" atamasining qo'llanishi o'rinli emasligi, mantiqan olganda, "oddiy" tushunchasi aslida "murakkab" tushunchasiga zid qo'yilishi lozimligi, bu tushuncha o'zida "miqdor darajasi", "belgi darajasi" kabi ma'nolarni aks ettira olmasligi;

b) "oddiy-qiyosiy-orttirma" zidlanuvidagi "qiyosiy" atamasi ham o'zi anglatib turgan daraja belgisi (masalan, "ozlik"ning) ma'nosini o'zida aks ettira olmasligi, aslida "qiyosiy" tushunchasi xususiy ma'no turidan birining emas, balki barcha xususiy ma'noning shakllantirilishi asosi bo'lgan usulning atamasi ekanligidan dalolat berishi.

U sifat darajasi qiyos asosida ifodalanishi, bu qiyos ifodalangan va ifodalanmagan turda bo'lishini ta'kidlagan, masalan: *eng katta bino, juda yaxshi odam, qizg'ish bayroq, ko'm-ko'k osmon* so'zshakllarida belgining ortiq-kamligi mavjud, uning ifodalanmagan narsa belgisiga zimdan qiyoslanayotganligi sezilib turadi. Lekin *-roq* shaklli ayrim so'zshaklda belgi ifodalanmagan "etalon" bilan qiyoslangan: *Uzoqdan novcharoq odam kela boshladi. Olim buni Nok olmagan shirinroq* gapidagi muayyan qiyoslanuvchili belgi bilan munosabatiga ko'ra baholaydi, chunki belgi aniq qiyosga ega⁹¹.

Sinonimik qatorlardagi graduonimiya hodisasi xususida fikr yuritganda, konnotativ ma'noning darajalanishini inobatga olish lozim, chunki "...darajalanishning, ayniqsa, konnotatsiya doirasidagi nozik ko'rinishlari sinonimiyaning (aynanlikning) faoliyat ko'rsatishi uchun uning umuman tilda saqlanib qolishiga zamin tayyorlaydi"⁹².

E.Qilichev sinonimlarning semantik darajasi, denotativ, konnotativ ma'nolarini tahlilga tortish bilan bir qatorda Alisher Navoiy ijodidagi 99 ta fe'lni tadqiq qilgan hamda "yig'lamoq" so'zining 7 ta, "ichmoq" so'zining 6 ta so'zdan iborat qatorini keltirib, ular bir-biridan o'zining semantikasi bilan farq qilishini ma'lum qilgan. Olim Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" asarida "yig'i" holatini ifodalovchi *ingramoq* → *singramoq* → *yig'lamsinmoq* →

⁹¹ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – Б.34.

⁹² Ko'rsatilgan manba. – Б. 84-85.

yig'lamoq → *siqtamoq* → *o'kirmoq* → *hoy-hoy yig'lamoq* qatorini graduonimiya hodisasiga kiritadi⁹³.

Sh.Shahobiddinova darajada qiyoslash mavjud bo'lganda va bu holat morfologik vosita bilan ifodalanganda kategorial ahamiyat kasb etishini, nol ko'rsatkichining ma'no imkoniyati kengroq, belgining qiyosiy va noqiyosiy holatiga birdek ishora qilishi, *-roq* esa faqat qiyosiy holat ifodalash uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi⁹⁴. U o'zbek tilida shu vaqtgacha o'rganilmagan gradual lug'aviy qatorlar borasida fikr yuritib, uslubiy bo'yoq ma'nolarida darajalanish hodisalarini o'rganish, o'zbek tili gradual lug'atining dastlabki namunasi tuzish borasida tadqiqot olib borgan. Gradual qatorlarning ikki uchidagi so'zlar o'zaro antonimik ma'noviy munosabatlarni anglatishi, qiyoslash kategoriyasi belgining qiyosiy-noqiyosiy ekanligi, oldingiga bog'liqlikka ishora qilishi hamda *-roq* belgining qiyosiy ekanligini ta'kidlaydi: gradual qatorda *sinkretizm* → *differentsiatsiya* → *ziddiyat* mujassamlashadi.

Demak, tadqiqotchi darajaning nomorfologik ifodalanishi va vositasining birlashuvi qiyoslash-noqiyoslash asosida ekanligidan kelib chiqqan holda, uni grammatik kategoriya sifatida baholamagan va faqat qiyoslash uchun xizmat qiluvchi *-roq* affiksini uning paradigmatic zidi bo'lgan nol (0) shakli bilan birgalikda qiyoslash kategoriyasi sifatida qaragan.

Shu o'rinda dominanta haqidagi ta'rifni ham keltirish joiz: *dominanta* (lot. *dominans, dominantis* – hokim) sinonimik qatordagi bosh so'z bo'lib, bu so'z sinonimik qatordagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan denotativ ma'noni ifodalaydi: *yuz* → *bet* → *aft* → *bashara* → *chehra* → *jamol* → *diydor* → *oraz* → *uzor* → *ruxsor* sinonimik qatorida *yuz* so'zi dominanta hisoblanadi.

A.Hojiyevning lug'atidagi ta'riflarga to'xtalamiz: “*Gradatsiya* (lot. *gradatio* – bosqichma-bosqich kuchaytirish; nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishidan iborat uslubiy jarayon. Lug'atda daraja atamasining izohi mavjud bo'lmasa-da, quyidagi ta'rif keltirilgan: “*Daraja kategoriyasi* – belgining bir-biriga qiyosan darajasini ko'rsatadigan grammatik kategoriya. Asosan, sifat so'z

⁹³ Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Бухоро университети нашриёти: Бухоро, 2001. – Б.68.

⁹⁴ Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2001. – Б.151-153.

turkumiga, qisman ravish turkumiga xos va uning uch kategoriyasi bor: a) bosh daraja; b) ozaytirma daraja; d) orttirma daraja.

Gradual oppozitsiya – lot. *gradus* – qadam, bosqich; qarama-qarshi qo'yiluvchilarning har birida bor belgining turli darajada bo'lishi asosidagi zidlanish: *chiroyli* → *suluv* → *barno* → *go'zal*⁹⁵. Lug'atdagi ushbu ta'riflarga asosan, daraja kategoriya sifatida izohlangan, biroq bu kategoriyadan ham katta funksional-semantik maydon ko'lamidagi hodisa ekanligi va nafaqat sifat, qisman ravishlarga, balki otlarga, fe'llarga xos tilshunoslik hodisasi sifatida qabul qilinadi. Graduonimiya daraja kategoriyasi, gradual oppozitsiya zidlanish kabi aks ettirilsa, gradatsiya nutqqa xos hodisa ekanligining guvohi bo'lamiz, zero, oppozitsiya munosabatlari yuzaga chiqishi uchun me'yor va unga qarama-qarshi ma'nolarning ham mavjudligi oppozitsiya munosabatini to'laqonli belgilab beruvchi omildir.

S.Rahimov, B.Umurqulovlar sifatlarning oddiy, qiyosiy, orttirma darajalari, qiyoslanishdan holi ravishda keluvchi modal shakllari haqida ma'lumot berishgan⁹⁶ bo'lsa, O.Mamaziyayev *gradatsiyani* (lot. *gradation* – bosqichma-bosqich kuchaytirish) badiiy adabiyotda qiyoslash, obraz, poetik, litofora va boshqa tasviriy vositalarning ketma-ket kuchayib yoki pasayib borishidan yuzaga chiquvchi “stilistik figura” ekanligini, ko'proq poetik nutqda qo'llanishini ta'kidlaydi⁹⁷.

Darajalanish bilan farqlarni aniqlashga harakat qilish asosida *darajalanish* tilga, *darajalash* nutqqa xos bo'lgan hodisa ekanligi, gradatsiyaning ma'no yoki mazmunning darajama-daraja o'sib/pasayib borishi hamda mantiqiy, emotsional, kvantitativ usullar bilan ifodalanishi, bir-birining yuzaga chiqishida bevosita ikkalasining ham chambarchas bog'liqligini ta'kidlab o'tadi.

A.Rafiyev turkiy tillarda ikki xil darajalanish mavjudligi borasidagi ma'lumotlarni keltirgan: mavhum qiyoslash (ozaytirish va kuchaytirish qo'shimchalari yordamida): *sariq* – *sarg'ish*, *sarg'il*; *ko'k* – *ko'kish*, *ko'kshil*

⁹⁵ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б.31.

⁹⁶ Раҳимов С., Умурқулов Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. – Б.105.

⁹⁷ Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Филол. фан. номз. ... дисс. – Фарғона, 2004. – Б.72.

hamda aniq narsalarni qiyoslash⁹⁸, H.Jamolxonov esa sifatlarda oddiy, qiyosiy, orttirma daraja mavjudligi, ularning o'ziga xos yasalish shakllarini keltirgan⁹⁹.

Sh.Rahmatullayev sifat leksemalariga qo'shiladigan eng keng qamrovli morfema *-roq* affiksi ekanligi, bu affiks asli *biroz* ma'nosini ifodalashi, bir predmetga xos belgi boshqa bir predmetdagi shunday belgiga nisbatan ifodalanishi, *-roq* affiksi me'yordan oz ma'nosini ifodalashi asossiz ekanligini ta'kidlagan¹⁰⁰.

Z.Xolmanova sifat darajalarining uch xilligi, oddiy darajada belgining ortiq yoki kamligi ko'rsatilmashligi, qiyosiy daraja ozaytirma daraja deb ham yuritilishi, ozaytirma daraja *-(i)mtir, -ish; sal, biroz* kabi vositalar orqali hosil qilinishi, orttirma daraja belgining me'yordan ortiqqligini bildirishi hamda sifat darajalarining fonetik, morfologik, leksik usullarda hosil bo'lishini¹⁰¹ yorqin misollar bilan asoslab bergan: *yukinmoq* → *biroz yukinmoq* → *3 qatla yukinmoq* → *5-6 qatla yukinmoq* → *9 qatla yukinmoq*¹⁰² kabi.

T.Choriyev, N.Safarova, Sh.Istamovalar oddiy darajadagi sifatlarda belgi boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga qiyoslanmasligi, maxsus grammatik ko'rsatkichga ega emasligi, qiyosiy (ozaytirma) darajadagi sifatlarda bir narsa-buyumdagi belgining boshqalarga nisbatan ortiq yoki kamligi qiyoslanishi, morfologik va leksik vositalar yordamida hosil qilinishi, orttirma darajadagi sifatlarda bir narsa-buyumdagi belgining boshqa predmetdagi belgidan eng ko'p ekanligini ifodalashi, fonetik va leksik vositalar yordamida hosil qilinishi borasida fikr yuritishgan¹⁰³. Sifat darajasiga munosabatning o'ziga xos ko'rinishi mavjudligi, orttirma daraja belgining ortiqqligini, ozaytirma daraja belgining kamligini, qiyosiy daraja belgining ortiq-kamligini turli chog'ishtirish (analitik/sintetik) usullari vositasida aniqlashi keltirilgan¹⁰⁴.

⁹⁸ Рафиев А. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004. – Б.56-60.

⁹⁹ Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талқин, 2015. – Б.281-282.

¹⁰⁰ Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б.150-152.

¹⁰¹ Холманова З.Т. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: ЎзМУ, 2007. – Б.108.

¹⁰² Ко'rsatilgan manba. – В.336.

¹⁰³ Чориев Т., Сафарова Н., Истамова Ш. Ўзбек тили. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2008. – Б.32.

¹⁰⁴ Замонавий ўзбек тили. Морфология. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2008. – Б.50.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 80 000 dan ortiq so‘zni mujassam etadi, bu esa amalda qo‘llanayotgan A.Hojiyevning sinonimlar lug‘atini boyitishga asos bo‘lishi ehtimoldan holi emas, shunga asoslangan holda Sh.Bobojonov va I.Islomovlar tomonidan maktab o‘quvchilari uchun lug‘aviy birliklarning darajalanish qatorlarini jamlagan “O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati” yaratilgan¹⁰⁵. Mualliflarning izlanishlari natijasida lug‘atdagi graduonimiya qatorini tashkil etuvchi so‘zlar ma‘nosi va bo‘yog‘iga ko‘ra ajratilgan, qatorlar alifbo tartibida joylashtirilgan. Jami 400 ta qatorni o‘z ichiga olgan lug‘atda ma‘nosiga ko‘ra 134 ta gradual qator, bo‘yog‘iga ko‘ra 266 ta gradual qator o‘rin olgan. Mazkur lug‘at, garchi o‘zbek tilshunosligidagi gradual qatorlar lug‘ati shakllantirilmagan bo‘lsa-da, ma‘lum darajada graduonimiya hodisasiga oydinik kiritishga zamin hisoblanadi. Lug‘atdagi gradual qatorlarni ko‘rib chiqib, otlarning gradual qatorlarini shakllantirishda hajm ortishi, miqdor o‘zgarishi, paydo bo‘lishi, qo‘llanish doiralari muhim ahamiyat kasb etishi, voqea-hodisa, harakat anglatuvchi so‘zlarning gradual qatorlarini shakllantirishda harakat, nutq, holat, natijali faoliyat, munosabat turlari, belgining o‘lchami va darajasi semasiga ega bo‘lgan leksemalar grand-funksiyani bajarishi kabilarni aniqladik.

A.Hojiyev 50 dan ortiq sifat yasovchi affikslarni keltirib¹⁰⁶, sifat darajalariga doir “*qiyosiy* – taqqoslashga, qiyoslashga asoslangan”, “*ozaymoq* – sifat yoki miqdor jihati kamaymoq, pasaymoq”, “*orttirma* – belgi xususiyatining boshqa predmet belgi xususiyatidan ortiqqligini bildiradigan sifat darajasi” ta’riflarini batafsil sharhlab bergan¹⁰⁷. Miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi hammamizga ma‘lum, demak, xuddi shunday sinonimik qatorlardagi ma‘no darajalari farqining ortib borishi mazkur birliklarning sinonimiya munosabatini inkor etadi. Shu o‘rinda olim sifat darajalari tasnifida belgining me’yoriy yoki me’yordan ortiq-kamligini ifodalash usullari asosli ekanligini ta’kidlaydi, shunga

¹⁰⁵ Bobojonov Sh., Islomov I. O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 46 b.

¹⁰⁶ Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010.

¹⁰⁷ Hojiyev A. va b. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001. – 336 b.

ko'ra, daraja ko'rsatkichlarining konnotativ ma'nosini o'rganish uchun aynan shu tasnif asosida ish ko'rish joiz.

R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va boshqalar sifatlar darajalanish qatori, ularning darajaga ajratilishi, daraja kategoriyasi umumiy grammatik ma'noni "belgining ortiq-kamligiga munosabat bildirmaslik" tarzida yuzaga chiqishini: (*yaxshi*), (*qattiq*), (*semiz*), (*keng*), (*baland*), (*to'g'ri*), (*yumshoq*) ko'rsatib berishgan. Orttirma daraja belgining me'yoriy holatdan ortiqligi, kuchliligini ifodalashi, DK UGMsini "belgining me'yordan ortiqligini ifodalash" tarzida xususiylashtirilishi, maxsus morfologik shaklga ega emasligi, DK ifodalovchisining geterogenligi (har xilligi) ushbu darajada yaqqol ko'zga tashlanishi, fonetik va leksik usullar bilan hosil qilinishi, belgining ortiq darajasi analitik shaklda ham ifodalanishini asoslab berishgan¹⁰⁸. 14 Shu bilan bir qatorda ozaytirma daraja DK UGMsini "belgining me'yordan kamligini ifodalash" ko'rinishida xususiylashtirishi leksik va morfologik usullarda yuzaga chiqishini ta'kidlashgan.

Sh.Rahmatullayev sifatdagi daraja ma'nosini ifodalovchi vositani turli sathga va turli shaklga egaligi, sifat leksemaga qo'shiladigan affiks, affiksoid va boshqa vosita jihatidan ham, mazmun jihatidan ham turli-tuman, bir paradigмага birlashmasligi, noparadigmatik morfema sifatida namoyon bo'lishi va, sifat darajasi deb kelingan hodisani yaxlit bir paradigмага birlashtirishga yetarli asos yo'qligini ta'kidlagan¹⁰⁹.

O'zbek tilidagi daraja kategoriyasini funksional-semantik maydon sifatida tadqiq etgan L.Elmuurodova darajalanishni faqatgina sifatlarga xos grammatik kategoriya ekanligini ta'kidlagan. Daraja ma'nosining sinxron-formal-funksional talqinini berishda uning morfologik va lingvistik xususiyatini o'rganishda dialektik metodologiya asosida ish ko'rgan. Belgi darajasini yadro, markaz hamda chekka qismga joylashtirgan holda yondashgan, daraja tushunchasining sathlararo

¹⁰⁸ Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2010. – Б.123.

¹⁰⁹ Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б.151-153.

namoyon bo'lishi va daraja funksional-semantik maydonining lisoniy, nutqiy xususiyatlarini keltirgan¹¹⁰.

J.Djumabayeva *gradatsiya, gradual munosabat* atamalariga ta'rif berib, o'zbek tili zamirida ushbu hodisa nafaqat leksika, balki morfologiya va sintaksisda ham o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan, siklik gradual qatorlarni ko'rib chiqish asosida ingliz tilida graduonimiya tadqiqot manbayi sifatida o'rganilmaganligini asoslab bergan. Shu bilan bir qatorda, so'z turkumlaridagi darajalanishni *taqlidiy so'zlar → undov so'zlar → modal so'zlar → olmosh → ravish → sifat → fe'l → ot; kesim → ega → hol → to'ldiruvchi → aniqlovchi* qatorlar ko'rinishida tasvirlagan. Ingliz tilida sifat asosiy semantik qatorlarining tasvirlovchi va tasniflovchi guruhlari, ravishlarda esa yettita (o'rin, payt, holat, daraja, qo'shuvchi/ayiruvchi, munosabat, bog'lovchi) turi mavjudligi, doim o'z ma'nosida qo'llanmasligini ta'kidlagan¹¹¹. *Gradatsiya* (bir matnda uchraydigan birlik) hamda *graduonimiya* (so'zlarning darajalanishini aks ettiruvchi lisoniy hodisa) o'rtasidagi farqlarni ochib: “*gradatsiya* – ifodalilikni birin-ketin kuchaytirib/pasaytirib borish usuli. Agar ifodalilik birin-ketin kuchaytirib borilsa, – *klimaks*, agar pasaytirib borilsa, – *antiklimaks*”¹¹² ta'rifini bergan.

Turkiy tub sifatlar ishorani bildirib, morfologik ko'rsatkichga ega bo'lmasligi, belgini umumiy xarakterda ifoda etishi, turkiy tub sifatlar morfologik jihatdan asliy sifatlarga xos holda hosil bo'lganligi, orttirma daraja, ozaytirma daraja, chog'ishtirma darajaga bo'linishi, ulardagi unli cho'zilgan holdagina orttirma darajani ko'rsatishi, birinchi bo'g'ini unlisigacha olinib, ketidan bir undosh orttirgan holda, o'sha sifat oldidan qayd etib, kuchli orttirma daraja yasalishini ta'minlashi ham ta'kidlangan¹¹³.

¹¹⁰ Элмуродова Л.Н. Ўзбек тилида даража функционал-семантик майдони (белги даражаси микромайдони). Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б.26-28.

¹¹¹ Джумабаева Ж.Ш. Об исследовании лексической градуонимии // Актуальные вопросы теории и практики филологических исследований: материалы международной научно-практической конференции 25-26 марта 2011 года. – Пенза-М.: Репт: Социосфера, 2011. С.20-22.

¹¹² Ko'rsatilgan muallif. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 231 б.

¹¹³ Миртожиев М. М., Туркий туб сўзлар тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2017. – Б.223.

B.Umurqulov asliy sifatlardagina daraja ko'rsatkichi mavjudligi, nisbiy sifatlarda esa maxsus sifat yasovchi qo'shimcha orqali yasalishini asoslab bergan¹¹⁴ bo'lsa, S.Muhamedova o'zbek tilidagi harakat fe'llari orasida ma'noviy darajalanish mavjudligini ularni ma'noning kuchayib borishiga ko'ra joylashtirish orqali ko'rsatib bergan¹¹⁵.

O'zbek tilshunosligida so'z, ibora yoki gaplar ma'nosining kuchayib/kamayib borishi asosida til birliklarining o'zaro ta'siri bo'ladigan *graduonimiya* hodisasi talqin etilgan. Zero: "o'zbek tilshunosligida hozir *graduonimiya*, *gradual munosabat* va *darajalanish* atamalari deyarli sinonimlar sifatida qo'llanmoqda"¹¹⁶.

H.Jamolxonov bergan ta'rif esa quyidagicha: "*Graduonimiya* – leksemalarning ma'no guruhlarida a'zolarida u yoki bu belgining darajalanishi. Bunday darajalanishga oppozitsiyaning bir turi, deb qaraladi va shu qatordagi bosh so'zga nisbatan belgilanadi"¹¹⁷. Sifat darajasiga kengroq bir hodisa sifatida qarab, O.Bozorovning tadqiqotlari asosida bergan xulosalariga qarshi chiqqan, "oz-me'yoriy-ko'p" tamoyilidan kelib chiqib, bu sifat darajasi kategoriyasining nomlanishiga zid ekanligini ta'kidlagan.

B.Mengliyev *graduonimiya* (yun. *gradatio* – ko'tarilish, o'sish, *onymo* – nom) lug'aviy birliklar o'zaro ma'noviy munosabatiga ko'ra ma'lum bir darajalanish qatorini hosil etishi va uning yorqin namunasi *o'rta* so'zini o'z ichiga olgan so'zlar qatori ekanligi, gradual qatorni ajratishning lisoniy, ma'noviy omillari zarurligi, darajalanish munosabatlari bilan bog'langan so'zlar qatorini ajratishdagi ma'noviy omilning mohiyati bir qator leksemalar sememasida ma'lum bir belgining oz-ko'pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjudligini ko'rsatgan¹¹⁸.

¹¹⁴ Umurqulov B. Hozirgi ўzbek tili. – Termiz: TDU, 2012. – B.77.

¹¹⁵ Muhamedova S.X. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. – Тошкент: Фан, 2013. – 118 б.

¹¹⁶ Джумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2014. – Б.6-70.

¹¹⁷ Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талқин, 2015. – Б.186-254.

¹¹⁸ Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – B.169.

N.Shirinova graduonimiyaning ko‘p qirrali hodisa ekanligi, ingliz va o‘zbek tilidagi gradual munosabatlarni tahlil qilgan: “...mohiyatan mantiqiy kategoriyalar bo‘lgan predmetlik va belgi-xususiyat ma’nolarining ingliz va o‘zbek tillarida farqlanish mexanizmining tadqiqi mazkur tillarning fonetik, leksik va grammatik sathlari birliklari orasida voqelanadigan gradual munosabatlar lisoniy ong, olamning o‘zbekona yoki inglizcha lisoniy manzarasini berishda ham yorqin namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi”¹¹⁹. Bu predmetlik, belgi-xususiyat ma’nolarini farqlashda graduonimiya hodisasi har bir tilning idioetnikligi, lingvomadaniy xususiyatlari, milliy qadriyatlari ifoda etilishiga misoldir.

M.Ne‘matova ingliz tilida mavjud leksemalarning graduonim qatori o‘zbek tilida birgina so‘z bilan ifodalanmasligi mumkinligi, bu holatda ushbu so‘zlar qatori *unikal* graduonim qator deya atalishi, ularning o‘ziga xosligi esa boshqa tillarda ularga mos ekvivalentlarning mavjud emasligini aytib o‘tgan¹²⁰.

O‘zbek tilidagi birorta hodisa darajadek rang-barang talqinga ega emas. Barcha tilshunoslar o‘zbek tilida daraja ma’nosi va uning ifodalanishi mavjudligini e’tirof etishgani holda, uning kategorial xususiyati, tarkibi va ifodalovchi vositasida bir to‘xtamga kelishmagan. Buning barchasi daraja ma’nosini ifodalovchi vosita har xilligi, qamrovi kengligi, grammatik kategoriya mezoniga sig‘masligi bilan belgilanishi, daraja hodisasini grammatik kategoriyadan kengroq “uyushma” funksional-semantik maydon sifatida o‘rganishga asos bo‘ladi.

So‘nggi paytlarda darajalanish kategoriyasi tilshunoslikda “graduonimiya” atamasi bilan ifodalangan. Garchi bu atama g‘arb olimlari tomonidan aniqlangan til hodisasi sifatida qabul qilingan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida ushbu hodisaning dastlabki namunalarini Alisher Navoiyning “Muhokamatul-lug‘atayn” asaridagi *yig‘lamoq* → *inchkirmak* → *ingramak* → *singramak* → *yig‘lamsinmak* → *siqtamak* → *o‘kurmak* → *hoy-hoy yig‘lamak*¹²¹ darajalanish qatorida *yig‘lash* holati belgisi

¹¹⁹ Ширинова Н.Д. Инглиз ва ўзбек тилларида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлашда градуонимик муносабатлар. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2020. – 246 б.

¹²⁰ Нигматова М.Ф. Градуонимические ряды в словаре узбекских, английских синонимов // Вестник науки и образования. – Иваново, 2021, №2 (105). С.56-58.

¹²¹ Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug‘atayn. 16-jild. – Toshkent: Tafakkur, 2014. – B.144.

inchkirmak (iztirob chekib juda past ovoz chiqarib, ich-ichidan yig‘lamoq) fe‘lidan *hoy-hoy yig‘lamak* (baland ovoz bilan *oshkora yig‘lamak*) fe‘ligacha kuchayib borishini ko‘rish mumkin.

Graduonimiya insonning bir voqelik, shaxs, belgiga baho munosabatidan kelib chiqadigan jarayon bo‘lib, munosabatlar har xilliliga ko‘ra talqinlar ham birbiridan farq qiladi. Graduonimiya hodisasi, asosan, belgi bildiruvchi so‘zlar nuqtayi nazaridan talqin qilinib, belgini darajalab ko‘rsatishga bo‘lgan e‘tibor ko‘lamini namoyish etadi. G‘.Rahmonov o‘zbek tilida lug‘aviy sinonimiya va graduonimiyaning o‘zaro munosabatlarini tadqiq etish asosida predmet bildiruvchi sinonimik qatorlarning 69 tasida, belgi bildiruvchi sinonimik qatorlarning 81 tasida graduonimiya mavjud ekanligini ta’kidlagan¹²².

Konnotativ ma’no darajalanishi sinonimik qatorlarning darajalanish hodisasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga zid ravishda denotativ ma’noning darajalanishga tamomila zid ekanligini ta’kidlash joiz, biroq sinonimik qatordagi denotativ ma’no doirasidagi darajalanishlar mantiqan to‘g‘ri emas. Masalan, olim *shamol*, *shabada*, *yel*, *sabo* so‘zlarini gradual munosabat mavjud bo‘lgan sinonimik qator sifatida tadqiq etadi¹²³. Bizningcha, *shamol*, *yel* so‘zlari *shabada* va *sabo* so‘ziga sinonim bo‘la olmaydi, chunki *shamol* va *shabada* so‘zlari alohida voqeliklarni nomlab kelmoqda va ularning munosabati aynanlikka emas, farqlilikka asoslangan. Miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi hammamizga ma’lum. Bu kabi sinonimlarning nutqda to‘g‘ri tanlanishi, qo‘llanishi yangi ma’no leksemalarining hosil bo‘lishi, til jozibaliligi ortishini taqozo etadi.

O‘zbek tili leksik zaxirasining jadallik bilan kengayishi va boyib borishi davr talabiga javob beradigan sinonimlarning izohli lug‘atini qayta yaratish zaruratini yuzaga keltirdi. O‘zbek tilshunosligi oldida sinonimik birliklarni tartibga solish, takomillashtirish, ularni lug‘atda aks ettirish va izohlash bilan bog‘liq talay muammolar mavjud. O‘zbek tilidagi lug‘atlardan farqli ravishda “Словарь-

¹²² Раҳмонов Ф. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати. Филол. фан. бўйича фалс. док. ... дисс. – Фарғона, 2019. – Б.13-16.

¹²³ Ko‘rsatilgan manba. – B.15-18.

тезаурус синонимов русского языка” (“Rus tili sinonimlarining lug‘at-tezaurusi”) tilshunoslik tamoyillari asosida tuzilgan, o‘zbek tilida bunday toifadagi lug‘atlar (“O‘zbek tilining ma‘nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”, “O‘zbek tilining so‘zlar darajalanish o‘quv lug‘ati”ni inobatga olmaganda) hali yaratilmagan¹²⁴. Biroq, joriy yilda yangi nashrdan chiqqan ikki jildli “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati” o‘zbek lug‘atchiligida tub burilish yasadi¹²⁵.

Gradual qatorlar ikki turli bo‘ladi: dominanta so‘zi mavjud gradual qatorlar va dominanta so‘zidan holi bo‘lgan gradual qatorlar. Dominanta so‘z mavjud gradual qator, asosan, birga keladigan mavhum otlar, sifatlar, holat va harakatni bildiruvchi so‘zlar, intensivlik va emotsionallik ma‘nosidagi so‘zlar turkumida uchraydi va ularning xususiyatlari, jarayonlari o‘rtasidagi oraliq holatlarda ham kuzatiladi. Dominanta so‘z mavjud bo‘lmagan gradual qatorlar esa belgining darajasiga ko‘ra asosiy so‘z ma‘nosiga qo‘shimcha ravishda keltiriladi.

Hosil qilingan gradual shkalaning yadrosini umumiy ma‘noni o‘zida mujassam etgan so‘z birligi egallaydi, boshqa so‘z birliklari esa maydonning qolgan qismlarini tashkil etadi. Ma‘noning me‘yorga nisbatan leksik birliklarning bosqichma-bosqich ortib/kamayib borishi natijasida gradual qator dominantasi nodominant holatga o‘tishi gradual qatorning leksik-semantik maydoni hisoblanadi. LSM ham o‘z navbatida tizimli-struktur birlikni tashkil etadi, u o‘z zahirida bir necha mikromaydonlardan tashkil topishi mumkin. Gradual qatorlar gradual shkala hosil qilishi ham o‘ziga xos chegaralanganlik/chegaralanmaganlik xususiyatlarini aks ettiradi. LSM, graduonimiya, sinonimiya, antonimiya bir-biri bilan juda bog‘liqdir. Sinonimiya, antonimiya, graduonimiya ikki xil xususiyatga ega bo‘lib, antonimik qator zahirida sinonimik munosabatlar va gradual qatorlarni, gradual qatorlarda antonimik va sinonimik munosabatlarni, sinonimik qatorlarda gradual munosabatlarni hosil qilish mumkin.

¹²⁴ Данияров Б.Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати, лексикографик тадқиқи. Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 33 б.

¹²⁵ O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. 2 jildli. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 992 b.

I bobga doir xulosa

1. Tilshunoslikka oid asosiy adabiyotlarda qayd etilganidek, graduonimiya hodisasi, dastavval, turkologiyada talqin qilingan hodisa bo'lib, umumiy tilshunoslikka yangilik sifatida kiritilgan, uning boshqa lisoniy hodisalardan differensiallovchi o'ziga xos tomonlari ham tadqiq etilgan. Turkologlar, xususan, o'zbek tilshunoslari bu hodisani jahon tilshunosligida ahamiyatga molik lisoniy hodisa ekanligini isbotlash va aniq dalillar bilan asoslab berishga muvaffaq bo'lishgan. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlarimizning betakror va noyob asarlarida o'z ifodasini topgan gradual hodisalar buning yorqin dalilidir.

2. Graduonimiya hodisasi graduallikning ma'nosini shakllantirishga asos bo'la oladi. Bu hodisa graduallik davomida o'zaro munosabatda bo'ladigan *gradual shkala, me'yor, miqdor, kamayib borish, ko'payib borish* kabi sohalarning kompleks tahlilini talab etuvchi bilimlarning o'ziga xos majmuyi bilan chambarchas bog'liq. Aynan shu bilimlar majmuyi asosida insonda talqin etish faoliyatining o'ziga xosliklari mujassamlashadi. Gradatsiyaning stilistik uslubi zamirida bir jihatdan *graduallik* (semantik tamoyil) yotsa, ikkinchi tomondan *gradual qator* (sintaktik tamoyil) yotadi, zero gradual qator hosil qilinishida bu ikki xususiyat muhim ahamiyat kasb etadi. Gradatsiya, asosan, zamonaviy o'zbek va rus tillarida adabiy-badiiy va publitsistik hamda poetik asarlarda kuzatiladi.

3. Gradatsiya bir qator lug'aviy komponentlar (so'zshakllar, so'z birikmalari, gap bo'laklari, yaxlit bir gaplar)dan iborat bo'lgan, ularning ortib/kamayib borishiga ko'ra ma'lum stilistik samara beradigan usul hisoblanib, matn ko'rinishida ham ifodalanishi mumkin. Gradual birikmalar yoki shakllarni hosil qilishda fonetik, leksik, so'z hosil qilish hamda morfologik usullardan foydalanish imkoni mavjud. Gradual birikmalarning umumiy xususiyati uning ifodaliligi bo'lsa, boshqa xususiy funksiyalariga ko'ra xususiyati emotsional-kuchaytirish,

baholash, tasvirlash, ritm hosil qilish, matn hosil qilish, ajratish, mantiqiy funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

4. Graduonimiyaning mazmun-mohiyati u bilan aloqador hamda yondosh tushunchalar izohi bilan to'laqonlilik kasb etadi. *Graduallik, gradual munosabat, gradual lug'at, gradual shkala, graduator, gradual funksiya, gradosema, gradotativ* kabi tushunchalar izohi graduonimiyaning ta'rifi, mazmuni, qamrovi, til tizimida tutgan o'rnini baholash imkonini beradi. *Graduonimiya* belgining nol darajasiga nisbatan gradual shkalada aks ettirilishini anglatadi. Graduonimiyaga yondosh tushunchalar graduonimiyaning bosqichlar va pog'onalarga bo'linishi, gradual shkalaning joylashishida ma'lum bir ko'rinishdagi bosqichma-bosqichlilikni, ma'no va emotsional jihatidan ortib borish darajasini ifoda etadi. Mazkur tushunchalar munosabati graduonimiya hodisasining asosiy va yordamchi gradual leksikadan iborat ekanligini asoslaydi.

5. *Graduallik* mantiqiy kategoriya sifatida insonning biror belgini ifodalashida predmetlarga xos bo'lgan belgisi yoki miqdoriy jihatidan me'yoriy so'zga nisbatan bir chiziqda tartibli joylashtirishi, ya'ni *gradual shkala* xosligini ta'kidlash joiz. Tilshunoslikdagi *gradatsiya* doimiy ravishda mantiqiy gradatsiyaga asoslanib, barcha til darajalarida o'z aksini topadi. Shu o'rinda, bu kabi natijalar amaliy ahamiyatga ega bo'lgan gradual lug'atlar yaratishga zamin bo'ladi.

6. Tadqiqotlar tahlili natijasida *daraja* terminining, asosan, sifat darajalariga nisbatan qo'llangani, sifat so'z turkumining kategorial belgisi hisoblangani, sifatlardagi darajalanishni tildagi leksik-semantik darajalanish bilan farqlamaslik muammosi mavjudligi namoyon bo'ldi.

Sifat, ot, fe'llardagi graduonimiya hodisasi har bir so'z turkumiga xos ma'no bo'yoqlarini aks ettiradi: sifatlarda ma'noning salbiylikdan ijobiylikka o'zgarishi, otlarda differensiallovchi xususiyatlar yuzaga chiqishi, fe'llarda esa natijadorlikning ko'rinishlari.

7. O'zbek tilshunosligida hozir *graduonimiya, gradual munosabat, darajalanish* atamaları deyarli sinonimlar sifatida qo'llanmoqda, vaholanki, birorta

hodisa darajadek rang-barang talqinga ega emas. Barcha tilshunoslar o‘zbek tilida daraja ma’nosi va uning ifodalanishi mavjudligini e’tirof etishgani holda, uning kategorial xususiyati, tarkibi, ifodalovchi vositasida umumiy bir to‘xtamga kelishmagan. Buning barchasi daraja ma’nosini ifodalovchi vosita har xilligi, qamrovi kengligi, grammatik kategoriya mezoniga sig‘masligi bilan belgilanishi, bu esa daraja hodisasini grammatik kategoriyadan kengroq “uyushma” funksional-semantik maydon sifatida o‘rganishda to‘laqonli asos bo‘la olishini taqozo etadi.

8. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya ismga oid so‘zlar tahlilida, belgi bildiruvchi so‘zlarni tadqiq qilish doirasida, leksikologiya, grammatikaning nazariy asoslarini yoritishda, belgi bildiruvchi so‘zlar tavsifida yoritilgan. Tadqiqotlarda belgi bildiruvchi so‘zlarda darajaning ifodalanishi, tillardagi tipologik o‘xshashliklar va farqli jihatlar, darajalanishning tipik belgilarini aks ettiradigan sifat turkumi, darajalanishning tildagi funksiyasi tahlil etilgan. Gradual hodisa tilda o‘ziga xos sinonimik va antonimik qatorlarning shakllanishiga asos bo‘lib, natijada tilning leksik boyligi ortishiga, ulardan foydalanish ko‘lami kengayib borishi, fikr ifodalashning o‘ziga xos jozibasiga erishiladi.

9. Rus tilshunosligida graduonimiya va unga yondosh tushunchalar tahliliga e’tibor berilgan. Turkiyshunoslikda, rus tilshunosligida daraja, intensivlik kategorial hodisa sifatida, rus tilshunosligida graduonimiya, gradual munosabat, graduallik masalalari ilmiy tadqiqot muammosi sifatida talqin etilgan.

10. Har bir til o‘ziga xos ifoda vositalariga, grammatik tuzilishiga ega bo‘lib, o‘ziga xosliklar nazariy tilshunoslik hamda amaliy lingvistika masalalari talqinida namoyon bo‘ladi. Tillarning spetsifik belgilari, ichki imkoniyatlari, milliy qadriyatlar tildan foydalanuvchilarning tafakkuri, lisoniy ongi, idroki, dunyoqarashini ifoda etadi. O‘zbek va rus tillarida graduonimiyaning ko‘rinishlari, qiyosiy va orttirma daraja oddiy darajadan o‘zining morfologik ko‘rsatkichlari bilan farqlanishi, oddiy daraja sifat darajalarini hosil qilishda asos vazifasini o‘tashi ma’lum bo‘ldi.

II BOB. O‘ZBEK VA RUS TILLARIDAGI OT LEKSEMALAR GRADUONIMIYASI

2.1-§. O‘zbek va rus tillarida shaxsni ifodalovchi lug‘aviy graduonimiya

Graduonimiya, daraja tushunchalari haqida so‘z borganda, aksariyat tadqiqotlarda belgi bildiruvchi leksemalar tahlil qilingan. Graduonimiya hodisasi ot leksemalar doirasidagi so‘zlarni ham qamrab oladi. Shaxsni ifodalash uchun o‘zbek va rus tillarida bir qator graduonimiya qatorlari kuzatiladi, gradual birliklar yosh guruhlariga ajratilishi biologik asoslarga ega bo‘lib, ko‘p hollarda ular jamiyat, madaniyat, til vositasida aks ettiriladi. Turli xalq, uning tili, madaniyati, muayyan vaqt davomida turlicha ifoda etishi mumkin. Inson guruhlariga to‘planishi bo‘yicha *gala* → *to‘da* → *olomon* gradual qatori rus tilida quyidagi so‘zlar paradigmasini hosil qiladi: *зурьба* → *толна* → *орда* (turk.).

Inson dunyoga kelgandan boshlab unga chiroyli ism qo‘yish urfga kirgan, vaholanki, boshqa narsalarni nomlash, unga mos atama tanlashda ham ushbu jarayon bilan bog‘liq graduonimiya hodisasi kuzatiladi: *ot* → *ism* // *имя*.

Shaxsning nomlanishi o‘ziga xos graduonimiya hodisasini aks ettiradi, u quyidan yuqoriga o‘sib ulg‘aygan sari turli yosh bosqichlaridan o‘tadi. O.Bozorov darajalanishning tilga va nutqqa xos ko‘rinishlarini farqlash kerakligini quyidagicha ko‘rsatgan: ulg‘ayishning oshib borishiga ko‘ra ma’noviy nomlanish *chaqaloq* → *go‘dak* → *bola* → *o‘smir* → *yigit* → *erkak* → *chol*¹²⁶ bo‘lsa, rus tilidagi qator *новорожденный* → *малыш* → *ребёнок* → *подросток* → *парень* → *мужчина* → *старик* kabi bo‘ladi. Bu qatorga qo‘shimcha ravishda biz o‘zbek tilidagi *o‘spirin* leksemasini kiritdik, chunki *o‘spirin* balog‘at yoshiga yetmagan yosh yigit ma’nosini anglatsa, uning ikki tomonidagi leksemalardagi belgi biroz farqlanadi: *bola* – hali voyaga yetmagan va *o‘smir* – balog‘at yoshiga o‘tishdagi davrlarni anglatadi.

¹²⁶ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 22 б.

Xalq gohida tolib erur, goh ustoz daho,

Bir qarasang, beshikdagi go ‘dakdir hatto. A.Oripov. Xalq.

Ota, sen ham duolar qil

O‘g‘loning uchun,

Bolang balki o‘spirindir,

Balki juda yosh. A.Oripov. Toychoq va o‘g‘lon.

Quyidagi misralarda poetik nutqda uchraydigan ikki turdagi darajalanishni kuzatishimiz mumkin: *tolib* → *ustoz*; *go ‘dak* → *bola* → *o‘spirin* → *juda yosh*.

2.1- jadval

Shaxsning nomlanishi gradual ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	O‘zbek tilidagi birliklar	Ko‘rsatkichlar	Rus tilidagi birliklar
0	<i>ninni</i> – yangi tug‘ilgan bola, chaqaloq [O‘TIL ¹²⁷ III, 40-b.]	0	<i>грудник</i> – новорожденный, младенец [ТСУ ¹²⁸]
1	<i>chaqaloq</i> – yangi tug‘ilgan bola, go‘dak [O‘TIL IV, 465-b.]	1	<i>малыш/малышка</i> – ребёнок [ТСУ]
2	<i>go‘dak</i> – emadigan, ko‘krakdan ajratilmagan, 1 yoshgacha bo‘lgan bola, chaqaloq [O‘TIL I, 529-b.]	2	<i>ребёнок</i> – мальчик или девочка в раннем детском возрасте [ТСУ]
3	<i>bola</i> – hali yosh, voyaga etmagan odam [O‘TIL I, 305-b.] <i>qizaloq</i> – qiz bola, yosh qiz [O‘TIL V, 276-b.] <i>qizcha</i> – yosh qiz [O‘TIL V, 281-b.]	3	<i>мальчик</i> – ребёнок мужского пола; отрок [ТСУ] <i>девочка</i> – ребёнок женского пола; малолетняя девушка [ТСУ]
4	<i>o‘spirin</i> – balog‘at yoshiga yetmagan yosh yigit [O‘TIL V,	4	<i>несовершеннолетний/ья</i> – не достигший совершеннолетия [ТСУ]

¹²⁷ Bu va keyingi o‘rinlardagi ma’lumotlar <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/> internet-manbayidan olingan.

¹²⁸ Bu va keyingi o‘rinlardagi ma’lumotlar <https://ushakovdictionary.ru/> internet-manbayidan olingan.

	174-b.]		
5	<i>o'smir</i> – bolalikdan balogʻat yoshiga otish davridagi, 12-16 yoshdagi bola [OʻTIL V, 173-b.]	5	<i>подросток</i> – мальчик или девочка в возрасте от 12 до 16-17 лет [ТСУ]
6	<i>yigit</i> – yosh erkak, yosh kishi [OʻTIL II, 266-b.] <i>qiz</i> – balogʻat yoshiga yetmagan ayol [OʻTIL V, 276-b.]	6	<i>парень</i> – юноша (неженатый, молодой юноша) [ТСУ] <i>девушка</i> – лицо женского пола, достигшее половой зрелости, но ещё не вступившее в брак [ТСУ]
7	<i>erkak</i> - erkak jinsiga mansub kishi [OʻTIL V, 45-b.] <i>ayol</i> - yetuk yoshdagi shaxs (qizga nisbatan) [OʻTIL I, 43-b.]	7	<i>мужчина</i> – лицо, достигшее зрелого возраста, физической и духовной зрелости [ТСУ] <i>женщина</i> – взрослая личность, в противопоставление девушке [ТСУ]
8	<i>chol</i> – qari er kishi, keksa, moʻysafid [OʻTIL IV, 505-b.] <i>kampir</i> – yoshi ulgʻaygan, keksa, qari xotin [OʻTIL II, 310-b.]	8	<i>старик/старикан/старикашка</i> – мужчина, достигший старости [ТСУ] <i>старуха</i> – женщина, достигшая старости [ТСУ]

Goʻdak leksemasi baʼzi hollarda yetarli hayot tajribasiga ega boʻlmagan, gʻoʻr, xom insonga nisbatan ham qoʻllanishi kuzatiladi: *Ustozdek qattiqqoʻl inson yosh va gʻoʻr shogirdining bu taxlit goʻdaklarcha “isyoncha”siga eʼtibor ham qilmadi.* X.Doʻstmuhammad. *Влюблялся как ребёнок, и любил как ребёнок, и верил во все шутовства жизни.* В.А.Соллогуб. Большой свет.

Chol-kampir juft soʻzi oʻzbek tilida nafaqat keksaygan ota-onaga nisbatan, balki er-xotinga nisbatan, *bola-chaqa/bola-baqra* (katta-kichik bolalar) birikmasi oila aʼzolari, yaʼni xotin va bolalarga nisbatan ham qoʻllanadi.

Yosh tushunchasi, avvalambor, barcha tilda birlamchi hisoblanadi, zero, uning asosida yosh semantikasining assotsiativ aloqalari, baholash kabi konnotatsiyalarga bevosita bogʻliqlik kuzatiladi. Pifagor rivojlanishning yosh bosqichlarini *bahor* (tugʻilishdan 20 yoshgacha) – *yoz* (20 – 40 yosh) – *kuz* (40 –

60 yosh), *qish* (60 – 80 yosh) kabi davrlarga ajratgan, Alisher Navoiy inson umrini to‘rt qismga – *bolalik*, *yoshlik* (navqironlik), *o‘rta yosh* va *keksalikka* taqsimlangan holda o‘z asarlaridagi leksemalarni qo‘llagan. Hozirgi kunda yosh davrlari xalqaro qabul qilingan V.Kvinn tasnifiga ko‘ra:

Go‘daklik davri//*младенческий возраст* – tug‘ilishidan to 3 yoshgacha;

Erta bolalik//*раннее детство* – 3 yoshdan 6 yoshgacha;

Bolalik//*детство* – 6 yoshdan 12 yoshgacha;

O‘smirlik//*подростковый (юношеский) возраст* – 12 yoshdan 18 yoshgacha;

Yoshlik//*молодость* – 18 yoshdan 40 yoshgacha;

Yetuklik//*зрелый возраст* – 40 yoshdan 65 yoshgacha;

Keksalik//*пожилой возраст* – 65 yoshdan yuqori sifatida belgilangan¹²⁹.

Har bir milliy-madaniy muhitdagi yosh konseptining umumiyligi – barcha tillar uchun birlamchi xususiyatlari, ya’ni yosh tushunchasi *bolalik*, *yoshlik*, *yetuklik*, *keksalik* kabi asosiy davrlar negizida shakllantiriladi. Shu bilan bir vaqtda shaxsni ifodalash *yosh* → *o‘rta yosh* → *keksa*//*молодой* → *среднего возраста* → *пожилой* so‘zlari yordamida qo‘llanishi ham kuzatiladi. Bu gradual qatorlarda oraliq uchinchi o‘zbek tilida *o‘rta yosh* rus tilida *среднего возраста* so‘z birikmasi yordamida o‘z ifodasini topgan, qator tomonlari oppozitsiya munosabatini namoyon etadi. Shaxsni ifodalovchi yosh shkalalari o‘zbek va rus tillarida turli yosh lug‘aviy semantikasini o‘z ichiga oladi. Turli oila tillariga mansub bo‘lgan o‘zbek va rus tillarida yoshning eng ko‘p qo‘llanish shakllari *bolalik*//*детство* va *yoshlik*//*молодость* tushunchalari bo‘lib, ular bilan bog‘liq bo‘lgan turg‘un xususiyatlar quyidagilardir:

bolalik davriga rivojlangan ko‘nikma/malakalarning mavjud emasligi, biror narsaga mukkasidan ketishlik umumiy belgi hisoblansa, o‘zbek tilida *bolalik* tushunchasi baxtlilik, aybsizlik, beg‘amlilik, soddalik, rus tilida esa qo‘shimcha ravishda jozibalilik, sog‘lik, xushchaqchaqlik belgilari bilan xarakterlanadi;

¹²⁹ Kvinn В. Прикладная психология. – СПб: Питер, 2000. – 560 с.

yoshlik davriga harakatchanlik, tetiklik, sogʻlik, kuch, yengiltaklik, tajribasizlik umumiy jihat hisoblansa, oʻzbek tilida yoshiga xos aqliy qobiliyatlar, tashqi va jismoniy koʻrinish, kuch, sogʻlik, goʻzallik, rus tilida begʻamlilik, mustaqillik, balogʻat, fuqarolik huquqiga ega boʻlish xususiyatlari kuzatiladi;

yetuklik davriga jismoniy va aqliy rivojlanish toʻliqligi, ortib borishi xos;

keksalik davriga charchoq, kuchsizlanish kabi umumiy xususiyatlari xos boʻlsa, shu yoshga xos boʻlgan jismoniy xususiyatlar borasidagi tasavvurlar ham turlicha. Oʻzbek tilida tajribalilik, donolik kabi ijobiy xususiyatlar xos boʻlsa, rus tilida *pensioner* soʻzi ushbu yoshdagi shaxslarning umumiy jihatini belgilaydi. Shaxsning yosh darajasida belgining ortib borishi oʻziga xos namoyon boʻladi. Shaxs yoshini ifodalashning milliy-madaniy jihatlari quyidagilardan iborat:

yosh shkalasining boʻlinishi (ajratilayotgan yosh davrlari soni);

yosh konseptining boʻlinishidagi nomlanish darajasi;

yosh davrlariga xos boʻlgan xususiyatlar va baholashlar;

yosh nomlarining ortib borish yoʻnalishi.

Shaxsni ifodalovchi yosh shkalalarining tashkil etuvchi birliklari oʻsib boruvchi xususiyatga ega, chunki bu jihat gʻoyaviy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar asosida shakllanadi hamda oʻzbek tili lugʻaviy tizimiga *bolalik*, *yoshlik*, *yetuklik*/*oʻsmirlik*, *keksalik* davrlari, rus tilida *детство*, *отрочество*, *молодость/юность*, *зрелость*, *старость* asosiy yosh davrlari ajratiladi.

Rus tilida oʻzbek tilida mavjud boʻlmagan yosh atamaları ham uchraydi. Masalan, *отрочество* leksemasi *детство* va *молодость* oʻrtasidagi davr hisoblansa, oʻzbek tilida *yoshlik* davrini anglatadi. Xalqaro tasnifga koʻra, *yoshlik* tushunchasida ham darajalanish namoyon boʻladi: *goʻdaklik* – *erta bolalik* kabi. Har bir yosh tipik vaziyatlar, predmet va hodisalar, ushbu yosh egalarining ijtimoiy holatiga koʻra xarakterlanadi, ularning emotsional baholanishi, tashqi koʻrinish, axloq, xarakter, xulq, aqliy xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Katta yoshli shaxslar oʻzbek tilida *qari/keksa* leksemalari yordamida ifodalanadi hamda *moʻysafid* → *oqsoqol* → *qari/qariya* → *keksa* → *chol* → *boboy*

gradual qatorini hosil qiladi. *Mo'ysafid/oqsoqol* tashqi belgiga ko'ra nomlangan. Bunda ushbu qatorning me'yoriy birligi *chol* leksemasi hisoblansa, me'yordan past darajani ifodalash so'zning salbiy ma'nosini anglatadi, masalan: *Bardammisiz, boboy? Oybek*. Tanlangan asarlar.

Mo'ysafid/oqsoqol tashqi belgiga ko'ra nomlangan. Yoshga doir gradual qatorlarda shakl va mazmun nomuvofiqligi kuzatiladi. O'zbek tilida *qari* leksemasi faqat inson hamda jonzotlarga, *keksa* leksemasi faqat shaxsga nisbatan, predmetlarga nisbatan *eski, qo'hna* va ma'nodosh bo'lgan paradigmalar ishlatiladi.

Rus tilida *keksa* yoshli shaxslarga nisbatan *старик, старикан, старикашка/старуха*, ularga mos ravishda *пожилой, преклонный, престарелый, дряхлый, древний* sifatlari qo'llanadi. *Старикан/старикашка* kichraytirish va salbiy ma'nolarni ifoda etadi. Shaxs yoki predmetning yoshini ifodalashda rus tilida *старый* leksemasi ko'pincha katta yoshdagi shaxslar, ba'zi hollarda esa predmetlarga nisbatan ham qo'llanadi. Ushbu so'zning shaxsga nisbatan sinonimik qatori *старый, престарелый, преклонный* [ТСРЯ 2, – С.499] leksemalari bo'lsa, predmetga nisbatan *старый, ветхий, дряхлый, древний/старомодный, устарелый, допотопный/прежний, старый* [ТСРЯ 2, – С.498–500] sinonimik qatori shakllanadi. Ularga oppozitsion munosabatda bo'lgan o'simlik yoshini anglatuvchi *незрелый, неспелый, зелёный* sinonimik qatori mavjud [ТСРЯ 1, – С.636]. Ko'chma ma'noda yoshga nisbatan *g'o'r bola//зелёный малец* tarzida qo'llanadi. *Молодой* dominanta so'zli *молодой, молоденький, юный, несовершеннолетний, зелёный, ранний*¹³⁰ ma'nodosh so'zlar qatori uslubiy-semantik jihatdan farqlanadi.

Tug'ilish soni bilan bog'liq graduonimiyani quyidagi leksemalar munosabatida kuzatish mumkin: *chaqaloq* → *egiz/egizak* → *uch egizak ...//новорожденный* → *двойня/близнецы* → *тройня*. Gradual qatordan ma'lum

¹³⁰ Словарь русских синонимов и сходных по смыслу выражений. – М.: АСТ, 2008. – 672 с.

bo‘lishicha, o‘zbek tilida *egiz* – “ikkalasi birlikda, birga, qo‘sh”, *egizak* – “birga tug‘ilgan ikki yoki undan ortiq bola”¹³¹ ma’nolariga ega.

Turkiy tillarda, xususan, turk tilida ham egizaklarning bir so‘z bilan nomlanishi kuzatiladi: *ikki egiz* – *ikiz*, *uch egiz* – *uchiz*, *to‘rt egiz* – *to‘rtiz* kabi qo‘llanadi. *Ikiz* so‘zidan *egiz* so‘zi shakllangan bo‘lib, unga *-ak* forsiy qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida *egizak* leksemasi hosil bo‘lgan. O‘zbek, turk va rus tillarida bir so‘zda ifoda etiladi: *egizak*, *ikiz*, *близнецы*. Egizaklar soni ortishi bilan o‘zbek tilida so‘z birikmasi ko‘rinishiga o‘tadi. O‘zbek tilida *egiz* so‘zi “bir vaqtda tug‘ilgan ikkita chaqaloq” ma’nosidan “bir vaqtda tug‘ilgan chaqaloqlar” ma’nosi tomon siljigan. Rus tilida nomlashda songa urg‘u beriladi: *двойняшки*, *тройняшки* kabi. O‘zbek tilida bir vaqtda tug‘ilgan uch, to‘rt farzandga nisbatan ham *egiz* so‘zi ishlatiladi. Shaxsga nisbatan faqat *egizak*, shaxs va predmetlarga esa *egiz* shakllari ishlatiladi. Rus tilida faqatgina *новорожденный*, *двойня/близнецы*, *тройня* ot so‘z turkumi bilan ifodalanadi. Undan ortiq so‘zshakllar mavjud emas, bu ruslarda egizaklar soni aksariyat hollarda uch nafardan iboratligi bilan bog‘liq.

Yosh yoki balog‘at darajasining ortib/kamayib borishiga ko‘ra *yigit* → *erkak* → *chol//парень* → *мужчина* → *старик*; *qiz* → *ayol* → *kampir//девочка* → *женщина* → *старуха* gradual qatorida erkak va ayol jinsiga mansub leksemalarning o‘zaro simmetrikligi diqqatni tortadi.

Yaqin qarindoshchilik belgilariga ko‘ra: *katta bobo* → *bobo* → *ota* → *farzand* → *nabira/nevara* → *evara* → *chevara//прапрадед* → *прадед* → *прадед* → *дед* → *отец* → *дитя* → *внук* → *правнук* → *праправнук*; *katta buvi* → *buvi* → *ona* → *qiz//прапрабабушка* → *прабабушка* → *бабушка* → *мать* → *дочь*.

Garchi o‘zbek tilida yaqinlik yoki qarindoshlik darajasining uzoq/yaqinlik belgisiga ko‘ra *nabira/nevara* → *evara* → *chevara* → *ovora* → *begona* kabi darajalanish qatori qo‘llansa-da, O‘TILda *ovora*, *begona* leksemalariga nisbatan qarindoshlik munosabatlarining izohlari uchramadi. Bu jihatdan rus tilidagi qator paradigmasining boyligini ta’kidlash joiz, chunki o‘zbek tilida *katta bobo* so‘zi rus

¹³¹ ЎТИЛ, II жилд. – Б.19.

tilidagi *praded* va uning davomi sifatida *prapraded* shaklini olgan, *nabira/nevara, evara, chevara* qatorlari rus tilidagi leksemalar qatori bilan simmetrik: *внук, правнук, правправнук*. O‘zbek tilida qarindoshlik nomlari bilan bog‘liq gradual qatorlarda lug‘aviy ustunlik kuzatiladi, rus tilida esa *pra-* prefiksining *ded* hamda *внук* so‘zlariga qo‘shilishi natijasida gradual qatordagi birliklar hosil qilingan. *Katta bobom Do‘stmuhammad II jahon urushida yurt uchun fidokorona jang qilgan. Prapraded нашего Рахметова был приятелем Ивана Ивановича Шувалова. Н.Г.Чернышевский. Что делать?*

Farzandlarning dunyoga kelishiga ko‘ra *to‘ng‘ich* → *o‘rta* → *kenja*//*старший/старшая* → *средний/средняя* → *младший/младшая* gradual qatorida o‘zbek tilidagi lug‘aviy ustunlikka e‘tibor qaratsak: o‘zbek tilida *katta, o‘rtancha, kichik* so‘zlariga mutanosib ravishda *to‘ng‘ich, o‘rta, kenja* leksemalari rus tilida *старший/старшая* → *средний/средняя* → *младший/младшая* kabi mujskoy va jenskiy rodlaridagi sifatlarga muqobil tarzda keltirilgan. Bu qatorda ham o‘zbek tilining lug‘aviy ustunligini ko‘rishimiz mumkin.

Nikohdan keyin er yoki xotinga qarindoshlik munosabati nomlarida graduonimiya quyidagicha: *qayin og‘a/qaynag‘a* → *qayin uka/qayni*//*старший деверь* → *младший деверь*; *старший шурин* → *младший шурин*; *qaynsingil* → *qaynegachi* → *qaynana*//*младшая золовка* → *старшая золовка* → *свекровь* gradual qatorlari farqlanadi. O‘zbek tilida nikohdan keyingi qarindoshlik munosabati nomlarida graduonimiya leksemalar semantikasida aks etadi: *qaynag‘a* → *qayin ini/qayni*. Rus tilida graduonimiya maxsus belgi bildiruvchi so‘zlar orqali ifodalanadi: *старший шурин* → *младший шурин*.

O‘zbek tilidan rus tilidagi leksemalarning farqli jihatlari: kelin uchun kuyovning onasi *свёкор*, onasi *свекровь*, kuyov uchun kelinning otasi *тесть*, onasi *тёща* hisoblanadi, o‘zbek tilida esa *qayin* qarindoshlikni bildiruvchi so‘zga “ota”, “ona” otlari qo‘shilib, ikki tomon uchun ham birdek *qaynata* va *qaynana* shakllari qo‘llanadi.

Ot leksemalardagi darajalanish ba'zi asarlar nomida ham kuzatiladi: Alisher Navoiyning “*G‘aroyib us-sig‘ar*” (Yoshlik g‘aroyibotlari) – 15-16 yoshdan 20 yoshgacha; “*Navodir ush-shabob*” (Yoshlik nodirliklari) – 20 yoshdan 35 yoshgacha; “*Bado‘e ul-vasat*” (O‘rta yosh go‘zalliklari) – 35 yoshdan 45 yoshgacha; “*Favoyid ul-kibar*” (Keksalik foydalari) – 45 yoshdan 60 yoshgacha.

Rus yozuvchisi L.Tolstoy yaratgan “*Детство*” → “*Отрочество*” → “*Юность*” trilogiyasi, A.Blokning “*Идут часы, и дни, и годы...*” she’ri nomlanishida ham darajalanish aks etgan. Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi qismlari nomlanishida ijtimoiy-sotsial muhit, tabiat hodisalari asosidagi graduonimiya ifodalangan: “*Qirq besh kun*”, “*Hijron kunlarida*”, “*Ufq*” bo‘*sag‘asida*”.

Gradual munosabatlar bir qator sohalarda faoliyat yurituvchi shaxs otlari munosabatida kuzatiladi.

Harbiy sohaga oid lug‘aviy graduonimiya. Harbiy unvonlar berish dastlab Ivan Grozniy davrida, ya’ni XVI–XVII asrlarda boshlangan. Ushbu harbiy unvonlarni berishda rus va G‘arbiy Yevropa usulidan foydalanilgan. Hozirgacha ushbu unvonlar nafaqat rus armiyasi, balki o‘zbek Qurolli qo‘shinlarida ham qo‘llanadi. Ma’lumki, Qurolli kuchlardagi harbiy unvonlar qo‘shin unvonlari va kema tarkibidagi unvonlarga bo‘linadi va bir xil tarkibga ega bo‘ladi.

2.2- jadval

Harbiy unvonlar gradual ko‘rsatkichlari

O‘zbek tilidagi harbiy unvonlar	Rus tilidagi harbiy unvonlar
Oddiy askarlar tarkibi: <i>oddiy askar = matros</i>	<i>рядовой солдат = матрос</i>
Serjantlar tarkibi: <i>kichik serjant → serjant → katta serjant = 2 darajadagi starshina → 1 darajadagi starshina → bosh starshina</i>	<i>младший сержант → сержант → старший сержант = старшина 2 ранга → старшина 1 ранга → главный старшина</i>

Ofitserlar tarkibi:	
kichik ofitserlar (<i>leytenant</i> → <i>katta leytenant</i> → <i>kapitan</i> = <i>leytenant</i> → <i>katta leytenant</i> → <i>kapitan-leytenant</i>)	младшие офицеры (<i>лейтенант</i> → <i>старший лейтенант</i> → <i>капитан</i> = <i>лейтенант</i> → <i>старший лейтенант</i> → <i>капитан-лейтенант</i>)
katta ofitserlar (<i>mayyor</i> → <i>podpolkovnik</i> → <i>polkovnik</i> = 3 darajadagi <i>kapitan</i> → 2 darajadagi <i>kapitan</i> → 1 darajadagi <i>kapitan</i>)	старшие офицеры (<i>майор</i> → <i>подполковник</i> → <i>полковник</i> = <i>капитан</i> 3 ранга → <i>капитан</i> 2 ранга → <i>капитан</i> 1 ранга);
generallar (<i>general-mayyor</i> → <i>general-leytenant</i> → <i>general-polkovnik</i> → <i>armiya generali</i> = kema tarkibida bu tarkib unvonlari mavjud emas)	генералы (<i>генерал-майор</i> → <i>генерал-лейтенант</i> → <i>генерал-полковник</i> → <i>генерал армии</i> = kema tarkibida bu tarkib unvonlari mavjud emas)

Harbiy xizmatda “norasmiy” graduonimiya mavjud bo‘lganligini ko‘rsatib o‘tish joiz: qasamyodgacha *салабоны* (o‘smirlar) va *слоны* (fillar) → I davri *духи* (“uyni sog‘indim”) → II davri *молодые* (“yoshlar”) → III davri *фазаны* (“tustovular”) → IV davri *деды* (bir yarim yil xizmat qilganlar).

Ta’lim bosqichlariga oid gradual qatorlar: ta’limning quyi bo‘g‘inlaridan boshlab ta’lim oluvchilarga nisbatan *tarbiyalanuvchi* → *o‘qituvchi* → *abituriyent* → *talaba* → *magistr* → *doktorant//воспитанник* → *ученик* → *абитуриент* → *студент* → *магистр* → *докторант*, oliy ta’limda professor-o‘qituvchilar ixtisosligiga ko‘ra darajalanish: *stajyor* → *o‘qituvchi* → *katta o‘qituvchi* → *filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori* → *dotsent* → *fan doktori* → *professor* → *akademik//стажёр* → *преподаватель* → *старший преподаватель* → *доцент* → *доктор философии по филологическим наукам* → *доктор наук* → *профессор* → *академик* qo‘llanadi.

Professor-o‘qituvchi atamasining o‘zida esa professorlikdan oddiy o‘qituvchilik faoliyatigacha bo‘lgan kamayib borish tartibi kuzatiladi.

Bank sohasida yangi ishga qabul qilingan xodim *mutaxassis*, 6 oy talab darajasida ishlagandan so‘ng *1 toifali mutaxassis*, 1 yildan keyin *yetakchi mutaxassis*, undan ortiq muddat ishlasa *bosh mutaxassis*, keyinchalik *bo‘lim*

boshlig'i, boshliq o'rinbosari, boshliq lavozimlariga ko'tarilib borishi mumkin. Lavozim ortishi bilan birga oylik ish haqi ham ortib boradi. Bu ortib borish graduonimiyani aks ettiradi, chunki lavozim ortishi turli ko'rsatkichlarga asosan amalga oshiriladi va aksincha: lavozim talablarini bajarmagan xodim yuqoridan quyi tomon o'z lavozimidan pastlatilishi ham mumkin.

Ko'rinib turibdiki, turli sohalarda ish tajribasi, ilmiy salohiyati ortishi bilan shaxsning biror amal yoki unvon, vazifasi, darajasi, lavozimi ham ortib boradi. Bu boshqa sohalarda ham mavjud bo'lib, graduonimiya bilan chalkashtirib yuboriladigan iyerarxik munosabatlarga misol bo'la oladi, chunki iyerarxik munosabatlar quyidan yuqoriga, gradual munosabatlar esa me'yorning ikki qarama-qarshi tomoniga ega bo'ladi. Iyerarxik munosabatlarda belgining quyidan yuqoriga ortib borishida pog'onaviy ma'no kasb etuvchi so'zlar bir-biriga oppozitsiyada bo'lmaydi, balki quyi hamda yuqori nuqtaga ega bo'ladi. Bunga zid ravishda gradual munosabatlar (0) me'yor va uning ikki qarama-qarshi ma'nolardan iborat yo'nalishlariga ega bo'lgan qatordan iborat, belgining har biri me'yorga nisbatan olinadi hamda qarama-qarshi yo'nalishdagi leksemalar qator belgisiga ko'ra zidlanish munosabatlariga kirishadi.

Olmoshlarda ham graduonimiya hodisasi kuzatilishini ta'kidlash joiz: *men* → *sen* → *u* → *biz* → *siz* → *ular//я* → *мы* → *он/она* → *мы* → *вы* → *они*.

Shaxs ifodalashda kichraytirish/erkalatish ham juda katta ahamiyat kasb etadi, o'zbek tilida erkalash ohang hamda urg'u bilan bir qatorda o'zimning o'zlik olmoshi, *-m, -im* egalik suffiksi (*o'zimning erkam, o'zimning bo'talog'im*), o'zlik olmoshi ishtirokidagi erkalash ma'nosi *-lik* ot yasovchi suffiksi (*chiroyligim, shiririm*), bolalar nutqiga xos bo'lgan *-cha, -choq, -chak, -chiq, -jon, -xon, -oy, -boy, -loq (-aloq), -gina, (-kina, -qina), -toy* qo'shimchalari yordamida hosil qilinishi fikrning ta'sirchanligini bir qancha yuqori darajaga ko'taradi.

Rus tilida *-ик/-ек-, -к-, -ок-/ёк-, -ец-/иц-, -очк-/ечк-, -оньк-/еньк-, -ышк-/ишк-, -ушк-/юшк-* suffikslari gradual munosabat hosil qiluvchi leksik birliklar tarkibida keladi: *домик, ящичек, шляпка, денёк, бельёцо, вареньице,*

семечко, шапочка, ноченька, долюшко.

Kattalashtirish uchun o‘zbek tilidagi *-vor, -kon, -don, -on*, rus tilidagi *-ина (домина, голосина), -ище (носище, волчище), -ица (ручица, ножица)* qo‘shimchalari yordamida hosil qilinadigan so‘zlar shaxs ifodalashda gradual munosabatlarni namoyon etadi.

2.2-§. O‘zbek va rus tillarida me‘yor-o‘lchov leksemalari graduonimiyasi

O‘zbek va rus tillarida narsa-buyum nomlari darajalanishida otlar soni gradosemalarni ifodalashi bilan xarakterlidir.

Me‘yor-o‘lchovni ifodalovchi lug‘aviy graduonimiya: a) o‘lcham ifodalovchi otlar – mo‘jaz//минуатюра, xarsang//глыба kabi. O‘lcham ifodalovchi otlar borasida Zahiriddin Muhammad Bobur numerativlarning ayrimlariga she‘riy yo‘l bilan bergan izohini misol keltiramiz:

To ‘rt mingdir qadam bila bir mil,

Bir kuruh oni Hind eli der, bil.

Dedilar, bir yarim qari – bir qadam,

Har qari, bilki bordir olti tutam.

Har tutam to ‘rt elik, yana bir elik,

Olti jav arzi bo ‘ldi, bil bu bilik.

Arpa eni → enlik → tutam → qari → qadam → mil gradual qatoridagi *qari* so‘zi qadimgi turkiy va mo‘g‘ul tilida “qo‘l, bilak” ma‘nosini bildirgan: *Yana zihgirni bir qari bir yarim qari rishtag‘a bog‘lab...¹³²; 1 tutam – 4 enlik; 1 enlik – 6 arpa eniga teng. Bu o‘rinda qadam numerativi milni; qari numerativi qadamni; tutam numerativi qarini; enlik numerativi tutamni; arpa eni enlikni izohlagan. Qadimda 1 mil – 4 000 qadam (2 km), hindlar tilida 1 kuruh (4 000 odim) demak; bir qadam – 1,5 qari; 1 qari – 6 tutamga tengligini ifodalaydi. 1 mil Sharqda taxminan 2 kmga teng bo‘lgan; kuruh – 4 000 odim, ya‘ni 2,5 km; yig‘och – 8 km,*

¹³² Xolmanova Z.T. “Boburnoma” – til qomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 336 b.

shar'i – 2,4 km, *qari* – 55sm; *tutam, musht* – 8 sm. Quyidagi gradual qatorda ham o'lchov aks etgan: *bo'g'im* → *barmoq* → *qarich* → *gaz*.

Shu asosda hozirgi kundagi o'zbek va rus tilida qo'llanayotgan turli o'lchovlarning ko'rinishlarini keltirish joiz, chunki massa, kuch o'lchov birliklari dunyo bo'yicha bir xil andoza sifatida qabul qilinganligi sabab, o'zbek va rus tillarida ham bir xil ko'rinishda aks etadi. Bunga hozirgi kunda energiyani tejoychi yoritkichlarni misol keltirish mumkin, ularning kuchlanishida numerativ graduonimiya kuzatiladi.

2.3- jadval

Energiya tejoychi yoritkichlar kuchlanishi gradual ko'rsatkichlari

Qizdirish lampasi (ishlash muddati 1 000 soatgacha)	Energiya tejoychi lampa (muddati 15 000 soatgacha)	1 lampaning energiya tejashi (10 000 soat: kVt – 2,6 r)
25 Vt	4 Vt	551 r
30 Vt	6 Vt	634 r
40 Vt	8/9 Vt	827 r
60 Vt	11 Vt	1282 r
75 Vt	15 Vt	1571 r

Informatsion-kommunikativ texnologiyalar bilan bog'liq ma'lumot: kompyuter texnikasining rivojlanish tarixi, avlodlari displeyining diagonali o'lchamiga ko'ra quyidagi ko'rinishga ega: *smartbuk/netbuk* (7-12,1 dyuym¹³³) → *noutbuk* (9-11 dyuym) → *subnoutbuk/ultrabuk* (11-13,3 dyuym) → *ommaviy noutbuk* (14-16 dyuym) → *desktop* (17 dyuym va undan yuqori) qatorida ham darajalanish mavjud. Bu kabi graduonimiya noutbuk, modemlar, kompyuter xotiralari o'lchamlarida ham o'ziga xos numerativ darajalanishni aks ettiradi: *bit* → *bayt* → *kilobayt* → *megabayt* → *gigabayt* → *terabayt* → *petabayt*. Ko'rinib turibdiki, eng past hajm ortib borish tartibida joylashib, graduonimiyani namoyon etgan. Kino sohasida ham turli o'lchamlar mavjud: *2D film* → *3D film* → *4D film* kabi. Ushbu formatlar bir-biridan sifati, belgisi bilan farqlanadi, jumladan: 2D –

¹³³ 1 dyuym – 2,54 sm.

XIX asrning oxirida paydo bo'lgan ilk kino mahsuloti, 3D – XX asrning o'rtalarida paydo bo'lgan stereoskopik tasvirli filmlar, 4D – qo'shimcha texnik vositalar bilan boyitilgan eng zamonaviy kino mahsuloti.

Biz so'nggi paytlarda ko'p eshitadigan 3G internet → 4G internet → 5G internet → 6G internet atamalarining o'zaro farqlari mavjud, masalan: 3G internet – 1- 3 Mbit/s; 4G internet – 100 Mbit/s - 1 Gbit/s; 5G –10 Gbit/s; 6G – 10 Gbit/s - 11 Gbit/s. Xususan, internet aloqa standartlarining numerativ ortib borishi aloqa tezligining ham ortib borishiga ishora qiladi. Aloqa tezligi ortib/kamayib borishiga ko'ra, har biri o'z nomlanishiga ega.

Fazodagi turli narsalarni *butun* → *yarim* → *uchdan bir* → *to'rtidan bir (chorak)* → *beshdan bir* → *oltidan bir* → *yettidan bir* → *sakkizdan bir (nimchorak)* qismlariga ham bo'lish mumkin. Rus tilida bu quyidagicha ko'rinishga ega: *целое* → *половина* → *одна третья (треть)* → *одна четвёртая (четверть)* → *одна пятая* → *одна шестая* → *одна седьмая* → *одна восьмая*. Bu kabi qismlarga bo'linish o'ziga xos miqdorning kamayib borishini ifodalaydi. O'zbek tilidagi *nimchorak* so'zining ekvivalenti rus tilida *одна восьмая*, rus tilidagi *треть* so'zining ekvivalenti o'zbek tilida *uchdan bir* ko'rinishida bo'lib, ulardagi so'zlar miqdoriga ko'ra mos ekvivalentlar mavjud emas. O'zbek tilidagi *nimchorak* so'zi o'zbek tilining o'ziga xos lingvomadaniy xususiyatlari namunasi bo'lib, unikal gradual qatorga misol bo'la oladi, chunki boshqa tillarda *nimchorak* so'zining bir so'zdan iborat ekvivalenti mavjud emas. Turli oila tillariga mansub bo'lgan o'zbek va rus tillari chog'ishtirilishida o'zbek tilidagi so'zlar ustunligi yorqin namoyon bo'ladi. *Треть* leksemasi rus tilida so'z boyligi ustunligini aks ettiradi.

Numerativ graduonimiyaga xos bo'lgan yana bir ma'lumot: Bertelsning (Faxri Hirotiyga asoslanib) ma'lumot berishicha, Hazrat Navoiyning 1 kunlik daromadi 75 000 dinor bo'lgan. 1 dinor - 4,25 gramm oltinga yoki 212 dollarga teng. 212 dollar esa hozirgi kunda taxminan 2 620 373 so'mga teng. Demak, dinor qiymati boshqa pul birliklari o'lchamida ifodalanishida quyidagi gradual qator

hosil bo'ladi: *dinor* → *oltin* → *dollar* → *so'm//динар* → *золото* → *доллар* → *сум*; yana bir *dinor* → *rial* → *funt sterling* → *yevro* → *dollar* → *frank* valyutalari dunyo bo'yicha eng yuqori o'rinda turadigan dinor qiymatini ifodalaydi.

Jumladan, milliy valyutalarning ham qiymatida ortib borish kuzatiladi: *50 so'm (tanga)* → *100 so'm (tanga)* → *200 so'm (tanga)* → *500 so'm (tanga)* → *1 000 so'm (tanga va qog'oz banknotasi)* → *2 000 so'm (qog'oz banknotasi)* → *5 000 so'm (qog'oz banknotasi)* → *10 000 so'm (qog'oz banknotasi)* → *20 000 (qog'oz banknotasi)* → *50 000 so'm (qog'oz banknotasi)* → *100 000 so'm (qog'oz banknotasi)* → *200 000 so'm (qog'oz banknotasi)*.

Rossiya milliy valyutasida *5 koneek (tiyin)* → *10 koneek (tiyin)* → *50 koneek (tiyin)*, *1 рубль (tanga va qog'oz banknotasi)* → *2 рубль (tanga va qog'oz banknotasi)* → *5 рубль (tanga va qog'oz banknotasi)* → *10 рубль (tanga va qog'oz banknotasi)* → *50 рубль (qog'oz banknotasi)* → *100 рубль (qog'oz banknotasi)* → *200 рубль (qog'oz banknotasi)* → *500 рубль (qog'oz banknotasi)* → *1 000 рубль (qog'oz banknotasi)* → *2000 рубль (qog'oz banknotasi)* → *5 000 рубль (qog'oz banknotasi)* kabi o'ziga xos numerativ darajalanish aks etadi.

Oltinning ham miqdoriy jihatdan o'lcham tizimi mavjud, bu esa buyumlar tarkibidagi oltin ulushining ko'p/kamligi haqida xulosa yasash imkonini beradi: *999 oltin probasi* → *958 proba* → *947 proba* → *916 proba* → *875 proba* → *750 proba (qimmat taqinchoqlar tarkibida uchraydi)* → *583 proba (uning o'rnini hozir 585 proba bosadi)* → *500 proba (zargarlikda uchramaydi)* → *375 minimal proba*.

Sportda taqdirlash. Sport sohasida o'rin belgilashda, taqdirlash jarayonida graduonimiya hodisasi kuzatiladi: *1 o'rin* → *2 o'rin* → *3 o'rin*. Shu sababli ularning taqdirlanishi ham ramziy tus olgan: *oltin medal* → *kumush medal* → *bronza medali//золотая медаль* → *серебрянная медаль* → *бронзовая медаль*. Oltin metallar orasida eng qimmatbaho hisoblanadi, shuning uchun ham sport musobaqalaridagi g'oliblar uchun oltin medal eng oliy sovrin sifatida taqdim etiladi. Tanlovlar, fan olimpiadalarida taqdim etiladigan I, II, III darajali diplomlar ham gradual munosabatga asoslangan.

Dunyo bo'yicha qabul qilingan yagona birliklar graduonimiyasi o'zbek va rus tillarida quyidagi ko'rinishga ega:

uzunlik o'lchovlari: $1 \text{ km} \rightarrow 1\,000 \text{ m} \rightarrow 10\,000 \text{ dm} \rightarrow 100\,000 \text{ sm} \rightarrow 1\,000\,000 \text{ mm}$;

$1 \text{ m} \rightarrow 10 \text{ dm} \rightarrow 100 \text{ sm} \rightarrow 1\,000 \text{ mm}$;

$1 \text{ dm} \rightarrow 10 \text{ sm} \rightarrow 100 \text{ mm}$;

$1 \text{ sm} \rightarrow 10 \text{ mm}$.

Bu qatorni yana ortib/kamayib borish tartibida davom ettirish mumkin: *mikrometr, nanometr, pikometr, femtometr, attometr, zeptometr*;

massa o'lchovlari: $1 \text{ t} \rightarrow 10 \text{ s} \rightarrow 1\,000 \text{ kg} \rightarrow 1\,000\,000 \text{ g} \rightarrow 1\,000\,000\,000 \text{ mg}$; $1 \text{ s} \rightarrow 100 \text{ kg} \rightarrow 100\,000 \text{ g} \rightarrow 100\,000\,000 \text{ mg}$; $1 \text{ kg} \rightarrow 1\,000 \text{ g} \rightarrow 1\,000\,000 \text{ mg}$; $1 \text{ g} \rightarrow 1\,000 \text{ mg}$;

kuch birliklari: *amper* \rightarrow *milliamper* \rightarrow *mikroamper*.

Aniq fanlar haqida so'z borganda *nuqta* \rightarrow *kesma* \rightarrow *chiziq* \rightarrow *nur*//*точка* \rightarrow *отрезок* \rightarrow *линия* \rightarrow *луч*; *uchburchak* \rightarrow *to'rtburchak*//*треугольник* \rightarrow *четырёхугольник* \rightarrow *пятиугольник* \rightarrow *шестиугольник* \rightarrow *семиугольник* \rightarrow *восьмиугольник* \rightarrow *девятиугольник* \rightarrow *десятиугольник* gradual qatorlarini misol keltirish mumkin. Geometrik shakldagi burchaklar soni ortishi bilan shaklning nomlanishi ham ortib, uni chizmada aks ettirish murakkablashib boradi. Burchaklarning soniga ko'ra lug'atlarda izohlanishi o'zbek tilida *uchburchak* va *to'rtburchak*, rus tilida *десятиугольник* atamalarida to'xtagan. Geometriya fanining rivojlanishiga ko'ra burchaklar soni 18 tagacha ortishi o'zbek tilidagi ushbu so'zlar qatoriga yangi atamalarni kiritish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Son predmetning bilvosita, tashqi¹³⁴ belgisini ifodalab, "son-miqdor" turkum semasi asosida birlashsa-da¹³⁵, uning turli ma'noviy guruhlarida predmetlik ma'nosiga ishoraning *leksik-semantik usul asosida* ortib borishi kuzatiladi: *sanoq son* \rightarrow *chama son* \rightarrow *kasr son* \rightarrow *tartib son* \rightarrow *jamlovchi son*//*число* \rightarrow

¹³⁴ Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши. Филол. фан. док. ... дисс. – Самарканд, 2005. – Б.179.

¹³⁵ Ҳожиёв А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007, №2. Б.42-46.

примерное число → *дробь* → *порядковое число* → *собирательное число* kabi sonlar qatori ham graduonimiya hodisasini namoyon etadi.

Pifagorning ko‘paytirish jadvali ham darajalanishga asoslanadi. Chunki ko‘paytirish natijasida natural sonlarning qiymati ortib boradi, natural son qanchalik katta songa ko‘paytirilsa, shunchalik katta ko‘paytmani hosil qiladi.

Daraja jadvali ham xuddi shu kabi misollardan birini tashkil etadi, chunki sonlarni darajaga ko‘tarish ham numerativ graduonimiyaga misol bo‘la oladi. Ko‘paytirish hamda arifmetik sonlar darajalanishi jadvallaridan ko‘rinib turibdiki, sonlarning qiymati ortishi natijasida ko‘paytma hamda darajalanuvchi son qiymati ortadi. Bo‘lish jadvalida esa aksincha - kamayish kuzatiladi.

Vaqt birliklari ortib borishiga ko‘ra daraja hosil qiladi: *soniya* → *daqiqqa* → *soat* → *kun* → *hafta* → *oy* → *yil* → *asr//секунда* → *минута* → *час* → *сутки* → *неделя* → *месяц* → *год* → *век*.

Turli davlatlarda turmush qurish yillariga xos ravishda to‘y kunlarini nishonlash o‘ziga xos nomga ega, asosan, yil nomlanishidan kelib chiqib, shunga xos bo‘lgan ramziy sovg‘alar qiymati ham ortib borishi kuzatiladi.

Yil	Rossiya	AQSh	Fransiya
1	Chit	Qog‘oz	Paxta
5	Daraxt	Daraxt	Daraxt
10	Qalay	Qalay	Qalay
15	Billur	Billur	Billur
20	Chinni	Chinni	Chinni
25	Kumush	Kumush	Kumush
30	Dur	Marvarid	Marvarid
35	Marjon	Marjon	Yoqut
40	Yoqut	Yoqut	Zumrad
45	Sapfir	Sapfir	Oltin yuritilgan kumush

50	Oltin	Oltin	Oltin
55	Zumrad	Zumrad	Orxideya
60	Olmos	Olmos	Olmos
65	Temir	Temir	Atirgul daraxti
70	Baxt	Platina	Platina
75	Toj	Olmos, oltin	Alebastr
80	Eman	Olmos, dur	Eman
85	Oy toshi	Olmos, safir	Morganit
90	Granit	Olmos, zumrad	Granit
95		Olmos, yoqut	Baobab
100	Qizil platina		10-karatli olmos

Yuqoridagi jadvalga asosan ramziy narsalar, qimmatbaho toshlar ham qiymatning o'ziga xos ortib borishi bilan xarakterlanadi.

2.3-§. O'zbek va rus tillarida maishiy tushunchalarni ifodalovchi lug'aviy graduonimiya

Maishiy tushunchalar insonning yashash manzillari, turmush sharoiti bilan bog'liq tushunchalarni qamrab oladi.

O'rin-joy otlarida lug'aviy graduonimiya. Insonning yashash manzili, o'rin-joy hajmi, katta-kichikligi, tashqi ko'rinishiga nisbatan darajalanish kuzatiladi. Graduonimiya hodisasi ot so'z turkumida hajm, ko'lam jihatidan predmet belgisining intensivlik darajasi ortishini ko'rsatadi, jumladan, ulardagi kichrayish/kattalashish shakllarida o'z aksini topadi: *uy* → *uycha*//*домице* → *домина* → *дом* → *домик* → *домишко*.

2.4- jadval

O'rin-joy otlari oppozitsiyasining gradual ko'rsatkichlari

Ko'rsat kichlar	O'zbek tilidagi birliklar	Ko'rsat kichlar	Rus tilidagi birliklar
+6	<i>osmono'par</i> – juda baland, osmonga yetgudek baland ko'tarilgan [O'TIL III, 146-b.]	+6	<i>небоскрёб</i> – очень высокое многоэтажное здание [ТСУ]
+5	<i>koshona</i> – hashamatli, ko'rkam bino [O'TIL II, 414-b.]	+5	–
+4	<i>qasr</i> – saroy, koshona, ark [O'TIL V, 258-b.]	+4	<i>хоромы</i> – большой дом, обычно со значительным числом внутренних помещений [ТСУ]
+3	<i>saroy</i> – хон, amir, podshohlarning doimiy qarorgohi bo'lib xizmat qilgan hashamatli katta bino, koshona [O'TIL III, 452-b.]	+3	<i>дворец</i> – большое здание, обычно выделяющееся архитектурой и использованное для общественных целей) [ТСУ]
+2	<i>ko'shk</i> – qadimda baland, bahavo qilib solingan yengil imorat [O'TIL II, 479-b.]	+2	-
+1	<i>hovli</i> – biror oila, xonadon yashaydigan uy (unga qarashli sahn va yer-maydoni bilan birga) [O'TIL V, 540-b.]	+1	<i>коттедж</i> – небольшой загородный дом, рассчитанный на одну семью [ТСУ]
0	<i>uy</i> – yashash uchun mo'ljallangan bino [O'TIL IV, 271-b.]	0	<i>дом</i> – жилое здание, строение [ТСУ]
-1	<i>uycha</i> – kichik uy	-1	<i>домик</i> – уменьшительное к <i>дом</i> [ТСУ]
-2	<i>hujra</i> – kishi yashaydigan kichkina xona, uycha [O'TIL V, 557-b.]	-2	<i>домишко</i> – небольшой, плохой дом [ТСУ]
-3	<i>kulba</i> – kichik, ko'rimsiz, bechorahol uy [O'TIL II, 424-b.]	-3	<i>изба</i> – деревянный крестьянский дом в деревне [ТСУ]
-4	<i>yerto'la</i> – bino ostidagi xona [O'TIL II, 16-b.]	-4	<i>землянка</i> – жильё, вырытое в земле [ТСУ]

Jadvaldagi soʻzlar qatorida *uy* semasiga nisbatan fazo va makondagi soʻzlar paradigmasi aks ettirilgan. Ularni bir-biri bilan solishtirishda oʻlchov va kattaligiga nisbatan u yoki bu leksema qoʻllanadi. Maʼlum bir xususiyatiga nisbatan uy turi farqlanishida ularni vizual yoxud xayolan idrok etish orqali aniqlik kiritiladi. Garchi bu soʻzlar maʼno jihatdan kuchayib/kamayib borishi bilan farqlansa-da, ularning belgisi, darajasi turlicha talqin etiladi. Maʼlum bir kontekst tarkibida ushbu maʼno boʻyoqlari oʻziga xos ravishda qoʻllanishi mumkin. Jumladan, belgining miqdoriy oʻzgarishi ushbu soʻzlarning shakllarida ifodalanishi bilan bir qatorda tildagi barcha boʻlaklarda belgi, xususiyat, miqdor koʻrsatkichlarini aniqlash mumkinligi fanda oʻz isbotini topgan: *osmonoʻpar* → *koshona* → *qasr* → *saroy* → *koʻshk* → *hovli* → *uy* → *uycha* → *hujra* → *kulba* → *yertoʻla*//небоскрёб → *хоромы* → *дворец* → *домина/домище* → *дом* → *домик* → *домишко* → *изба* → *землянка* soʻzlar paradigmasi *uy* soʻziga nisbatan graduonimiyani anglatadi: *domik* (“kichikroq uy”): *Выстроить себе домик*; *домишко* (ogʻzaki nutqda salbiy maʼno kasb etadi) – “kichikroq, yomonroq uy”. *Наводнение туда, играя, занеслодомишко ветхий*. А.С.Пушкин; *домище* (soʻzlashuv uslubiga xos) – *дом* soʻzi semantikasi nisbatan katta boʻlgan turar joyini anglatadi.

Uy, kulba, koshona, tepalik, tekislik va togʻ, yorugʻlik va qorongʻulik, yoshlik va qarilik, issiq va sovuq kabi soʻzlarni farqlay olamiz: nafaqat soʻzlar orasidagi oʻtuvchi xususiyatlar, balki ularning oppozitsiyada ekanligi ham muhim.

Lisoniy darajalanishda miqdoriy koʻrsatkichning kam yoki koʻpligi aks etadi, masalan: *darcha* → *eshik* → *darvoza* gradual qatori. *Darcha* – ilgari vaqtlarda deraza vazifasini oʻtagan bir yoki ikki tabaqali eshikcha¹³⁶; *eshik* – uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishiga oʻrnatiladigan, ochib-yopib turiladigan qurilish buyumi¹³⁷; *darvoza* – ikki tabaqali katta eshik, qopqa¹³⁸. Rus tilida ham xuddi shu maʼnodagi gradual qator mavjud: *отверстие* (вход куда-н., проход, дыра, скважина, щель) → *калитка* (небольшая дверь в заборе) → *дверь* (створ

¹³⁶ ЎТИЛ. I жилд. – Б.569.

¹³⁷ Koʻrsatilgan manba. V jild. – Б.64.

¹³⁸ Koʻrsatilgan manba. I jild. – Б.560.

для закрытия входа в какое-н. помещение) → *ворота* (проезд, запираемый створами (в строениях, стенах, заборах)) [ТСУ].

2.5- jadval

Deraza//окно gradual ko'rsatkichlari

Ko'rsat kichlar	O'zbek tilidagi birliklar	Ko'rsat kichlar	Rus tilidagi birliklar
+4		+4	<i>окнище</i> – увеличительное к <i>окно</i> [ТСУ]
+3	<i>deraza</i> – binoning tashqaridan yorug'lik tushishi, havo kirishi, tashqarini kuzatishga imkon beruvchi ochilib-yopiladigan oynali romi [O'TIL I, 599-b.]	+3	<i>окно</i> – отверстие в стене здания для света и воздуха [ТСУ]
+2	<i>derazacha</i> – kichik deraza	+2	<i>окошко</i> – уменьшительное к <i>окно</i> [ТСУ]
+1	<i>tuynuk</i> – eski tipdagi mahalliy uy, binolarning devori yoki tepasidan yorug'lik yoki havo kirib turishi, yoki boshqa maqsadlar uchun qoldirilgan to'rtburchak yoki doiraviy teshik [O'TIL IV, 184-b.]	+1	<i>окошечко</i> – уменьшительно-ласкательное к <i>окно</i> [ТСУ]
0	<i>teshik</i> – teshilgan joy, kovak, o'yiq [O'TIL IV, 81-b.]	0	<i>проём</i> – отверстие, сделанное в стене для двери, окна и т.п. [ТСУ]

Ilmiy manbalarda klimaks va antiklimaks gradatsiya tasnif etilgan bo'lib, ifodalanishiga ko'ra mantiqiy, emotsional, miqdoriy; ifodalanish unsuriga nisbatan leksik va sintaktik gradatsiya farqlanadi: *Men nadomatlarni unutanman. Men meros dovlamayman. Men molparast ham emasman. Lekin qani mening yetti ma'dandan eritib quyilgan darvozam?*

Jahonning bir mo'jizasi?

Oltin, temir, qurch, qalay, po'lat, mis, kumush darvozam?

Bibixonim darvozasi?

Yo‘qolgan darvoza...

O‘g‘irlangan darvoza...

Tanga qilib maydalangan darvoza... I.G‘afurov.

Yuqoridagi misolda bosqichma-bosqich kuchaytirilgan tasvirlardan *darvoza* bilan bog‘liq sifatlar tasvirida *mo‘jizaviy darvoza* → *oltin darvoza* → *temir darvoza* → *qurch darvoza* qatorida va *darvoza yo‘qolgan* → *o‘g‘irlangan* → *maydalangan* qatorida graduonimiya kuzatiladi.

Graduallik hajm, shakldan kelib chiqqan holda ushbu predmet belgi-xususiyatining intensivligini anglatadi. Shu bilan birga rus tilida darajalovchi so‘z yasovchi usullardan biri affiksatsiya usuli ekanligini ta’kidlash joiz. Bularga –*ишк*–, –*енк*–, –*ик*–, –*иц*– affikslari kiradi. Kichraytiruvchi-erkalovchi ma’no –*ишк*–, –*енк*(–*о*), kattalashtiruvchi ma’no –*иц*– affiksi yordamida hosil qilinadi, masalan: *дом* → *домик/домишко* → *домище/домина*.

Baholash – lug‘aviy semantikaning muhim jihati, uning vositalari nafaqat tilning mantiqiy, balki boshqa belgilariga ham ta’sir o‘tkazadi. Otlarda kuchsiz intensivlik –*ишк*(*a*), –*ц*(*a*), –*иш*(*a*) suffikslari bilan ifodalansa, –*ок*/–*ик*, –*чик*, –*ец*, –*к*(*a*)/–*очк*(*a*), –*иц*(*a*), –*ц*(*о*)/–*ец*(*о*), –*к*(*о*), –*ушк*(*a*), –*онк* qo‘shimchalari kuchli intensivlikni hosil qiluvchi faol shakllar hisoblanadi. Ularga sinonimik ravishda *недо*–, *но*–+–*к*– prefikslari ishlatiladi. Intensivlikning kuchli darajasini –*иш*–, –*иш*/*a* va *за*–, *пере*–, *пре*– prefikslari hosil qiladi. Eng yuqori darajadagi kuchaytirish *раз*– prefiksi orqali hosil qilinadi.

Joy nomlarida ham graduonimiya kuzatiladi: *Quy* *Chirchiq* → *O‘rta Chirchiq* → *Yuqori Chirchiq*; *Дальний Восток* → *Ближний Восток*, *Средняя Азия* → *Центральная Азия* kabi.

Uy-ro‘zg‘or buyumlarida lug‘aviy graduonimiya. Uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlanishida ham darajalanish mavjud:

qozoncha/dekcha (kichkina qozon) [O‘TIL I, 593-b.] → *qozon* (ro‘zg‘or buyumi) [O‘TIL V, 323-b.] → *doshqozon* (ulkan qozon) [O‘TIL I, 650-

b.])//котелок (маленький котел) [ТСУ] → *казан* (большой котел) [ТСУ] → *котёл* (большой чан (посудина большого размера)) [ТСУ];

ko'zacha (kichik ko'za) [O'TIL IV, 81-b.] → *ko'za* (qorni keng, bo'g'zi ingichka, bir tomonida dastasi bor idish) [O'TIL II, 447-b.] → *xum* (katta ko'za) [O'TIL IV, 423-b.]//*вазочка* (маленький сосуд разнообразной формы) [ТСУ] → *ваза* (сосуд разнообразной формы, употребляется в хозяйстве) [ТСУ] → *сосуд* (вместилище для жидкости) → *бак* (большой закрытый сосуд) [ТСУ];

likopcha → *likop/tarelka/taqsimcha* → *lagan* → *patnis/barkash//тарелочка* → *тарелка* → *блюдо* → *поднос* (доска или металлический лист для переноски посуды, подачи еды и т.п.) [ТСУ];

qoshiqcha → *qoshiq* → *cho'mich* → *yog'log'i//ложечка* → *ложка* → *половник* → *ковш*;

ignacha → *igna* → *juvoldiz* → *bigiz//уголка* → *игла* → *шило kabi*.

O'zbek tilidagi *juvoldiz* (yo'g'on, egik igna) [O'TIL, II, – B.110] va *bigiz* (poyabzal uchun nina uchli, yog'och sopli metall asbob) [O'TIL, I, – B.252] so'zlarining ekvivalentlari rus tilida birgina *шило* so'zining ma'nosida aks etadi. Bu munosabat o'zbek tili lug'at boyligining ustunligini ko'rsatadi.

Pakki/pichoqcha → *pichoq* → *chopqi/oshpichoq* → *bolta//ножик* → *нож* → *монор/месак*. O'zbek tilidagi *chopqi* so'zining ekvivalenti rus tilida uchramadi.

Piyolacha → *piyola* → *nimkosa/kosacha* → *kosa* → *shokosa//чашечка* → *чашка* → *чаша* → *миска*. O'zbek tilidagi *nimkosa*, *shokosa* so'zlarining ekvivalenti rus tilida mavjud emas, shu sababli o'zbek tilining lingvomadaniy xususiyatlari ham o'ziga xos lug'aviy boylikni namoyon etadi. Zero, rus tilida *shokosa* so'ziga mos ravishda *большая миска* so'z birikmasi qo'llanadi.

Sholcha/palos → *gilamcha* → *gilam//полик/коврик* → *ковёр* → *коврище*. Ushbu qatorda gilamning kattaligiga ishora qilgan *коврище* so'zi tildagi so'z yasalishi borasidagi o'ziga xoslikni va ustunlikni namoyon etadi.

Karmoncha → *karmon* → *sumkacha* → *sumka* → *xalta*//*кошелёк* → *сумочка* → *сумка* → *сума*; *qorcha/qorchiq/xalta/to'ruva* → *qor* → *qanor*//*сумка* → *сума* → *мешок*. *Qanor* so'ziga mos ekvivalent birlik rus tilida uchramadi.

Yana bir jihat: kundalik hayotimizda tikishda ishlatiladigan iplar esa tamomila boshqacha belgilangan:

№10, №20 – qalin matolar uchun;

№30, №40 – paxta tolasidan tayyorlangan matolar uchun;

№50, №60 – sintetik matolar uchun;

№70, №80 – harir matolar uchun.

Bu holda matoning yuqaligiga nisbatan ko'rsatkichi yuqori bo'lgan iplardan foydalaniladi. Mato qalinligiga ko'ra past nomerli ingichka iplar kerak bo'ladi.

Shu o'rinda matolarda ham to'xtalib o'tishimiz joiz: *yuqa mato (shifon, krepdeshin, shoyi)* → *qalin mato (adras, trikotaj, paxta tolasi)* → *juda qalin mato (drap, duxoba, gabardin)*//*тонкая ткань* → *плотная ткань* → *более плотная ткань*. Yuqoridagi misollardan yaqqol ko'zga tashlanadigan jihat – ushbu gradual qatoridagi *juda qalin* va *более плотная* darajalari mato qalinlik darajasining eng yuqori cho'qqisini, qolganlaridan keskin farq qilishini, qator boshidagi sifatlar bilan antonimik, yondosh sifatlar bilan esa sinonimik munosabatlarga kirishishi. *Juda* ravishi o'zbek tilida sifatlarning orttirma darajasini yasashda, *более* ravishi rus tilida sifatlarning qiyosiy darajasini hosil qilishda qo'llanadi, demak, belgining eng kuchli darajasi o'zbek va rus tillarida turlicha hosil qilinadi.

Kiyim-kechak va unga aloqador tushunchalar graduonimiyasi. Doka → *harir* → *chit* → *lavsan* → *satın* → *velyur* → *duxoba*//*марля* → *батист* → *ситец* → *лавсан* → *сатин* → *велюр* → *бархат*. Ikki tilda keltirilgan mato turlariga to'xtaladigan bo'lsak, *батист*, *сатин*, *велюр* so'zlari fransuz tilidan o'zlashgan. Shu sababli o'zbek va rus tillarida bu so'zlarning ko'rinishi bir xil.

Kalta pauroq → *pauroq* → *uzun pauroq*//*пятки* → *носки* → *гольфы* → *чулки* gradual qatorida o'zbek tilidagi pauroq so'ziga *kalta*, *uzun* asliy sifatlari qo'shilishi bilan darajalanishning ortiq/kam belgi-xususiyatlari namoyon bo'lsa,

kalta paypoq soʻz birikmasining rus tilidagi ekvivalenti *пятки*, *uzun paypoq* soʻz birikmasining rus tilidagi ekvivalentlari *гольфы* (ingl.), *чулки* (turk.) hisoblanadi va oʻzlashgan soʻzlar hisobiga rus tilining lugʻaviy boyligini aks ettiradi.

Bosh kiyimlar borasida: *doʻppi* → *telpak//кепка* → *шапка* → *ушанка*. Oʻzbek tilida roʻmol koʻrinishlari ham farqlanadi: *Eng katta fojia* – ayol zotining boshida ishonchli panohi, mustahkam boshpanasi yoʻqligi, boshi ochiqligi deb qaraladi. Shuning uchun ham yosh qizchalar boshlariga – *durracha*, oilali ayollar – *qiyiqcha*, *kayvoni onaxonlar* – *qoshbogʻ bogʻlab yuradilar*. Bu bosh kiyimlarning hammasi bir soʻz bilan “roʻmolcha” deb ataladi. Bu yerga kelayotib bilib oldik: masalan, *slavyanlar uni “kosinka” deyishar ekan!..*¹³⁹ Mazkur parchada *durracha* → *qiyiqcha* → *qoshbogʻ* gradual qatori hosil qilinganligiga guvoh boʻlamiz, zero bosh kiyim nomi va oʻlchamlari ayollarning yoshi ortib borishiga mos ravishda oʻzgaradi. Ayollar roʻmoli graduonimiyasiga *durracha* → *qiyiqcha* → *qoshbogʻ//косынка* → *шарф* (olm.) → *платок* qatorini keltirish joiz. Rus asarlaridan ham misol keltiramiz: *И башмаки, и чулки, и косынка – все, чтобы было, как у вас. И.С.Тургенев. НОВЬ*¹⁴⁰.

Nimcha → *kurtka* (lot.) → *plash(ch)* → *palto* (frans.) → *poʻstin//безрукавка* → *куртка* → *плащ/мантия* (lot.) → *полупальто* → *пальто* → *шуба* (arab.).

Ayollar taqinchoqlarida ham graduonimiya hodisasi kuzatiladi: *zirak* → *baldoq//серёжки* → *серьги* (turk.) → *клипсы* (ingl.) → *каффы* (ingl.); *тинчоqcha* → *тинчоq//бисеринка* → *бисер* (arab.) → *бисерина*; *zanjircha* → *zanjir//цепочка* → *цепь* → *мини* (frans.-ital.) *трос* (niderl.) → *трос* → *колье*.

Rus tilida mavjud *мини трос*, *трос*, *колье* soʻzlarining ekvivalentlari oʻzbek tilida mavjud emas. *Мини трос* bilan *трос* soʻzlari orasida farq mavjud, bu farq kelib chiqishi fransuz va italyan tillariga oid boʻlgan *мини* qoʻshimchasini qoʻshish orqali hosil boʻlgan. Gradual qatorning ikki tomonidagi soʻzlar esa oʻzaro oppozitsiya munosabatini aks ettirgan.

¹³⁹ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/otauli/otauli-ozbek-otellosi-hikoya/>

¹⁴⁰ https://processing.ruscorpora.ru/search.xml?lang=ru&mode=main&nodia=1&p=16&req=%D0%BA%D0%BE%D1%81%D1%8B%D0%BD%D0%BA%D0%B0&sort=i_grtagging&text=lexform

Oziq-ovqat nomlari graduonimiyasi. Kulcha → non; lochira → patir//булочка → хлеб → каравай. Kulcha, lochira soʻzlari milliy non mahsuloti hisoblanib, uning ekvivalenti rus tilida mavjud boʻlmasa, каравай soʻzining ekvivalenti oʻzbek tilida uchramaydi.

Shakar upasi → shakar → novvot//сахарная пудра → сахар (hind.). Bu gradual qatorda ham milliy qandolatchilik mahsulotimiz boʻlgan novvot soʻzining ekvivalenti rus tilida uchramadi.

Shoʻrva → atala → boʻtqa//cyn (lot.) → cyn-nyure (фр.) → каша kabi taomlar quyuqlashib borishiga koʻra ham gradual hodisa kuzatiladi.

2.4-§. Oʻzbek va rus tillarida mavhum tushunchalarni ifodalovchi leksemalar graduonimiyasi

Graduonimiya qatorlari mavhum tushunchalarni ifodalovchi lugʻaviy birliklar tizimida ham kuzatiladi: *koʻngilsizlik → falokat → fojia//неприятность → катастрофа → крах*. Ushbu qatordagi koʻngilsizliklar nomi ular belgisining miqdoriy ortib borishiga koʻra farqlanadi. Gradual qator qutblari oʻzaro antonim boʻlsa, ular orasidagi soʻzlar jamlanmasi sinonimik maʼno kasb etadi va oʻziga yaqin joylashgan soʻzlar maʼnosining bir-biriga yaqinligi kuzatiladi: *kelishmovchilik → nizo → urush/jang → qirgʻin//разногласие → скандал → война → битва* kabi.

Qobiliyatdan yuqorisi isteʼdod, isteʼdoddan yuqorisi daholik. Gyote. Quyidagi jumlagi asosan *isteʼdod → daholik//способность → гениальность* gradual qatorini hosil qilish mumkin.

“Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati”da *ozor → azob → jabr → jafu; zarda → achchiq → jahl → qahr → gʻazab; ayriliq → hijron → hajr; taajjub → hayronlik → hayrat* kabi gradual qatorlar denotativ maʼnodagi darajalanishga misol boʻladi.

Azob, aziyat, jafu, ozor, zahmat, alam, iztirob, uqubat, sitam sinonimlar qatorida ruhiy yoki jismoniy qiynoq semasi kuzatiladi, *jabr* soʻzida belgi *azob* leksemasidan kuchli boʻlib, inson tomonidan beriladigan jismoniy-ruhiy taʼsir maʼnosida qoʻllanadi. *Jafu* mustaqil soʻz holida koʻpincha *jabr* soʻzi bilan keladi:

Charxning men koʻrmagan jabru jafosi qoldimu?!

Xasta koʻnglim chekmagan dardu balosi qoldimu?!¹⁴¹.

Iztirob ruhiy azob maʼnosini ifodalaydi, unda belgi darajasi *azob* soʻziga nisbatan kuchliroq. *Azob* leksemasining semantik doirasi keng, ruhiy, jismoniy va birov tomonidan boʻladigan qiynoq maʼnosida qoʻllanadi. *Aziyat* yozma nutqda uchraydi. *Ozor* soʻzi mustaqil ravishda kam qoʻllanadi, unda belgi darajasi *azob*, *jabr* soʻzlariga nisbatan kuchsizroq. *Zahmat* mehnat bilan bogʻliq azobni bildiradi. *Uqubat*, *sitam* soʻzlari yakka holda juda kam ishlatiladi, *uqubat* soʻzi koʻpincha *azob*, *sitam* soʻzi esa *jabr* soʻzi bilan juft soʻz holida qoʻllanadi.

Ozor → *azob* → *jabr* → *jafu* gradual qatorida *ozor* soʻzi kimdandir yoki nimadandir yetkazilgan ruhiy qiynoq maʼnosini bildiradi. *Azob*, *jabr* va *jafu* leksemalarida esa yetkaziladigan qiynoqning darajasi ortadi. Ot soʻz turkumida bosh maʼnosi konkret, koʻchma maʼnosi abstrakt boʻlgan soʻzlarda ham gradual munosabatni kuzatish mumkin: *iliqlik* → *issiqlik* → *qaynoqlik*. Daraja qatoridagi soʻzlarning bosh maʼnosi konkret boʻlsa, koʻchma maʼnolari abstraktdir. “Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati”da *jahl*, *achchiq*, *gʻazab*, *qahr*, *zarda* sinonimik qatorida umumiy semasi – nojoʻya xatti-harakatlarga yoki voqea-hodisaga qarshi kuchli darajada qoʻzgʻalgan his-tuygʻu va shunday his-tuygʻuning ifodasi¹⁴².

2.6- jadval. *Jahl*//*злоба* gradual koʻrsatkichlari

Koʻrsat kichlar	Oʻzbekcha gradual komponentlar, ularning izohi	Koʻrsat kichlar	Ruscha gradual komponentlar, ularning izohi
		+6	<i>свирепость</i> – зверски жестокий, неукротимый, лютый [ТСУ]
+5	<i>qahr</i> – qattiq achchiqlanish,	+5	<i>ярость</i> – сильный гнев, озлобление

¹⁴¹ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 2019. – 448 b.

¹⁴² Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б.97.

	jahl tuyg'usi [O'TIL III, 40-b.]		[ТСУ]
+4	<i>g'azab</i> – kuchli darajada achchiqlanish [O'TIL III, 40-b.]	+4	<i>гнев</i> – чувство сильного негодования, возмущения, раздражения [ТСУ]
+3	<i>achchiq</i> – qahr, jahl, zarda [O'TIL III, 40-b.]	+3	<i>раздражение</i> – привести в состояние гнева, рассердить [ТСУ]
+2	<i>zarda</i> – jahl, g'azab, do'q, baqirish [O'TIL III, 40-b.]	+2	<i>негодование</i> – возмущение, крайнее недовольство)/ <i>возмущение</i> – сильный гнев, негодование [ТСУ]
+1	<i>jahl</i> – nojo'ya xatti-harakat, gap/voqea-hodisadan ranjish, achchiqlanish, g'azablanish [O'TIL III, 40-b.]	+1	<i>злоба</i> – чувство гневного раздражения, недоброжелательства против кого-нибудь) [ТСУ]

Ko'rib turganimizdek, *jahl*, *achchiq*, *g'azab*, *qahr*, *zarda* leksemalari voqelikni bir xil nomlamaydi, *g'azab*, *qahr* so'zlarining belgi darajasi kuchli. *Zarda* leksemasi esa nojo'ya, yoqmaydigan ish, xatti-harakatga javob tarzida ifoda etilgan munosabatni bildiradi. *Qahr* va *zarda* leksemalarini qiyoslar ekanmiz, *qahr* nojo'ya xatti-harakatga yoki voqea-hodisaga qarshi kuchli darajada qo'zg'algan hissiyot va ruhiy holatni, barqaror xususiyatni ifodalaydi, masalan: *Asadbek qahri qattiq bola*. Mazkur ruhiy holatni inson muayyan vaqt davomida boshidan kechirishi mumkin: *Bu voqeani eshitib, uning qahri keldi*.

Zarda, *achchiq* leksemalari esa nojo'ya xatti-harakat yoki voqea-hodisaga qarshi qo'zg'algan vaqtincha davom etadigan muayyan vaziyatdan tashqarida mavjud bo'lmagan emotsional holatni ifodalaydi.

2.5-§. O'zbek va rus tillarida soha tushunchalarini ifodalovchi lug'aviy graduonimiya

Ot leksemalar graduonimiyasi bir qator soha nomlarida kuzatiladi. Ulardan eng faollari borasida to'xtalamiz.

Tibbiyot sohasidagi lug'aviy graduonimiya. Tibbiyotda jarrohlik amaliyotlari keng o'rin tutishi sabab, jarrohlikda qo'llanadigan xirurgik iplarning belgilanish tizimida ham darajalanish aks etadi. Ushbu o'lchamlar asosida jarrohlik iplarining qalin yoki ingichkaligini aniqlash mumkin. Bunda jahon bo'yicha qabul qilingan metrik o'lcham ortib borishi bilan iplar qalinlik darajasi ortib borishi kuzatiladi.

2.7- jadval

Xirurgik iplarning belgilanishi gradual ko'rsatkichlari

Metrik o'lcham	0,1	0,2	0,3	0,4	0,5	0,7	1	1,5	2	3	4	5
Haqiqiy o'lcham diametri (mm)	0,020	0,030	0,040	0,050	0,070	0,10	0,15	0,20	0,30	0,40	0,50	0,60
	–	–	–	–	–	–	–	–	–	–	–	–
	0,029	0,039	0,049	0,069	0,099	0,14	0,19	0,29	0,39	0,49	0,59	0,69

Tana harorati birliklari ortib borishiga ko'ra gradual qator: *normal* (35°C - 37°C) → *subfebril* (37°C - 38°C) → *febril* (38°C - 39°C) → *piretik* (39°C - 41°C).

Inson uchun eng xavfli kasalliklardan biri bo'lgan saraton kasalligining tibbiyotda qabul qilingan quyidagi (0) bosqichdan boshlanishi aniqlangan:

$T_0 \rightarrow T_1 \rightarrow T_2 \rightarrow T_3 \rightarrow T_4$, bunda:

T_0 – o'simta belgilari mavjud emas;

T_1 – 20 mm dan kichikroq o'simta mavjud;

T_2 – 50 mm gacha o'simta mavjud;

T_3 – 50 mm dan katta o'simta mavjud;

T_4 – o'simta boshqa a'zolarga o'tadi.

Ushbu numerativ belgilar ortib borishi bilan kasallikning jiddiy tus olib, zo'rayib borishi kuzatiladi. Arterial qon bosimi darajalanishi ham quyidagicha gradual qator hosil qiladi: *optimal* → *me'yoriy* → *yuqori*//*оптимальное* → *нормальное* → *повышенное*.

Kuyish bosqichlari ham graduonimiyani o'zida mujassam etadi, jumladan:

1 darajali kuyish - teri ustki qavati qizarishi;

2 darajali kuyish - teri yuzasida pufakchalar hosil bo'lishi;

3 darajali kuyish - terining quyida joylashgan to'qimalari kuyishi;

4 darajali kuyish - suyaklarning ham kuyishi.

Quyidagi darajalanish hosil qilinadi: *teri qizarishi → pufakchalar hosil bo'lishi → chuqur kuyish → suyaklar kuyishi*. Guvohi bo'lganimizdek, teri kuyish darajasi qanchalik ortib borishi bilan kuyish zararlari ham jiddiylashib, ularning tiklanishi ham shuncha kechikib boradi.

Inson o'z sog'ligiga e'tibor bermasligi kasallik zo'rayishining o'ziga xos hodisasi tarzda aks ettiriladi: *shamollash → tumov → yo'tal → isitma → bo'g'ilish → nafas qisishi → zotiljam → sil kasalligi → o'pka saratoni//воспаление → насморк → кашель → температура → удушье → астма → пневмония → туберкулёз → рак лёгких*.

Ta'lim tizimi bilan bog'liq lug'aviy graduonimiya. Respublikamizda ta'lim tizimi bosqichlari ham o'ziga xos darajalanishni aks ettiradi: *maktabgacha ta'lim → umumiy o'rta ta'lim → o'rta-maxsus kasb hunar ta'limi → oliy ta'lim → oliy ta'limdan keyingi ta'lim → kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish*.

Rus tilidagi gradual qator quyidagi ko'rinishiga ega: *дошкольное образование → начальное общее образование → основное общее образование → среднее общее образование → среднее (полное) общее образование → профессиональное образование → высшее образование (бакалавриат, специалитет) → магистратура → подготовка кадров высшей квалификации (ординатура, докторантура) → повышение квалификации*.

Dastlabki bosqich hisoblangan maktabgacha ta'lim muassasalarida, jumladan, rus bog'chalarida ham shu kabi turli yosh guruhlarida bosqichma-bosqichlilik mavjud, chunki bola o'z tengdoshlari davrasidagi yosh guruhida o'ziga xos va mos vazifalar, topshiriqlar bilan band qilinadi hamda yoshi ortib borgan sayin keyingi bosqichdagi guruhga o'tish imkoni yaratiladi: *yasli (2 oylikdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhi) → kichik guruh (3 yoshdan 4 yoshgacha) → o'rta guruh (4 yoshdan 5 yoshgacha) → katta guruh (5 yoshdan 6 yoshgacha) → tayyorlov guruhi (6 yoshdan 7 yoshgacha)//ясли (от двух месяцев*

до 3 лет) → младшая группа (от 3 до 4 лет) → средняя группа (от 4 до 5 лет) → старшая группа (от 5 до 6 лет) → подготовительная группа (от 6 до 7 лет) kabi. Yuqorida keltirilgan gradual qatordan ma'lum bo'ldiki, qatorning ikki qutblaridagi so'zlar o'zaro zid, qatorda yonma-yon turgan so'zlar esa bir-biriga nisbatan sinonim hisoblanadi.

Navbatdagi ta'lim bosqichi umumiy o'rta ta'lim maktablari hisoblanib, bolalar an'anaviy tarzda 1-sinfidan qabul qilinadi va ushbu muassasani tamomlaguncha barcha sinflarda o'qishni bosqichma-bosqich, ya'ni bir sinfni tamomlab, dasturlarni o'zlashtirishiga ko'ra navbatdagi sinfga ko'chiriladi: *1 sinf → 2 sinf → 3 sinf → 4 sinf → 5 sinf → 6 sinf → 7 sinf → 8 sinf → 9 sinf → 10 sinf → 11 sinf//1 класс → 2 класс → 3 класс → 4 класс → 5 класс → 6 класс → 7 класс → 8 класс → 9 класс → 10 класс → 11 класс*. Bu kabi sinflarga bo'lishning ham o'ziga xos darajalari mavjud: *boshlang'ich umumiy ta'lim → o'rta ta'lim → umumiy o'rta ta'lim//начальное общее образование → основное общее образование → среднее общее образование*.

Maktabda o'zbek va rus tillarida unli fonemalarning talaffuz etilishi ham o'ziga xos gradual hodisa bo'lib, fonemalar tilning *yuqori, o'rta, quyi* ko'tarilish darajasiga ko'ra farqlanadi.

<i>u</i>	→	<i>e – o'</i>	→	<i>a – o – e</i>
<i>yuqori daraja</i>		<i>o'rta daraja</i>		<i>quyi daraja</i>

Tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra: *unli → sonor → undosh//гласный → сонорный → согласный*; paydo bo'lish o'rniga ko'ra: *old qator → o'rta qator → orqa qator//передний ряд → средний ряд → задний ряд*; og'iz ochilishi holatiga ko'ra: *keng → o'rta → tor//широкий → средний → узкий*.

O'quvchilar boshlang'ich sinflardan boshlab bosqichma-bosqich tovushlardan bo'g'inlar, bo'g'inlardan so'zlar, so'z birikmalari, gaplar, matnlar tuzish ko'nikmalarini egallaydilar. Fonetikaning birligi bo'lgan *tovush* gradual qatorning (0) boshlang'ich nuqtasida joylashadi. Tilshunoslik terminlari sistemasida sodir bo'lgan graduonimiya *so'z → so'z birikmasi → sodda gap →*

uyushiq kesimli gap → *uyushgan gap* → *qo'shma gap* → *matn* munosabatida yaqqol aks etadi¹⁴³.

Yana bir muhim lingvistik birliklar mavjudki, ular ham darajalanib boruvchi qatorni tashkil etadi: *qo'shimcha* → *morfema* → *morfemika* → *morfonologiya* → *tilshunoslik* → *fan//суффикс* → *морфема* → *морфемика* → *морфонология* → *лингвистика* → *наука*.

O'quvchilar maktab davrida ijodiy matnlar tuzishni o'rganadilar: *matn* → *xat/maktub* → *noma* → *bayon* → *insho* → *kichik asar* → *risola*. Bu kabi gradual qator rus tilida ham o'ziga xos paradigmalardan iborat: *текст* → *записка* → *письмо* → *грамота* → *послание* → *эпистола* → *мемуары*. Ijodiy ishlarni anglatuvchi leksemalar o'zaro gradual qator hosil qilishi bilan bir qatorda, ushbu qatorning ikki qutbidagi so'zlar o'zaro antonimik juftlar hosil qiladi: *xat (записка)* – *risola (мемуары)*.

Tilshunoslikning birliklari xususiyatlarini hisobga olgan holda *leksik semantika* → *matn semantikasi* → *diskurs semantikasi* kabi darajalanishni ham misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Tarix fanida davrlashtirishda quyidagi gradual qator kuzatiladi: *qadimgi* → *o'rta* → *yangi (davr)*. Shu bilan bir qatorda tarix fanining o'zi ham *qadimgi dunyo tarixi* → *o'rta asrlar tarixi* → *yangi tarix* → *eng yangi tarix//история древнего мира* → *история средневековья* → *новая история* → *новейшая история* gradual qatorini hosil qiladi.

Musiqaga ixtisoslashtirilgan maktablarga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyat – o'quvchi bilan tovush turlari ustida ishlash va uning ovozi sozlash kabi mas'uliyatlarni belgilaydi, masalan: *un* → *sas* → *sado* → *tovush* → *ovoz* → *nido* → *na'ra//придыхание* → *писк* → *зов* → *звучание* → *подголосок* → *голосочек* → *голос* → *голосина* → *голосище*. Ovozning diapazoni va jinsiga ko'ra

¹⁴³ Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti nashriyoti, 2018. – B.86.

farqlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi: erkaklar ovozi *bas, bariton, tenor*, ayollar ovozi *kontralto, mezzo-soprano, soprano* gradual qatorini tashkil etadi.

Musiqaga oid gradual qatorlar. Tenor erkaklar ovozining yuqori turi bo'lib, bu ovoz ba'zida ayollar ovozini ham eslatadi. *Bariton tenor* va *bas* ovozlarning o'rtasidagi ovoz turi bo'lib, bu ovoz sohiblariga ko'pincha dramatik, vatanparvarlik, lirik sevgini kuylash vazifasi topshiriladi. *Bas* eng past erkaklar ovozi hisoblanadi.

Soprano ayollarning juda yuqori ovozi bo'lib, bu ovoz turini yengilligi, mayinligi, jaranglash jozibasi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Eng mashhur opera asarlaridagi ayollar roli uchun aynan shu ovoz turi muvaffaqiyat olib kelgan. *Messo-soprano* nisbatan past tembrdagi ovoz turi bo'lib, bu ovoz sohiblariga asosan o'rta yoshli, dramatik, ko'pincha salbiy obrazlar topshiriladi. *Kontralto* ayollar ovozi ichida eng noyob va eng past ovozdir.

Yana bir jihat: *krescendo* tovush balandligining bosqichma-bosqich ortib borishini, *diminuendo* tovushning sekinlashishini anglatishi ham lug'aviy graduonimiya hodisasini aks ettiradi. Bu sohada erkaklar va ayollarning ovoz toni ham ortib/pastlab borishi (*soprano* → *mezzo soprano* → *kontralto//tenor* → *bariton* → *bas*)¹⁴⁴ misol bo'la oladi.

Musiqiy-ritmik ish amaliyotida ham ko'pincha *o'rtacha, juda tez, shoshmaydigan, sekin* sur'atlari qo'llanadi, ular dunyoda qabul qilingan yagona birliklarda ifodalanadi:

moderato – mo'tadil;

andante – o'rtacha tezlikda;

andantino – andantega qaraganda jonliroq;

allegro – tez;

allegretto – allegrodan biroz sekinroq;

adagio – sekin, xotirjam.

¹⁴⁴ Иванов А.П., Никифоров В. (певец). Искусство пения. – М.: Голос-пресс, 2019. – 436 с.

Adabiy tushunchalar bilan bog'liq lug'aviy graduonimiya. O'zbek mumtoz she'riyatidagi bandlarga oid darajalanish ham rus tilida uchramaydi: *musallas* (3 misra) → *murabba* (4 misra) → *muxammas* (5 misra) → *musaddas* (6 misra) → *musabba'* (7 misra) → *musamman* (8 misra) → *mustasne'* (9 misra) → *muashshar* (10 misra), *tarje'band* va *tarkibband* (10 misradan ortiq). Bu jihatdan o'zbek tilining lug'aviy boyligi ustunlik qilishining guvohi bo'ldik, chunki rus tilida *строка* → *двустушие/дистушие* → *четверостушие* → *пятистушие* atamalari mavjud.

II bobga doir xulosa

1. Graduonimiya o'zbek va rus tillaridagi shaxsni, tana a'zolarini, me'yor-o'lchovni, maishiy, mavhum tushunchalarni ifodalovchi ot leksemalarda ham faol kuzatiladi. Fazodagi turli jism, harakat insonning ongida uning tasavvuriga monand ravishda gavdalanadi. Vizual yoki xayolan inson narsa-buyum, voqea-hodisa nomlarini atashdan oldin idrok etgan ko'rinishiga mos ravishda aks ettiradi. Har bir so'z paradigmasida dominanta so'zlar bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Gradual qator qutblari har doim ham bir-biriga nisbatan antonimik qatorlar hosil qilmasligi mumkin. Graduonimiya hodisasi har bir tilning o'ziga xos unikalialari, xususiyatlari, milliyligini ifodalash, tarjima jarayonida esa aniq va talab darajasidagi mazmunini yoritib berish uchun xizmat qiladi.

2. Shaxsni bildiruvchi ot leksemalar orasidagi gradual munosabat, asosan, daraja, unvonga asoslanadi. Gradual qatorni tashkil qiluvchi lug'aviy birliklar shaxsning mavqeyi, darajasi, mansab pog'onasini ifodalaydi.

O'zbek va rus tillaridagi harbiy soha, ta'lim tizimidagi shaxs tushunchasini ifodalovchi gradual qatorlar sohalarning tarixiy taraqqiyoti va tizim sifatida shakllanish jarayoni bilan bog'liq.

3. Harbiy sohada shaxs mansab-martabasi, daraja unvoni bilan bog'liq gradual qatorlar umumiy xususiyatlarga ega. O'zbek tilida ham rus tilidagi gradual

qatorlar qo‘llanadi. Bu holat rus tilining o‘zbek tiliga ta’siri, rus tilining mavqeyi va o‘zbek tilini internatsional so‘zlar bilan boyitishdagi oraliq mavqeni egallagani bilan izohlanadi.

4. Me’yor-o‘lchovni ifodalovchi gradual qatorlarda daraja munosabati o‘lchov birliklarining miqdori bilan bog‘liq. Me’yor-o‘lchov birliklaridagi graduonimiya real, mavjud holat bilan belgilanadi. Bu graduonimiya qatorlarida til sohibining ishtiroki, munosabati, yondashuvi deyarli kuzatilmaydi. Me’yor-o‘lchovni ifodalovchi gradual qatorlar o‘zbek va rus tillari uchun umumiylik kasb etadi. O‘zbek tili me’yor-o‘lchov birliklarining tarixiy shakllaridagina farqli o‘rinlar kuzatiladi.

5. Tibbiyot sohasida graduonimiya xususiyatlarini bevosita ifodalovchi tushunchalar mavjud. Gradus, harorat, kasallik rivoji bosqichlarida bevosita graduonimiya kuzatiladi.

Tibbiy tushunchalarning aksariyat gradual qatorlar tahlilida o‘zbek va rus tillarida o‘xshashlik kuzatiladi. Bu holat ham rus-internatsional tushunchalarining ta’siri bilan izohlanadi.

6. O‘zbek va rus tillaridagi gradual qatorlar o‘rtasidagi farq maishiy tushunchalar, uy-ro‘zg‘or buyumlari nomida ko‘proq kuzatiladi. Bu gradual qatorlar real, mavjud voqelikni darajalab ko‘rsatish bilan birga til sohibining munosabati, dunyoqarashi, subyektiv yondashuvini ham aks ettiradi.

7. Ot leksemalardagi graduonimiya denotatning xususiyatlari, darajaviy ko‘rinishlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Borliqdagi mavjud daraja munosabatlari, me’yordan ortiq yoki kamlik gradual munosabatni shakllantiradi. Ot leksemaga oid gradual qatorlar qutblarida antonimik munosabat kuchsiz darajada namoyon bo‘lsa, ot leksemalarda gradual munosabat sinonimik munosabatga nisbatan ko‘p kuzatiladi. Gradual munosabat sinonim bo‘lmagan tushunchalar o‘rtasida ham sodir bo‘ladi.

III BOB. O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA BELGINI IFODALOVCHI LUG‘AVIY GRADUONIMIYA

3.1-§. O‘zbek va rus tillarida shaxsning tashqi belgilariga oid lug‘aviy graduonimiya

Graduallikning FSM grammatik (qiyoslash darajalari), leksik-grammatik (o‘lchov va daraja ravishlari), leksik-so‘z yasovchi (emotsional-baholovchi otlar) tizimlarining uyg‘unligi natijasida yuzaga keladi. Asliy sifatlarning sinonimik qatorlari turli semantikasiga ko‘ra tematik guruhlariga birlashadi, xususan: shaxsning axloqiy va estetik xususiyatlari, jismoniy va fiziologik, ruhiy holatlariga kiruvchi guruhlar ko‘proq, yorug‘lik, harorat, og‘irlik, hid, ta‘m va boshqalar kamroq guruhlarni tashkil etadi.

Shaxsning tashqi ko‘rinishini ifodalovchi lug‘aviy birliklararo gradual munosabatlar, ular natijasida gradual oppozitsiyalarning sinonim-antonim guruhlari shakllanishi va guruhlarning markazida me‘yoriy ma‘no (0) darajasini yaqqolroq namoyon etishda antonimlar yetakchilik qilishi, uning a‘zolari vazifasini esa antonim juftliklar bajarishi kuzatiladi. Xususan, har bir sinonim gradual ma‘noga ega bo‘lib, uning semantikasi negizida gradosemalar yuzaga keladi va markazdan chetga qarab yo‘nalgan belgilar gradualligining ortib/kamayib borishi kuzatiladi. Inson ko‘rish a‘zolari vositasida shakllantiradigan qiyofa shaxslararo muloqot va munosabatlar vositasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi tashqi ko‘rinish hisoblanadi. Tashqi ko‘rinishdagi alohida ko‘zga tashlanuvchi belgilar asosida shaxsga oid ma‘lumotlarga ega bo‘lish, uni to‘liq tasavvur etish amalga oshiriladi.

3.1- jadval

Yuz//лицо oppozitsiyasining gradual ko‘rsatkichlari

Ko‘rsat kichlar	O‘zbek tilidagi gradual komponentlar	Ko‘rsat kichlar	Rus tilidagi gradual komponentlar
+4	<i>oraz</i> – chiroyli yuz, bet, chehra	+4	<i>лик</i> – облик человека [ТСУ]

	[O‘TIL III, 133-b.] <i>uzor</i> – yuz, ruxsor [O‘TIL IV, 268-b.] <i>ruxsor</i> – yuz, bet, aft-angor, chehra [O‘TIL IV, 400-b.]		
+3	<i>jamol</i> – husn, ko‘rk, chiroy [O‘TIL II, 69-b.] <i>husn</i> – chiroy, ko‘rk [O‘TIL V, 565-b.] <i>chiroy</i> – go‘zallik, husn, ko‘rk [O‘TIL IV, 492-b.]	+3	<i>образ</i> – облик, вид, подобие [ТСУ]
+2	<i>diydor</i> – yuz, jamol, ruxsor, bashara [O‘TIL I, 609-b.]	+2	<i>личико</i> – уменьшительно-ласкательное к <i>лицо</i> [ТСУ]
+1	<i>chehra</i> – yuz, bet, aft-angor, siymo [O‘TIL IV, 478-b.]	+1	<i>облик</i> – очертание, наружность, внешний вид [ТСУ]
0	<i>yuz</i> – odam boshining old tomoni, bet [O‘TIL V, 75-b.]	0	<i>лицо</i> – передняя часть головы человека [ТСУ]
-1	<i>bet</i> – odam boshining old qismi, old tomoni [O‘TIL I, 237-b.]	-1	
-2	<i>aft</i> – yuz ko‘rinishi, qiyofa, turq [O‘TIL I, 119-b.]	-2	<i>морда</i> – лицо (вульг.) [ТСУ]
-3	<i>bashara</i> – kishi boshining old qismi, bet, yuz [O‘TIL I, 183-b.]	-3	<i>рожа</i> – лицо (простореч.) [ТСУ]
-4	<i>turq-atvor</i> – tashqi qiyofa, fe‘l-atvor, ahvol [O‘TIL IV, 203-b.]	-4	<i>харя</i> – лицо, физиономия (просторечное, вульг.) [ТСУ]
-5	<i>turq</i> – tashqi qiyofa, avzo, vajohat (salbiy munosabatda) [O‘TIL IV, 203-b.]	-5	
-6	<i>kepata</i> – qiyofa holati (yomon, ayanch, achinarli) [O‘TIL II, 353-b.]	-6	

Jadvalda *yuz* paradigmasini hosil qiluvchi lug‘aviy birliklar gradual ko‘rinishlari aks etgan bo‘lib, ularni ijobiylik/salbiylik bo‘yoqlari ortib/kamayib borish tartibida joylashtirdik. Asosan, *bet*, *aft*, *bashara*, *chehra*, *jamol*, *diydor*,

oraz, uzor, ruxsor – kishi boshining old tomonini ifodalovchi o‘zbek tilidagi so‘z birliklari uchrasa, rus tilida ular quyidagilardan iborat: *лик, образ, личико, облик, лицо*. Jadvaldagi qator nosimmetrik, chunki o‘zbek tilidagi leksemalar soni ustun. Dominanta so‘zlar – *yuz//лицо*, o‘zbek tilidagi gradosemalar *chiroyli, yomon, ayanch, achinarli* sifatleri bo‘lsa, rus tilida ularning muqobili aniqlanmadi.

Bet so‘zi ma’nosi, qo‘llanishiga ko‘ra *yuz* so‘ziga juda yaqin va *yuz* so‘ziga nisbatan biroz salbiy bo‘yoqqa ega. *Aft, bashara* so‘zlari *bet* so‘ziga nisbatan salbiy bo‘yoqqa ega, *bet* so‘zidagi salbiy bo‘yoq *aft* so‘zidagi salbiy bo‘yoqqa nisbatan kuchli. *Chehra* ijobiy bo‘yoqqa ega, biroq *jamol* so‘zida ijobiy bo‘yoq *chehra* so‘zidagiga nisbatan ham kuchli va poetik uslubga xos hamda *husn, chiroy* ma’nosida ham qo‘llanadi. *Diydor* so‘zi *ko‘rishmoq, to‘ymoq* kabi ba’zi so‘zlar bilan qo‘llanadi. *Uzor, oraz, ruxsor* eskirgan so‘zlar sirasiga kiradi. *Turq-atvor* – tashqi qiyofa, fe‘l-atvor, ahvol ma’nolarini ifodalaydi. *Husn, chiroy, ko‘rk, zeb* – yoqimli, o‘ziga tortuvchi ko‘rinishni bildiradi. *Husn chiroy va ko‘rk* so‘zlariga nisbatan keng qo‘llanadi. *Ko‘rk* so‘zi shu ma’noda so‘zlashuvda qo‘llanmaydi.

Qatordagi otlar integral belgisi insonning tashqi ko‘rinishi jozibaliligining mavjudligi/mavjud emasligi, ijobiy semaga ega bo‘lgan qismidagi ijobiy elementlar badiiy asarlar va og‘zaki nutqda ko‘proq diqqatni tortadi. Insonning tashqi go‘zalligi muhim va shu guruhga oid otlar nutqda juda ko‘p qo‘llanadi; ularning gradual ma’nolari lisoniy munosabatlarni o‘zida mujassam etishi barobarida boshqa til vositalari bilan birga ham qo‘llanadi. Bu sema borasida o‘zbek tilining so‘z boyligi ustun, chunki yuqorida keltirilgan gradual qatorga asosan, *yuz* paradigmasining ko‘lami boshqa tillarga qaraganda ko‘proq.

Shaxs yoki predmetning o‘lchami so‘zlovchi uchun juda muhim, ular bir guruhga jamlanganda o‘lchamni ifodalovchi “katta-kichik//большой-маленький” gradual qatorini shakllantiradi. Ularning umumiy arxisemasi “o‘lcham//размер”; “o‘lchamga nisbatan katta//значительный; o‘lchamdan kichik//небольшой по размеру” – differensial semalari; “o‘lchamga ko‘ra katta//превосходящий по размерам; o‘lchamga ko‘ra kichik//меньше других по размеру” gradosemalari

hisoblanadi. Ushbu semantik tavsiflar gradual qatorlar shakllanishiga imkon beradi, ularning qismlari o‘lchamni kattalashtirish/kichiklashtirishga yo‘naltiriladi. Gradual qator markazida “katta-kichik//больший-маленький” antonimlari o‘rin olgan, boshqalari esa sinonimik qatorlar bo‘lib, ular asosiy so‘zlarga nisbatan belgini orttirib/kamaytirib ko‘rsatishga xizmat qiladi. O‘zbek tilida ushbu semantikaga ega bo‘lgan *katta-kichik* leksemalarining shaklan bir xilligi rus tilida ulardan farqli ravishda “*больший* – сравнительная степень к *большой* и к *великий* [ТСУ], *меньший* – сравнительная степень к *малый* и *маленький* [ТСУ] kabi aks etadi. Shaklan o‘xshash bo‘lgan *katta-kichik//больший-меньший* darajalanish guruhlarining ahamiyatli jihati shundaki, ular uchun gradual semantika birlamchi, nafaqat yondosh birliklar, balki hosil qilingan (faqat rus tiliga xos bo‘lgan jihat: *больший* (*большой* leksemasidan) – *меньший* (*маленький* leksemasidan) asosiy leksemalar bilan chog‘ishtirilganda ham darajalanishni namoyon etadi. Yondosh birliklar esa “*наибольший* – самый большой [ТСУ] (*самый* so‘zi gradosema hisoblanadi), *максимальный* – “*наибольший*, *наивысший*; *предельный*” (*высшая степень gradosema* hisoblanadi).

3.2- jadval

***Katta-kichik//больший-меньший* oppozitsiyasining gradual ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsat kichlar	O‘zbekcha gradual komponentlar, ularning izohi	Ko‘rsat kichlar	Ruscha gradual komponentlar, ularning izohi
+6	<i>haybatli</i> – ulug‘vor ko‘rinishli, salobatli, bahaybat [O‘TIL V, 482-b.] <i>bahaybat</i> – juda katta, juda ulkan, haybatli [O‘TIL I, 192-b.]	+6	<i>циклопический</i> – огромный, исполинский (обычно о зданиях, сооружениях) [ТСУ]
+5	<i>azim</i> – ko‘rinish-tuzilish e‘tibori bilan g‘oyat katta, ulkan [O‘TIL I, 49-b.]	+5	<i>исполинский</i> – необыкновенно большой, огромный, гигантский [ТСУ]
+4	<i>ulkan</i> – egallagan o‘rni, hajmi g‘oyat yirik, juda katta, buyuk	+4	<i>гигантский</i> – огромный, необычайно больших размеров

	[O‘TIL IV, 277-b.]		[ТСУ]
+3	<i>azamat</i> – ko‘rinish-tuzilish e‘tibori bilan juda katta, haybatli, ulkan [O‘TIL I, 48-b.]	+3	<i>колоссальный</i> – громадный, огромный [ТСУ]
+2	<i>zabardast</i> – jismoniy jihatdan baquvvat, kuchli, qudratli [O‘TIL II, 120-b.]	+2	<i>громадный</i> – очень большой, огромный [ТСУ]
+1	<i>yirik</i> – hajmi, o‘lchamlari, qiymati nisbatan katta [O‘TIL II, 269-b.]	+1	<i>огромный</i> – очень большой по размерам, по величине [ТСУ]
0	<i>katta emas</i>	0	<i>небольшой</i> – не является большим, хотя он и несколько больше маленького [ТСУ]
	<i>kichik emas</i>		<i>немаленький</i> – довольно большой, значительный [ТСУ]
	<i>katta</i> – hajmi, o‘lchami me‘yordan yoki nisbatan ortiq, ulkan [O‘TIL II, 333-b.]		<i>большой</i> – превышающий обычный, свойственный данным предметам размер, объём, кол-во и т.д. [ТСУ]
-1	<i>kichik</i> – nisbatan katta bo‘lmagan tuzilish, hajm, o‘lcham [O‘TIL II, 378-b.]	-1	<i>маленький</i> – небольшой по размерам, по величине [ТСУ]
-2	<i>kichikroq</i>	-2	<i>миниатюрный</i> – маленький и изящный [ТСУ]
-3	<i>juda kichik</i>	-3	<i>крохотный</i> – очень маленький, крошечный [ТСУ]
-4	<i>jimit</i> – juda kichkina, kichkintoy, jajji, mitti [O‘TIL II, 90-b.]	-4	<i>мизерный</i> – маленький, незначительный по размерам [ТСУ]
-5		-5	<i>махонький</i> – маленький, крохотный [ТСУ]
-6		-6	<i>микроскопический</i> – предметы небольшие, для указания того, что даже для небольшого размера они малы [ТСУ]

O‘zbek tilida tashqi ko‘rinishni ifodalovchi leksemalar ko‘lami sifat darajalari orqali aks etgan. *Katta, ulug‘, buyuk, zo‘r, azim, azamat, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant* kabi sinonimlar qatori mavjud bo‘lib, ular odatdagidan hajm-o‘lchovi ortiqlik ma‘nosini beradi hamda *kichik* leksemasiga zid hisoblanadi. *Katta* dominanta leksemasining ma‘no ko‘lami keng: ham konkret, ham abstrakt tushunchalarga nisbatan qo‘llanadi.

O‘zbek tilidagi sinonimlar qatorida *bahaybat, haybatli, azim, ulkan* so‘zlarining belgi darajasi nisbatan kuchli. *Bahaybat, haybatli* so‘zlarining ma‘nosi ularning o‘zagidan ham anglashilib turadi. *Azim, azamat* asosan konkret narsalarga nisbatan qo‘llanadi, lekin qo‘llanish doirasi juda chegarali. Shuning uchun ham bular deyarli hamma vaqt hajm-o‘lchovi ancha katta bo‘lgan narsalarga nisbatan qo‘llanadi. *Ulkan* eskirgan so‘z, *yirik* bu ma‘noda juda kam qo‘llanadi.

Rus tilida “*наибольший, максимальный, предельный, меньший, минимальный*” sinonimik qatori, xuddi shu semantikani ifodalovchi birliklarga qo‘shimcha ravishda *микроскопический* – “чрезвычайно малый” sifatini uchratish mumkin, uning gradosemasi esa “чрезвычайно” ravishi hisoblanadi. *Небольшой* sifatiga e‘tibor qaratsak: bunda gradosema “несколько больше маленького”. *Микроскопический* sifati esa eng kichik o‘lchamdan ham kichikligiga urg‘u berish maqsadida qo‘llanadi, bu borada “даже для небольшого размера они малы” gradosemasini keltirish maqsadga muvofiq. Ushbu guruh jadvalidan o‘rin olgan mavzuga oid sinonimlar juda mahsuldor va ko‘p elementga ega bo‘lib, ular alohida bir ma‘no kasb etadi, masalan: *katta uy//большой дом, katta sevgi//большая любовь*; bu sifatlar o‘ziga xos universallik kasb etadi va turli mavzuga oid guruhlar qismi hisoblanadi.

Bunga qo‘shimcha ravishda reduplikatlar (*kichik-kichik//маленький-маленький, kichikdan kichik//маленький-премаленький*), diminutivlar (*jimitdek, timitdek//малюсенький, малепусенький, вот такусенький*), rus tilida prefiks shakllari (*наималейший*), kontekstual sinonimlar (*чистосимволический, карликовый, лилипутский, крохотулечный*) vositasida gradual qator boyitilishi

mumkin.

Katta sevgi//большая любовь ma'nosiga oid boshqa qator, ya'ni *kichikroq* → *kichik* → *katta* → *kattaroq* → *buyuk//небольшой* → *маленький* → *большой* → *огромный* → *великий* sifatlari kiradi. O'zbek tilidagi sifatlarda *-roq* shakli daraja semantik maydonining asosi bo'lib, maydonning yadro qismini tashkil etadi. Bu shakl belgining darajasini ifodalashda qo'llanadi hamda qiyoslash munosabatlarini namoyon etadi. Rus tilida *гигантский* sifati ham mavjud bo'lib, o'zbek tilida ushbu sifat *гигант* tarzida uchraydi, yunonchadan olingan *гигант* leksemasi kitobiy uslubga xos bo'lib, rus tilidan farqli ravishda asosan qurilishga, joyga nisbatan qo'llanadi hamda belgi darajasi kuchliligi bilan ajralib turadi.

Insonning nafaqat bo'y-basti, semiz-ozg'inligiga ko'ra, balki umumiy ko'rinishiga beriladigan baho ham muhim ahamiyat kasb etadi: *xushqomat*, *xushqad*, *xushbichim*, *ketvorgan*, *tamtam*, *bejirim*, *kelishgan* kabi.

Xush- oldqo'shimchasi yordamida yasalgan so'zlar salmog'i ustunligi zamirida ijobiy ma'no yotadi, zero, *xush-* forschadan *yaxshi*, *ajoyib*, *yoqimli*, *dilkash*, *quvnoq*, *quvonchli* ma'nolarini anglatadi. O'TILda ushbu oldqo'shimcha yordamida yasalgan ijobiy ma'nodagi so'zlar 66 tani tashkil etsa, salbiy bo'yoqdagi so'zlar soni 6 ta ekanligi kuzatiladi. Quyidagi jadvalga asosan *kelishgan//статный* dominanta leksemasining gradual ko'rsatkichlari ortib borish tartibida joylashtirilgan.

3.3- jadval

Kelishgan//статный gradual ko'rsatkichlari

Ko'rsat kichlar	O'zbekcha gradual komponentlar, ularning izohi	Ko'rsat kichlar	Ruscha gradual komponentlar, ularning izohi
0	<i>kelishgan</i> – qaddi-qomati chiroyli, <i>xushbichim</i> [O'TIL II, 346-b.]	0	<i>стройный</i> – красиво, пропорционально сложенный, статный [ТСУ]
+1	<i>chiroyli</i> – ko'rinishi, tashqi qiyofasi ko'zga yoqimli ko'rinadigan [O'TIL IV, 492-	+1	<i>красивый</i> – нравящийся своим внешним видом, поражающий зрение [ТСУ]

	b.]		
+2	<i>bejirim</i> – tuzilishi, bichimi ixcham, chiroyli, xushbichim [O‘TIL I, 207-b.]	+2	<i>статный</i> – стройный, с пропорционального росту правильным телосложением [ТСУ]
+3	<i>tamtam</i> – qaddi-qomati kelishgan, zebo [O‘TIL III, 657-b.]	+3	<i>важный</i> – величественный, имеющий вес [ТСУ]
+4	<i>ketvorgan</i> – har tomonlama kelishgan, juda chiroyli [O‘TIL II, 358-b.] <i>lobar</i> – xushro‘y, xushsuxan, yoqimli [O‘TIL II, 503-b.]	+4	<i>величавый</i> – величественный, важный, внушающий уважение (о внешнем облике) [ТСУ]
+5	<i>xushbichim</i> – bo‘yi-basti kelishgan, qaddi-qomati chiroyli [O‘TIL IV, 430-b.]	+5	
+6	<i>xushqomat/xushqad</i> – qaddi-qomati kelishgan, xushbichim [O‘TIL IV, 435-b.]	+6	

Sinonimlar qatori *qaddi-qomati (bichimi) chiroyli* ma’nosini aks ettiradi. *Bejirim* so‘zi bu ma’noda kam qo‘llansa, *ketvorgan* oddiy so‘zlashuvga xos bo‘lib, unda belgi darajasi kuchlidir. *Lobar*, *tamtam* yigit va qizlarga nisbatan *yoqimlilik* bo‘yog‘i bilan qo‘llanadi. Rus tilidagi leksemalar soni kamligi jadvaldagi graduonimlar qatori nosimmetrikligini namoyon etadi.

“*O‘zining tashqi ko‘rinishi bilan e’tiborni tortadigan*”//“*привлекательный на вид, обращающий на себя внимания своим внешним видом*” semantikasini ifodalovchi gradual qatorlar sirasiga kiruvchi leksemalarni ko‘rib chiqamiz.

3.4- jadval

***Ko‘rimli-ko‘rimsiz//внушительный-невзрачный* oppozitsiyasi gradual ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsat kichlar	O‘zbekcha gradual komponentlar, ularning izohi	Ko‘rsat kichlar	Ruscha gradual komponentlar, ularning izohi
-----------------	--	-----------------	---

+6		+6	<i>солидный</i> – важный, представительный [ТСУ]
+5	<i>istarali</i> – yuz tuzilishi, qiyofasi yoqimli [O‘TIL II, 40-b.]	+5	<i>вальяжный</i> – изящный и полный достоинства, винный [ТСУ]
+4	<i>kelbatli</i> – qomatli, bichimli [O‘TIL II, 40-b.]	+4	<i>видный</i> – рослый, статный, осанистый [ТСУ]
+3	<i>savlatdor</i> – savlatli, sersavlat/ <i>savlatli</i> – ulug‘vor ko‘rinishli, sersavlat [O‘TIL III, 415-b.] <i>sersavlat</i> – go‘yat savlatli, juda basavlat [O‘TIL III, 487-b.]	+3	<i>представительный</i> – внушающий почтение, солидный, видный, почтенный [ТСУ]
+2	<i>jozibali/jozibador</i> – o‘ziga tortuvchi, maftun qiluvchi, jozibali, ajoyib [O‘TIL II, 98-b.]	+2	<i>величавый</i> – величественный, важный, внушающий уважение (о внешнем облике) [ТСУ]
+1	<i>ko‘rkam</i> – ko‘rinishi yoqimli, chiroyli, go‘zal <i>ko‘rimli/ko‘rkli</i> – ko‘rkam [O‘TIL II, 468-b.]	+1	<i>импозантный</i> – производящий впечатление, внушительный, представительный [ТСУ]
0			<i>внушительный</i> – большой, заметный, крупный [ТСУ]
	<i>ko‘rimsiz/ko‘rksiz</i> – ko‘rinishi yoqimli emas, savlati, ko‘rki yo‘q, xunuk [O‘TIL II, 466-b.]	0	<i>невнушительный</i> – не отличающийся внушительностью, не производящий большого впечатления [ТСУ]
			<i>невзрачный</i> – имеющий непривлекательный, некрасивый вид и обычно небольшой рост или размер [ТСУ]
-1	<i>yoqimsiz</i> – so‘xtasi sovuq, beo‘xshov, kishini o‘ziga tortmaydigan [O‘TIL II, 55-b.]	-1	<i>неприглядный</i> – не обладающий привлекательной внешностью, невзрачный, плохой [ТСУ]
-2	<i>beo‘xshov</i> – ko‘rinishi yoqimsiz,	-2	<i>незаметный</i> – незначительный,

	gavdasi, tashqi bichimi kelishmagan, beso'naqay, ro'dapo [O'TIL I, 247-b.]		мелкий, неприметный [ТСУ]
-3	sovuq – o'ziga jalb qilmaydigan, yoqimsiz [O'TIL III, 541-b.]	-3	неприметный – ничем не замечательный, не выдающийся [ТСУ]
-4	beso'naqay – ko'rinishi haddan, me'yordan tashqari katta, qo'pol, kelishmagan [O'TIL I, 238-b.]	-4	непрезентабельный – не представительный, не имеющий достойного вида [ТСУ]
-5	ro'dapo – qo'pol, qovushmagan odam [O'TIL III, 404-b.]	-5	неказистый – подчёркивает небольшой рост кого-либо/чего-либо при отсутствии привлекательности, при известной нескладности [ССРЯ 1, – С.627]
-6	xunuk – ko'rinishi yoqimsiz, ko'rimsiz, chiroyli emas [O'TIL IV, 425-b.]	-6	плюгавый – жалкий на вид из-за маленького роста [ССРЯ 1, – С.627]

Rus tilidagi ijobiy va salbiy ma'nolariga nisbatan shakllantirilgan qator o'zaro simmetrik, har bir birlikning qarma-qarshi ma'nosiga ko'ra oppozitsiya hosil qiladi. Rus tilidagi sinonim lug'atlari tahlili gradual qatorlarning ijobiy bo'yoqlari boyitilganidan dalolat beradi. O'zbek va rus tillarida ijobiy, salbiy semantikaga ega sifatlar qatori simmetrik, vaholanki rus tilidagi salbiy bo'yoqqa ega sifatlarda *не-* prefiksli shakllar juda ko'p. *Плюгавый* sifati salbiy bo'yoqqa ega bo'lib, *не-* prefiksiga ega emas, boshqa sifatlar esa *не-* prefiksisiz qo'llanmaydi. D.Ushakovning lug'atiga asosan *внушительный* sifati shaxsning bo'yini ifodalasa, *вальяжный* sifati *martabali* semasini ifodalaydi, ya'ni shaxsning katta-kichikligi emas, balki martabali va obro'li ma'nolarini beruvchi ta'rifi keltirilgan. Bundan tashqari, bir qator sifatlar so'zlashuv uslubiga mos (*видный, представительный, неказистый, плюгавый*). So'zlovchi uchun, asosan, shaxsning tashqi ko'rinishini tasvirlab berish juda muhim, u ko'p hollarda

shaxsning tashqi ko‘rinishi ichki dunyosidan keskin farqlanishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shaxsning tashqi ko‘rinishini ifodalovchi sifatlar semantikasi shaxsning ijtimoiy maqomini, jamiyatdagi o‘rnini, muvaffaqiyatini aks ettiradi.

Inson bo‘yining ifodalanishi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi: *pakana* → *o‘rta bo‘yli* → *novcha* → *daroz//лулиным* → *среднего роста* → *высокий*. Shaxsning bo‘y-bastiga nisbatan *baland-past* darajalanish qatorlari orasidagi ushbu so‘zga ma’nodosh hamda turli bo‘yoq kasb etuvchi birliklarini yaxlit bir gradual jadvalga jamlab, ijobiy/salbiy bo‘yoqlariga ko‘ra joylashtirib chiqdik. Bunda o‘zbek tilidagi *novcha*, *naynov*, *daroz*, *uzun* – “bo‘yi baland”, “baland bo‘yli” semasini, *naynov*, *daroz* leksemalari salbiy bo‘yoqni ifodalasa, *uzun* leksemasi ma’lum kontekst doirasida shu ma’noda qo‘llanishini aniqladik. *Bo‘ychan/bo‘ydor* hamda *baland/past emas* leksemalari bir xil semaga ega.

Ijobiy/salbiy bo‘yoqlariga ko‘ra ushbu *baland-past* paradigmalari o‘zaro nosimmetrik, chunki jadvalda me’yoriy daraja (0) markazining ikki tomoni miqdoriga ko‘ra ijobiy bo‘yoqli leksemalar ustunlik qiladi. Gradosema daraja va o‘lchovning umumiy semasi bo‘lib, o‘zgaruvchan xususiyatga ega, o‘zbek tilida ular *uncha*, *nisbatan*, *me’yoriy*, *o‘rtachadan past* kabi leksemalar hamda *-dor*, *-chan* qo‘shimchalari mavjudligi sababli belgining ortiq/kam darajasini ifodalaydi.

3.5- jadval

***Baland-past//высокий-низкий* oppozitsiyasining gradual ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsat kichlar	O‘zbekcha gradual komponentlar, ularning izohi	Ko‘rsat kichlar	Ruscha gradual komponentlar, ularning izohi
+5	<i>daroz</i> – baland bo‘yli, <i>novcha</i> , <i>bo‘ychan</i> [O‘TIL I, 567-b.]	+5	<i>высоченный</i> – очень высокий [ССРЯ 1, – С.212]
+4	<i>uzun</i> – baland, <i>novcha</i> [O‘TIL IV, 270-b.]	+4	<i>длинный</i> – имеющий большую длину [ССРЯ 1, – С.212]
+3	<i>novcha</i> – bo‘yi baland, <i>daroz</i> , <i>uzun</i> [O‘TIL III, 47-b.]	+3	<i>долговязый</i> – высокий, худощавый и неуклюжий [ССРЯ 1, – С.212]
+2	<i>bo‘ychan</i> – bo‘yi, qaddi baland,	+2	<i>рослый</i> – крупный, высокого

	bo'ydor, novcha [O'TIL I, 406-b.] <i>bo'ydor</i> – bo'yi baland, bo'ychan, daroz, novcha [O'TIL I, 401-b.]		роста [ССРЯ 1, – С.212]
+1	<i>baland/past emas</i> – qaddi, bo'yi uzun, novcha, bo'yi uncha baland bo'lmagan	+1	<i>высокий/невысокий</i> – имеющий большое протяжение снизу вверх, по вертикальной линии)
0	<i>o'rta bo'yli</i> – bo'yi me'yoriy darajada	0	<i>среднего роста</i> – довольно низкий, не очень высокий [ССРЯ 1, – С.673]
	<i>past</i> – qaddi, bo'yi uncha baland bo'lmagan, balandligi, bo'yi nisbatan qisqa [O'TIL III, 233-b.]		<i>низкий</i> – малый по высоте, имеющий небольшое протяжение снизу вверх [ТСУ]
-1	<i>pastak</i> – bo'yi unchalik baland bo'lmagan, past [O'TIL III, 235-b.]	-1	<i>низкорослый</i> – невысокий, маленького роста [ТСУ]
-2	<i>pakana</i> – bo'yi o'rtachadan past, bo'yi o'smay qolgan, bo'yi past [O'TIL III, 205-b.]	-2	<i>малорослый</i> – небольшой, невысокий ростом <i>лилипут</i> – человек очень маленького роста, карлик/карлик – человек необычайно малого роста [ССРЯ 1, – С.673]
-3	<i>mimit</i> – kichkinagina, jimit, mitti [O'TIL II, 594-b.] <i>mitti</i> – juda kichkina, jimit [O'TIL II, 602-b.] <i>jimit</i> – juda kichkina, kichkintoy, jajji, mitti [O'TIL II, 90-b.]	-3	<i>короткий</i> – очень низкий, низенький/ <i>кроха</i> – маленький ребенок, малютка [ССРЯ 1, – С.673]

Bo'ying baland/pastligini ifodalovchi leksemalar semantikasiga yaqin, paradigmaning bir qismi hisoblangan *mimit/mitti/jimit* kabi leksemalarini ham kiritdik, biroq *kichkinagina, jimit, mitti, juda kichkina, kichkintoy, jajji* ma'nolariga ega ekanligi hamda *-gina, -toy* qo'shimchalari va *juda* gradosemalari mavjudligi ularni nafaqat kichik yoshdagi bolalarga nisbatan qo'llanishi, balki rus tilidagi *кроха* leksemasi ham *kichkintoy* ma'nosini anglatishi kuzatiladi: *Anvarning*

mittigina barmoqchalari muzlab qoldi // "Он еще совсем маленький!" — шептали они. — Он же совсем кроха! Совсем, совсем кроха! — говорила сестра. А.Яшин. Маленькие рассказы.

Rus tilidagi *большой, огромный, исполинский* sifatlari gradual munosabatga kirishadi va ortib borishiga ko‘ra gradual qatorlarni tashkil etadi: *совершенно глупый, очень глупый, глупый, посредственный, умный, очень умный, чрезвычайно умный*. Jadvaldagi *низкий* sifatiga *не-* prefiksi qo‘shib bo‘lmasligi sababli nosimmetrik qator yuzaga keladi. Barcha so‘zlar uchun “pastdan yuqoriga” integral semasi differensial belgi sifatida bo‘y balandligining me‘yori va *чрезвычайно, очень, довольно* gradosemalari ham mavjud. Qatordan nafaqat neytral uslub, balki og‘zaki nutqda qo‘llanadigan sifatlarni ham o‘rin olgan, bu esa og‘zaki nutqda *bo‘y* semasining ko‘lami kengligini isbotlaydi. Shu bilan bir qatorda, ularning oldida qo‘shimcha sifatlarni birga kelishi ham kuzatiladi: *тщедушный, худая* kabi.

Belgi anglatuvchi antonimlar (*baland-past, bo‘yuchan-pakana*) va sinonimlar (*past, pakana, pastak*) bir gradual qatorni tavsiflovchi belgilar sirasiga kirishi kuzatiladi.

Keyingi tashqi ko‘rinish *semizlik-ozg‘inlik* belgisini ifodalovchi leksemalardir. Gradual qatorda yonma-yon turgan har bir so‘zlar juftligi bir-biriga nisbatan sinonimik munosabatlarni hosil qiladi va (0)ning ikki tomonida joylashgan gradonimlar bo‘lib, gradual hodisani namoyon etadi. Bunga belgining turli darajadagi ifodalanishi: *ipiltiriy//истощенный* – “kuchni yo‘qotib, sillasi qurigan holatga yetgan”; *qiltiriy//мощный* – “juda ozg‘in”; *ozg‘in//худой* – “oriqroq, qotmadan kelgan”; *oriq//сухопарый* – “ozg‘inroq”; *o‘rtacha//нормальный* – “me‘yorga mos, o‘rtacha”; *to‘lacha//упитанный* – “me‘yoriy darajada”; *semizroq//полный* – “me‘yoriy darajada semiz”; *semiz//толстый* – “me‘yordan ortiq darajada semiz”; *beso‘naqay//мучный* – “haddan ziyod semiz” leksemalari misolida ko‘rish mumkin, ular, asosan, *semiz-ozg‘in* paradigmatlari atrofida birlashadi, o‘zaro oppozitsiya hosil qiladi hamda

markazning ma'lum yo'nalishida belgining ortib/kamayib borishini ifodalaydi. Rus tilida *истощённый, худой, тощий, сухопарый, толстый* leksemalari tashqi ko'rinishni darajalab ifodalashga xizmat qilgan, masalan: *Из бурьяна вышла ее серенькая кошка, худая, тощая: заметно было, что она несколько дней не брала в рот никакой пищи.* Н.Гоголь¹⁴⁵. [*Чичиков*] *стянул покрепче пряжкой свой полный живот.* Н.Гоголь. Мёртвые души¹⁴⁶.

Oriq//худой leksemasi shaxs, jonivor va boshqa narsalarga nisbatan qo'llansa, *ozg'in* faqat shaxsga nisbatan, *dirdov* asosan jonzotlarga nisbatan qo'llanadi. Y.Stepanovning rus tilidagi *semizlik-ozg'inlik* belgisini ifodalovchi so'zlar qatorini o'zbek tilidagi darajalanishning o'ziga xos semalari bilan birga keltiramiz:

истощённый <- *тощий* <- *худой* <- *сухопарый* <- *нормальный* -> *упитанный* -> *полный* -> *толстый* -> *тучный*
 (-4) (-3) (-2) (-1) (0) (+1) (+2) (+3) (+4)
ipiltiriq → *qiltiriq* → *ozg'in* → *oriq* → *o'rtacha* → *to'lacha* → *semizroq* → *semiz* → *beso'naqay*

Qiltiriq, dirdov, ipiltiriq, ramaqijon so'zlarida belgi darajasi kuchli aks etadi.

Semizlik-ozg'inlik belgisini ifodalovchi oppozitsiyaning gradual ko'rsatkichlari jadvaliga e'tibor qaratamiz:

3.6- jadval

Semiz-ozg'in//полный-худой oppozitsiyasining gradual ko'rsatkichlari

Ko'rsat kichlar	O'zbekcha gradual komponentlar, ularning izohi	Ko'rsat kichlar	Ruscha gradual komponentlar, ularning izohi
+8	–	+8	<i>жирный</i> – непомерно толстый, ожиревший <i>толстомясый</i> – толстый, жирный, мясистый (о человеке и т.д.) [ССРЯ 2, – С.550]
+7	–	+7	<i>толстый</i> – большой в объёме, обширный в обхвате [ТСУ]
+6	–	+6	<i>тучный</i> – жирный, упитанный [ТСУ]
+5	<i>beo'xshov</i> – haddan tashqari	+5	<i>дородный</i> – рослый, полный, с

¹⁴⁵ <https://knijky.ru/books/mirgorod?page=7>

¹⁴⁶ <https://klassika.ru/read.html?proza/gogol/dushi.txt&page=27>

	ko'rimsiz, gavdasi, tashqi bichimi kelishmagan, beso'naqay [O'TIL I, 247-b.]		крупной фигурой [ТСУ]
+4		+4	<i>грузный</i> – тяжелоесный, неповоротливый, толстый [ТСУ]
+3	<i>beso'naqay</i> – ko'rinishi haddan, me'yordan tashqari katta, qo'pol, kelishmagan [O'TIL I, 237-b.]	+3	<i>сдобный</i> – рыхлый, пухлый, дородный (о человеке; разг. шутил.) <i>полнотелый</i> – тучный, толстый, дородный [ТСУ]
+2	<i>semiz</i> – etli, to'ladan kelgan, to'la [O'TIL III, 478-b.]	+2	<i>полнотелый</i> – тучный, толстый, дородный
+1	<i>to'la</i> – jussasi yoki biror a'zosi bo'liq, etli, semiz [O'TIL IV, 233-b.]	+1	<i>упитанный</i> – толстый, полный (от хорошего питания) [ТСУ]
0	<i>o'rtacha</i> – o'rta darajaga ega, yuqori (ortiq) ham, past ham emas [O'TIL V, 171-b.]	0	<i>полный</i> – отличающийся полнотой, умеренно толстый [ССРЯ 2, – С.550] <i>неполный</i> – не отличающийся полнотой, тучностью [Ефремова, 2000] <i>худой</i> – не толстый, неупитанный [ТСУ]
-1	<i>oriq</i> – badaniga et bitmagan, ozg'in [O'TIL III, 138-b.] <i>dirdov</i> – ozg'in, qirchang'i [O'TIL I, 625-b.]	-1	<i>исхудалый</i> – очень похудевший [ТСУ] <i>худосочный</i> – страдающий худосочием (общее истощение вследствие неправильных отправления организма, заболеваний) [ТСУ]
-2	<i>ozg'in</i> – eti qochgan, etdan tushgan, oriq [O'TIL III, 97-b.]	-2	<i>истощённый</i> – исхудалый, ослабевший, дошедший до полного истощения <i>отоцальный</i> – тощий, похудевший [Ефремова, 2000]

-3	<i>qiltiriq</i> – juda oriq [O‘TIL V, 292-b.] <i>ipiltiriq</i> – juda oriq, nimjon, qiltiriq [O‘TIL II, 223-b.]	-3	<i>тощий</i> – исхудавший и немощный, очень худой <i>отощальный</i> – сильно похудевший, тощий [ТСУ]
-4	<i>ramaqi/ramaqijon</i> – nihoyat darajada ozgan, holdan toygan, eti borib suyakka taqalgan [O‘TIL III, 346-b.]	-4	<i>костлявый</i> – очень тощий, с выдающимися под кожей костями [ССРЯ 2, – С.660]

Ushbu qator xam nosimmetrik, chunki graduonim ko‘rsatkichlarning ijobiy va salbiy xususiyatlar soni turlicha. Ijobiy ma’no kasb etuvchi gradual qatorlar birmuncha shartli, chunki ularda belgining me’yoridan ortiqligi emas, so‘zlovchining munosabati aks etgan. Insonning ortiqcha vazni graduallikning (0) *to‘la//полный* leksemasi orqali *ozg‘in//худой* birmuncha yumshoqroq bo‘yoqqa ega, *умеренно* leksemasi gradosema vazifasini bajaradi.

O‘zbek va rus tillarida ortiqcha vaznga kamchilik sifatida qaralmagan, aksincha, o‘ziga to‘qlik, farovonlik semalarini kasb etuvchi fikr hukmron bo‘lgan. Aksariyat badiiy va tarixiy asarlarda ham buning yorqin misollari aks ettirilgan. Jumladan, ba’zi asarlardagi badiiy obrazlarning semizlikka nisbatan ijobiy munosabatlari kuzatiladi. Hozirgi paytga kelib, aksariyat Yevropa madaniyati ta’sirida semizlikka nisbatan salbiy dunyoqarash shakllanib, insonning ixcham, jahon andozalariga mos tushgan vazni va bo‘yi urf bo‘ldi. Ozg‘inlik nisbatan bo‘lgan munosabat aks etgan yuqoridagi jadvalda nafaqat ozg‘inlikka munosabat, balki insonning ozg‘inlik darajasi ham o‘z ifodasini topgan. Grand-konnotatsiyaga ko‘ra, graduallik qancha yuqori bo‘lsa, ozg‘inlik ifodasi shunchalik aniq tasvirlangan. *Очень, значительный, болезненный* kabi gradosemalar orqali biz ozg‘inlikka salbiy bo‘yoq kasb etuvchi rus tilidagi ma’nolarni ifodalash imkoniga ega bo‘lamiz. Konnotativ ma’no esa salbiy xususiyatga ega, ba’zida ozg‘inlikka nisbatan ijobiy munosabat mavjud: *Дверь им открыла худенькая узкобедрая девушка, и даже печать невыносимого горя не могла скрыть её красоты.* А.Маринина. Последний рассвет.

Inson vazni o'zbek va rus milliy urf-odatlariga ko'ra ozg'inlikning boshqa turdagi ijobiy ma'nolarini kasb etishi aniqlanmadi.

Ijobiy ma'no kasb etuvchi tashqi ko'rinishni *chiroyli* → *go'zal* → *suluv* → *ko'rkam* → *zebo* → *sohibjamol* → *parivash*//*красивый* → *симпатичный* → *пригожий* → *очаровательный* → *прекрасный* → *распрекрасный* darajalanish qatorlari yordamida shakllantirish mumkin. *Chiroyli*, *go'zal*, *husndor*, *husnli*, *xushro'y*, *qo'hlik*, *ko'rkam*, *barno*, *suluv*, *zebo*, *latofatli*, *sohibjamol* – husni odatdagidan ortiq, xunukning aksini ifodalovchi leksemalar bo'lib, *chiroyli* stilistik jihatdan neytral bo'yoq kasb etadi, shaxsga, boshqa jonli va jonsiz narsalarga nisbatan ham qo'llanadi. *Go'zal* leksemasining belgi darajasi kuchli va shaxsga, jonsiz narsalarga, tabiat hodisalariga nisbatan qo'llanadi. *Husndor*, *husnli*, *suluv* so'zlari nisbatan kam ishlatiladi. *Xushro'y*, *qo'hlik*, *barno*, *suluv*, *zebo* faqat shaxsga nisbatan qo'llanadi va yoqimlilik bo'yog'iga ega. *Zebo* kitobiy uslubga xos, *ko'rkam* jonsiz narsalar, inshootlar, kam darajada shaxsga nisbatan qo'llanadi.

Tuzuk (kamchiligi, yomon yeri yo'q, durust, yaxshi, binoyi) → *durust* (yaxshi, tuzuk) → *yaxshi* (ijobiy sifatga ega, biror talabga to'liq javob beradigan, kishiga yoqadigan, ma'qul bo'ladigan) → *ajoyib* (juda ham yaxshi, ta'rifga sig'maydigan) → *chiroyli* (husni odatdagidan ortiq, go'zal, ko'rkam) → *suluv* (go'zal, chiroyli, ko'rkam) → *ko'rkam* (ko'rinishi yoqimli, chiroyli, go'zal) → *zebo* (g'oyat go'zal, barno, kelishgan) leksik paradigmalarida “belgining II, III, IV darajasi” semasi farqlovchi sema vazifasini o'taydi.

A.Hojiyev *xunuk* so'zining sinonimi sifatida *xunuk* (ko'rinishi yoqimsiz, ko'rimsiz, chiroyli emas) → *badbashara* (ko'rinishi yoqimsiz, xunuk, ko'rimsiz yuzli) → *badburush* (yuzi, basharasi burushgan) → *badqovoq* (qovog'i soliq, xo'mraygan) → *tasqara* (ko'rinishi yoqimsiz, turqi sovuq, beo'xshov, xunuk) → *bedavo* (davosi yo'q, tuzalmaydigan, ko'rimsiz ma'nosida) → *ta'viya* (yoqimsiz ko'rinishli, beo'xshov, xunuk, badburush, badbashara) → *beo'xshov* (ko'rinishi yoqimsiz, gavdasi, tashqi bichimi kelishmagan, beso'naqay, ro'dapo) → *beso'naqay* (ko'rinishi haddan, me'yordan tashqari, katta, qo'pol, kelishmagan) →

sovuq (o'ziga jalb qilmaydigan, yoqimsiz) → *badsurat* (xunuk ko'rinishli, turqi sovuq) → *nadomat* (pushaymon, o'kinch, o'kinish, afsuslanish, afsus) sinonimlar qatori keltirilgan. Ushbu so'zlarning ma'nosi *ko'rinishi yoqimsiz, chiroylining aksini anglatadi. Xunuk* kengroq tushunchaga ega, har qanday yoqimsiz ko'rinishga nisbatan qo'llanadi.

Badburush, badbashara, badqovoq so'zlari faqat *bashara (yuz)*ga nisbatan qo'llanib, ma'noni *xunuk* so'ziga nisbatan kuchli ifodalasa, *tasqara, bedavo* so'zlari umuman yoqimsiz ko'rinish ma'nosida qo'llanadi hamda ma'noni *xunuk* so'ziga nisbatan kuchli bo'yoqdorlikda ifodalaydi. *Ta'viya* asosan so'zlashuv tiliga xos. *Nadomat* leksemasiga muallif boshqa so'zlar kabi izoh keltirmagan, O'TILda ushbu mavhum so'zning ma'nosi *pushaymon, o'kinch, o'kinish, afsuslanish, afsus* [O'TIL, 3-jild, –B.8] ma'nolarini ifodalaydi.

O'zbek tilidagi ba'zi qatordagi leksemalar forscha *bad*– oldqo'shimchasi yordamida yasalgan bo'lib, *zararli, yomon* semasini ifoda etadi. Tashqi salbiy ma'no semasi atrofida terilgan qator so'zlari uslubiy jihatdan bir-biridan keskin farqlanadi, tabiiyki, kontekstdagi ma'no ham ta'sir etadi.

3.7- jadval

***Chiroyli-xunuk//красивый-некрасивый* oppozitsiyasi gradual ko'rsatkichlari**

Ko'rsat kichlar	O'zbekcha gradual komponentlar, ularning izohi	Ko'rsat kichlar	Ruscha gradual komponentlar, ularning izohi
+5	<i>hurliqo/huriliqo</i> – hur kabi go'zal, hur (go'zal) yuzli [O'TIL V, 563-b.]	+5	<i>распрекрасный</i> – очень красивый [ССРЯ 1, – С.488]
+4	<i>sohibjamol</i> – go'zal husn-jamol egasi, xushro'y, barno, zebo [O'TIL III, 564-b.]	+4	<i>прекрасный</i> – очень красивый, обладающий необыкновенной красотой [ССРЯ 1, – С.488]
+3	<i>parivash</i> – pariga o'xshash, paridek juda go'zal, xushro'y, nozanin [O'TIL III, 223-b.]	+3	<i>очаровательный</i> – восхитительный, чарующий, прелестный, очень хороший [ТСУ]
+2	<i>go'zal</i> – juda ham chiroyli,	+2	<i>пригожий</i> – красивый, с

	husndor, xushro‘y [O‘TIL I, 530-b.]		привлекательной наружностью [ТСУ]
+1	<i>istarali</i> – yuz tuzilishi, qiyofasi yoqimli [O‘TIL II, 236-b.]	+1	<i>симпатичный</i> – вызывающий симпатию к себе, приятный, привлекательный, располагающий к себе [ТСУ]
0	<i>chiroyli</i> – husni odatdagidan ortiq, go‘zal, ko‘rkam [O‘TIL IV, 493-b.]	0	<i>красивый</i> – нравящийся своим внешним видом, поражающий зрение правильностью очертаний, сочетанием тонов, соотношением линий [ТСУ]
	<i>chiroyli emas</i>		<i>некрасивый</i> – неприятный для зрения; лишённый красоты [ТСУ]
-1	<i>ko‘rimsiz</i> – ko‘rinishi yoqimli emas, savlati, ko‘rki yo‘q, xunuk [O‘TIL II, 466-b.]	-1	<i>невзрачный</i> – непривлекательный по внешности, некрасивый, непредставительный [ТСУ]
-2	<i>xunuk</i> – ko‘rinishi yoqimsiz, ko‘rimsiz, chiroyli emas [O‘TIL IV, 425-b.]	-2	<i>неприглядный</i> – не обладающий привлекательной внешностью, невзрачный, плохой [ТСУ]
-3		-3	<i>уродливый</i> – безобразный, некрасивый [ТСУ]
-4	<i>qo‘rqinchli</i> – kishini qo‘rquvga, vahimaga, dahshatga soladigan, dahshatli, vahimali [O‘TIL V, 415-b.]	-4	<i>страшный</i> – очень некрасивый [MAC 4, – С.283]
-5	<i>ayanchli</i> – alam–iztirob aks etuvchi holatli, achinish hissi uyg‘otadigan [O‘TIL I, 126-b.]	-5	<i>страховидный</i> – безобразный, страшный на вид [MAC 4, – С.283]

Qator markazida ham rus tilidagi bir o‘zakli antonimlarni *не*– prefiksi ajratib turadi, ular orasida deyarli keskin farq yo‘q, shu sababli antonimlar turli o‘zakli sifatlardan iborat. *He*– prefiksli antonimlar qatorning chekka qismida joylashgan, chunki jadvalning dastlabki sifatlari inkor ma’nosini anglatadi. Qatordagi sifatlar

integral belgisi insonning tashqi ko‘rinishida jozibalilik mavjudligi/mavjud emasligini ifoda etadi. Jadvaldagi sifatlarning ijobiy semaga ega bo‘lgan qismidagi ijobiy elementlar badiiy asarlar va og‘zaki nutqda ko‘proq uchraydi.

O‘zbek va rus xalqlari kuchning ijobiy ma’no bo‘yoqlarini juda yuqori baholagan, shu sababli ham turli oila tillariga mansub o‘zbek va rus tillarida ushbu mazmundagi birliklar ko‘p. O‘zbek tilida *kuchli* semasining sinonimik qatorlarini *baquvvat*, *zabardast* leksemalari hosil qilib, kuch-quvvati normal darajadan ortiqlik/yuqorilikka ishora qilinadi. *Baquvvat* ma’noni kuchliroq ifodalab, jonli narsalarga nisbatan qo‘llansa, keksalarga nisbatan qo‘llanganida kuch-quvvat ortiqligi, kuchliligini emas, balki normal darajasini ifodalashi kuzatiladi. *Zabardast* leksemasida belgi darajasi yanada kuchliligini anglatadi.

Lug‘atdagi *kuchsiz*, *bequvvat*, *kamquvvat*, *zaif*, *nimjon*, *ojiz* – kuch, quvvati oz, yetarli emas, jismoniy qobiliyati past ma’nosini ifodalovchi sinonimik qatordagi *kuchsiz*, *bequvvat* leksemalari normal holatdan past belgini, *zaif*, *nimjon*, *ojiz* leksemalari *kuchsiz*, *bequvvat* leksemalaridan ham past belgini anglatishi kuzatiladi. Ularga qo‘shimcha ravishda biz shakllantirgan jadvalda boshqa leksemalar ham o‘rin olgan va imkon qadar o‘zbek tilidagi leksemalar ma’no jihatidan kuch-quvvatga oid semani ifodalashga xizmat qiladi.

Nafaqat rus xalqi, balki boshqa xalqlarda ham *kuchli-kuchsiz//сильный – слабый* sifatlariga xos etnomadaniy xususiyatlar kuzatiladi, *kuchli* ijobiy bo‘yoqli ma’noning *kuchsiz* negativ ma’noga zidlanishida aks etadi. Shaxsning kuchli-kuchsizligi u yoki bu shaxsga nisbatan turli ko‘rinishda baholanishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. *Kuchli* dominanta so‘zining ma’nosi izohli hamda sinonimlar lug‘atlari yordamida jadvalga shakllantirildi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilida *normal darajadan ortiq (yuqori)*, *oz, yetarli emas*, rus tilida *очень* hamda *усилительный характер* birikmalari gradosemani tashkil etadi.

3.8- jadval

***Kuchli-kuchsiz//сильный-слабый* oppozitsiyasi gradual ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsat	O‘zbek tilidagi gradual	Ko‘rsat	Rus tilidagi gradual komponentlar
---------	-------------------------	---------	-----------------------------------

kichlar	komponentlar	kichlar	
+4	<i>zabardast</i> – jismoniy jihatdan baquvvat, kuchli, qudratli [O‘TIL II, 120-b.]	+4	<i>здоровущий/здоровенный</i> – очень большой, крепкого сложения, высокого роста [Ефремова, 2000],
+3	<i>azamat</i> – jismonan yetuk, zabardast [O‘TIL I, 48-b.]	+3	<i>здоровый</i> – очень крепкий и сильный [ТСУ]
+2	<i>qudratli</i> – kuch-qudratga ega [O‘TIL V, 364-b.]	+2	<i>дюжий</i> – сильный, крупного телосложения [ТСУ]
+1	<i>quvvatli</i> – quvvati me’yordagiga nisbatan ortiq, kuchli, baquvvat [O‘TIL V, 360-b.] <i>baquvvat</i> – kuch-quvvati normal darajadan ortiq, zo‘r jismoniy kuchga ega bo‘lgan, kuchga to‘la, kuchli [O‘TIL I, 189-b.]	+1	<i>могучий/мощный</i> – обладающий очень большой физической силой, обычно при крупном сложении, высоком росте [ССРЯ 2, – С.418]
0	<i>kuchli</i> – jismoniy qobiliyati, kuch-quvvati nisbatan ortiq, baquvvat [O‘TIL III, 441-b.]	0	<i>сильный</i> – обладающий физической силой [ССРЯ 2, – С.418]
	<i>kuchsiz</i> – jismoniy qobiliyati past, kuch-quvvati nisbatan oz, zaif <i>nimjon</i> – kuch-quvvati kam, zaif, nozik [O‘TIL III, 39-b.]		<i>слабый</i> – недостаточно сильный физически, испытывающий упадок физических сил [ССРЯ 2, – С.431]
	<i>kuchli emas</i>		<i>несильный</i> – отличающийся небольшой силой; довольно слабый [ССРЯ 2, – С.431]
-1	<i>zaif</i> – jismonan quvvati kam, bequvvat, nimjon, kuchsiz [O‘TIL II, 123-b.]	-1	<i>слабосильный</i> – недостаточно сильный, слабый [ТСУ]
-2	<i>kamquvvat</i> – kuch-quvvati me’yordan kam, quvvati oz [O‘TIL II, 313-b.]	-2	<i>малосильный</i> – обладающий небольшой, недостаточной физической силой; слабосильный [Ефремова, 2000]

-3	<p><i>bedarmon</i> – darmoni, madori yo‘q, quvvatsiz, holsiz, zaif [O‘TIL I, 206-b.]</p> <p><i>darmonsiz</i> – kuch-quvvati ketgan, horg‘in, kuchsiz [O‘TIL I, 567-b.]</p> <p><i>bemajol</i> – majoli, kuchi, darmoni kam, holdan toygan, kuchsiz [O‘TIL I, 567-b.]</p> <p><i>madorsiz/majolsiz</i> – madori/majoli yo‘q, quvvatsiz, kuchsiz, bemajol, holsiz/behol [O‘TIL II, 521-b.]</p>	-3	<p><i>маломощный</i> – физически слабый; малосильный [Ефремова, 2000] 1</p>
-4	<p><i>ojiz</i> – jismoniy jihatdan kuchsiz, zaif, bequvvat [O‘TIL III, 92-b.]</p>	-4	<p><i>бессильный</i> – не имеющий сил, слабый [ССРЯ 2, – С.431]</p>
-5	<p><i>quvvatsiz</i> – kuchsiz, kuch-quvvati, darmoni yo‘q, kuch-quvvati me‘yordagidan (nisbatan) kam, kamquvvat [O‘TIL V, 360-b.]</p> <p><i>bequvvat</i> – quvvati, darmoni oz, holsiz, nimjon, zaif [O‘TIL I, 248-b.]</p> <p><i>notavon</i> – hol-qudrati yo‘q, zaif, nimjon, nogiron [O‘TIL III, 62-b.]</p>	-5	<p><i>немошный</i> – очень слабый, бессильный и болезненный на вид (от старости, болезни и т.п.) [ТСУ]</p>

Ushbu tematik guruh nosimmetrik, chunki rus tilidagi so‘zlarning aksariyati og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan leksemalar va *не-* prefiksli birliklardan iborat.

O‘ziga oro berish, zeb-ziynat, kiyinish uslubi, ko‘zga tashlanadigan libosiga ko‘ra sinonimlar lug‘atida keltirilgan *olifta, fason (poson), bashang, po‘rim (forum), satang* – kiyim va bezakka zo‘r beruvchi, o‘ziga zeb berish semantikasiga ega bo‘lib, *bashang* so‘zidagi belgi darajasi kuchliligi, *po‘rim* oddiy so‘zlashuvga

oidligi, *satang* salbiy bo‘yoqqa egaligi bilan ajralib turadi. Rus tilida ham shu semantikaga ega leksemalar ijobiy/salbiy bo‘yoqdorligiga ko‘ra nosimmetrik joylashgan, o‘zbek tilidagi *bashang* leksemasiga mos ravishda rus tili sinonimlari lug‘atida *щёголь*, *пижон* so‘zlarini keltirdik, biroq, *пижон* so‘zining polyak tilidan olinganligi tildagi o‘zlashgan so‘zlar mavjudligidan darak beradi. *Хлыщ* leksemasining semantikasi salbiy, nafaqat kiyinish va oro berish ma’nolari, balki yengiltabiatlik xususiyatiga ham ishora mavjud.

3.9- jadval

Olifta//модный oppozitsiyasining gradual ko‘rsatkichlari

Ko‘rsat kichlar	O‘zbek tilidagi gradual komponentlar	Ko‘rsat kichlar	Rus tilidagi gradual komponentlar
+2	<i>bashang</i> – yasangan-tusangan, nihoyatda chiroyli, ko‘rkam, olifta [O‘TIL I, 184-b.]	+2	<i>щёголь</i> – нарядно одетый, имеющий пристрастие к дорогим, изысканным нарядам [ТСУ] <i>пижон</i> – молодой человек вылощенно-франтовского вида [ТСУ]
+1	<i>fason/poson</i> – <i>bashang</i> bo‘lib yuradigan, olifta [O‘TIL IV, 334-b.] <i>po‘rim</i> – <i>bashang</i> , olifta [O‘TIL III, 329-b.]	+1	<i>стиляга</i> – в определенном стиле [ТСУ] <i>франт</i> – нарядно одетый человек, щёголь, модник [ТСУ]
0	<i>olifta</i> – kiyimga va o‘ziga zeb beruvchi, <i>satang</i> , <i>bashang</i> [O‘TIL III, 114-b.]	0	<i>модник</i> – слепо следующий во всем за модой, старающийся ни в чем не погрешить против моды [ТСУ]
-1	<i>satang</i> – pardoiz-andozga, kiyinishga zeb bergan, olifta, <i>bashang</i> [O‘TIL III, 459-b.]	-1	<i>хлыщ</i> – франтоватый, легкомысленный молодой человек, фат, щёголь [ТСУ]

Endi insonning tashqi ko‘rinishidagi boshqa a’zolar borasida ham to‘xtalsak: *ingichka labli* → *o‘rtacha qalinlikdagi lab* → *qalin labli//тонкие губы* → *средние губы* → *пухлые губы*;

kichik quloq → o'rtacha quloq → katta quloq (shalpangquloq)//маленькие уши → средние уши → большие уши (лопоухий);

och rangli → bug'doy rangli → qora rangli//блондин → шатен → брюнет

uzun sochli → kalta sochli → kal//длинноволосый → коротковолосый → лысый;

nozik → nozikkina → qo'rolgina → qo'rol//нежная → нежненькая → грубоватая → грубая;

tuzuk → durust → yaxshi → ajoyib → chiroyli → suluvi → ko'rkam → zebo//приличный → милый → хороший → красивый → великолепный → несравненный leksik paradigmalarida “belgining I, II, III, IV darajasi” semasi farqlovchi sema vazifasini o'taydi.

Tadqiqot jarayonida o'zbek tilidagi gradual munosabatiga kirishuvchi so'zlar tematik guruhlarning soni 2 uzvdan 9 uzvgacha ekanligi, 3 uzvdan iborat qatorlarda ko'pincha “o'rta” so'zining mavjudligi, ijobiylik va salbiylik belgilariga ko'ra farqlanishda ularning soni simmetrik yoki nosimmetrik bo'lishi, gradosema daraja va o'lchovning umumiy semasi, u o'zgaruvchan xususiyatga ega ekanligi, iyerarxik munosabatga qaraganda graduonimiya hodisasining ko'lami juda kengligi kuzatilgan. Nosimmetrik guruhlarni rus tilidagi *не-* prefiksli sifatlar tashkil etishi ma'lum bo'ldi.

Guvohi bo'lganimizdek, o'zbek tilshunosligida graduonimiya hodisasini o'rganish borasida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda, samarali ilmiy izlanishlar natijasida mukammal darajalanish qatorlari ishlab chiqilishi, ularning milliy korpusda aks ettirilishi, o'zbek tilining mavqeyini oshirish, jahonga tanitish, bebaho durdonalarning asl ma'nosini yo'qotmagan holda tarjima qilinishi orqali matnlar ta'sirchanligi, jozibasi saqlanib qolishiga asos bo'lib xizmat qilishi lozim.

3.2-§. O'zbek va rus tillarida shaxs fe'l-atvoriga oid lug'aviy graduonimiya

O'zbek va rus xalqi juda qadimdan axloq-odob masalalariga katta e'tibor

bergan, ularning tag zamirida jamiyat axloq-odob me'yorlarining asosi hisoblangan diniy ta'limot yotadi. Diniy ta'limot jamiyat axloqiy qoidalarini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ijobiy xulq egalari rag'batlantiriladi, namuna sifatida e'tirof etiladi, aks holatlarda esa tanqid qilinadi.

Axloqli-axloqsizligining darajasini belgilashda faqatgina axloq doirasidagi sifatlarni kiritishimiz bois, ularning tor doirasiga zid ravishda boshqa lug'atlardagi qatorlarning sifatlari ko'pligi ularni keskin axloq doirasida chegaralanishini taqozo etadi. “*Безгрешный, непогрешимый, святой, непорочный*” qatorida ijobiy jihatlarning doirasi, “*безнравственный, беспутный, распутный, развратный, распущенный, грешный, греховный, порочный, непотребный, животный, дурной, грязный, непристойный, неблагопристойный, неприличный, скоромный, срамный, цинический, скабресный, порнографический, сальный, бесстыжий, рискованный, щекотливый*”¹⁴⁷ kabi salbiy ma'nodagi gradual qator ham kuzatiladi. *Усилительный, высокий, высоконравственный, преисполненный, не только ..., но и, крайне, полный* kabi gradosemalarining o'rni beqiyos. *Axloqli-axloqsiz* sifatlarining darajalarini alohida ajratish va ko'lam jihatidan boshqa semani ham anglatuvchi so'zlar hisobiga gradual qator sifatlarini kengaytirmaslik zarur, deb hisoblaymiz.

Insonning aqliy qobiliyatlari, intellektini baholashda ham graduonimiya kuzatiladi, ular *aqlli-ahmoq//умный-глупый* antonimik munosabatdagi sifati paradigmalarini tashkil etadi. *Aql, intellekt* so'zlari atrofidagi gradual ko'rsatkichlar sinonimik qatorida yetakchilik qiladi.

Rus tilidagi so'zlar qatoridagi *бессмысленный, идиотский, идиотический* sinonimik qator sifatlari intensivlikning ortib borishi natijasidagi graduonimiyani namoyon etadi. Sifatlar birin-ketin intensivlikning miqdorini ko'rsatadi: birinchi sifatdan ikkinchi sifatning, ikkinchi sifatdan uchinchi sifat ma'nosining intensivligi ortiq. Aqliy qobiliyatlarning kamayib borishini aks ettiruvchi sinonimik qatorlar xilma-xilligiga oppozitsiyada turuvchi aqliy qobiliyatlarning ortib boruvchi sifatlari

¹⁴⁷ Словарь лингвистических терминов / Под ред. Ахмановой О.С. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.

qatori kiradi. *Бестолковый* sifati *глуповатый* sifatiga qaraganda salbiy ma'noni ko'proq anglatadi. Jadvalga asosan, insonning aqliy qobiliyatlari ko'rsatkichlari grand-belgilari (“-”, “+”) markazdan chekka tomonga qarab aqliy qobiliyatlar ortishi/kamayishi simmetrik ravishda o'rin egallagan. Asosan, *не-* prefiksi bu qatorning simmetrikligini ta'minlashga xizmat qilgan: *высокомудрый – премудрый – башковитый – заумный – неглупый – мыслящий – вдумчивый, сообразительный – толковый – умный – среднего ума – глупый – неразумный – глуповатый, бестолковый – пустоголовый – дурной – скудоумный – тупой – тупоголовый – глупейший – архиглупый.*

Insonga oid ma'lumot va xususiyatlarni bildiruvchi sifatlarni ham graduonimiya hodisasining yorqin misoli: *yolg'onchi → uydirgachi → aldoqchi → tuhmatchi → bo'htonchi//лжец → обманщик → галиматейщик → шарлатан → дезинформатор.*

Yaxshi kayfiyat, kayfi xush, kayfi chog' kabi shaxsning fe'l-atvoriga oid so'z birikmalari turli darajalardagi denotativ tabiatga ega. *Kayfi chog'* hamda *kayfi xush* so'z birikmalarining ma'nosi *yaxshi kayfiyat* birikmasiga yaqin, biroq o'ziga xos keskin farq mavjud, chunki *kayfi chog'* so'z birikmasida uslubiy ma'no bo'yog'i ortiqroqdir.

Shaxs xarakterlarini ifodalashda takrorlashlar ham belgining ortiq darajasiga ishora etib, o'ziga xos ma'no darajalarini ifodalaydi: *Halima yonginamda o'tirib olib, o'tlardan “ajina kavush” to'qir, uzun-uzun barmoqlarining shunchalik harakat qilishiga hayron qolardim.* O'tkir Hoshimov. Hurkitilgan tush.

Insonning ruhiy holatini aks ettirishda ham o'zbek va rus tillarida graduonimiya hodisasi kuzatiladi. Ularning aksariyatini iroda bilan bog'liq so'zlar tashkil etadi: bu kabi so'zlarning zamirida o'zbek va rus tili egalarining qadim-qadimdan mavjud lingvomadaniy yo'nalishga ega bo'lib, oppozitsiyalarning har biri alohida bir sinonimik qator hosil qiladi.

O'zbek va rus tillarida shaxs fe'l-atvorini ifoda etuvchi sifatlarni har bir til millatining o'ziga xos mentaliteti, dunyoqarashini o'zida mujassam etadi, ularning

qiyoslanishi natijasida ma'lum xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi, zero, fe'l-ator, axloqiy fazilat va illatlar til egalarining dunyoqarashi va lingvomadaniy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Masalan, rahmdillikni anglatadigan sifatlar o'zi bilan ma'nodosh so'zlar zamirida ham axloqiy fazilatlar yotishini aks ettiradi. Tabiiyki, ushbu leksemaning paradigmalari shakllanishiga mos ravishda oppozitsiya kuzatiladi: *mehribon- jahldor//добрый-злой* kabi. Bu oppozitsiyaning shakllanishini quyidagi gradual ko'rsatkichlar yordamida izohlashni lozim topdik:

3.10- jadval

Mehribon- jahldor//добрый-злой oppozitsiyasining gradual ko'rsatkichlari

Ko'rsat kichlar	O'zbekcha gradual komponentlar, ularning izohi	Ko'rsat kichlar	Ruscha gradual komponentlar, ularning izohi
+4	<i>samimiy</i> – samimiyat bilan ish tutuvchi, sofko'ngil, pok, toza [O'TIL III, 434-b.]	+4	<i>душевный</i> – подчёркивают теплоту, чуткость к окружающим) [ССРЯ 1 (bu va keyingi o'rinlarda: Словарь синонимов русского языка: 1-том. Под ред. А.Евгеньевой. – М., 2003. – muallif izohi), – С.289]
+3	<i>marhamatli</i> – rahm-shafqat qiluvchi, himmat, iltifot ko'rsatuvchi [O'TIL II, 449-b.]	+3	<i>добросердечный</i> – не только расположенный к кому-либо, но и отзывчивый [ССРЯ 1, – С.288]
+2	<i>ko'ngilchan</i> – rahmli, rahmdil [O'TIL II, 461-b.]	+2	<i>сердечный</i> – преисполненный задушевности, доброжелательства [Ефремова, 2000]
+1	<i>sofdil</i> – ko'nglida kiri, girdi yo'q, dili, qalbi pok, sof [O'TIL III, 555-b.]	+1	<i>доброжелательный</i> – проявляющий дружеское расположение, приязнь [ТСУ]
0	<i>mehribon</i> – mehr-shafqat ko'rsatuvchi [O'TIL II, 588-b.]	0	<i>добрый</i> – расположенный к людям, готовый прийти на помощь [ССРЯ 1, – С.288]

	<p><i>rahmdil</i> – birovga ozor bermaydigan, ko‘ngli yumshoq, rahmli, shafqatli</p> <p><i>rahmli</i> – birovga rahm qiladigan, ko‘ngli yumshoq, rahmdil</p> <p><i>rahmon</i> – rahm qiluvchi, shafqatli [O‘TIL III, 364-b.]</p>		<p><i>незлой</i> – не склонный к злобе; добрый [Ефремова, 2000]</p>
	<p><i>rahmsiz</i> – rahm-shafqatni bilmaydigan, shafqatsiz [O‘TIL III, 364-b.]</p>		<p><i>недобрый</i> – враждебно настроенный, недружелюбный [ТСУ]</p>
	<p><i>jahldor/jahlli</i> – serjahl, achchig‘i tez [O‘TIL II, 78-b.]</p>		<p><i>злой</i> – охваченный, проникнутый злом [ТСУ]</p>
-1	<p><i>berahm</i> – rahm-shafqatni bilmaydigan, rahmi yo‘q, qahri qattiq [O‘TIL I, 233-b.]</p>	-1	<p><i>недоброжелательный</i> – неприязненно настроенный к другим, проявляющий вражду [ТСУ]</p>
-2	<p><i>yovuz</i> – o‘taketgan yirtqich, ashaddiy [O‘TIL II, 24-b.]</p> <p><i>battol</i> – o‘taketgan yovuz, berahm, vahshiy [O‘TIL I, 177-b.]</p> <p><i>badjahl</i> – achchig‘i tez, jahli yomon [O‘TIL I, 134-b.]</p> <p><i>qahrli</i> – qahru g‘azabga to‘la, qahr-g‘azab ifodalovchi, g‘azabli [O‘TIL V, 272-b.]</p> <p><i>g‘azabli/g‘azabnok</i> – g‘azabga to‘lgan, g‘azab ifodalovchi [O‘TIL V, 427-b.]</p> <p><i>darg‘azab</i> – g‘azabi kelgan, ortiq darajada g‘azablangan [O‘TIL I, 569-b.]</p>	-2	<p><i>злобный</i> – высокая степень враждебного раздражения против кого-либо со стремлением причинить другому страдания, неприятности и т.д. [ССРЯ 1, – С.402]</p>

-3	<i>zolim</i> – rahm-shafqatni bilmaydigan, <i>berahm</i> [O‘TIL II, 159-b.]	-3	<i>адский</i> – указание на проявление самой высокой степени злобы [ССРЯ 1, – С.402]
----	---	----	--

O‘zbek tilida ushbu gradual qator ko‘rsatkichlari asosida *rahmdil- jahldor* gradual qatori shakllantirildi.

Sofko ‘ngil leksemasi nutqda ishlatilishiga qaramay, O‘TILda uchramaydi, vaholanki, u *sof* va *ko ‘ngil* so‘zlari yordamida hosil qilingan. *Sof* – arabcha so‘z bo‘lib, beg‘ubor, toza, musaffo, *ko ‘ngil* – yurak, qalb, dil ma‘nolarini anglatadi, qo‘shma *sofko ‘ngil* so‘zi *beg ‘ubor ko ‘ngil, toza dil, toza qalb*, deya talqin etiladi.

Samimiy, rahmdil, marhamatli, mehribon, munis, ko ‘ngilchan, sofko ‘ngil, rahmli, rahmsiz, jahldor, berahm, zolim, yovuz, battol, badjahl, jaholatli, qahrli, g‘azabnok, darg‘azab, g‘azabli leksemalarini to‘pladik. *Samimiy, rahmdil, marhamatli, mehribon, munis, ko ‘ngilchan, sofko ‘ngil, rahmli* paradigmasida *samimiy, rahmdil, rahmli, sofko ‘ngil, munis, mehribon, marhamatli, ko ‘ngilchan* qatori uchramadi.

Rahmsiz, jahldor, berahm, zolim, yovuz, battol, badjahl, jaholatli, qahrli, g‘azabnok, darg‘azab, g‘azabli leksemalari rahm-shafqati yo‘q, qahri qattiq ma‘nolarini beradi. Bu sinonimlar sirasidan *qahrli* leksemasi belgi darajasining kuchliligini ifodalasa, *shafqatsiz* so‘zida belgi darajasi *qahrli* so‘zidan ko‘ra kuchliroq, bundan-da kuchli belgi darajasi esa *zolim* leksemasida kuzatildi. *Battol, badjahl, berahm, darg‘azab, zolim, yovuz, jaholatli, g‘azabnok* so‘zlari uchramadi.

Jahl, g‘azab, qahr, zarda leksemalari nojo‘ya (nomaqbul) xatti-harakatga yoki voqea-hodisaga qarshi kuchli darajada qo‘zg‘algan his-tuyg‘u va shunday his-tuyg‘uning ifodasi, deya ta‘riflanadi. *G‘azab, qahr* leksemalarida belgi darajasi kuchli, *zarda* nojo‘ya, yoqmaydigan xatti-harakatga javob tarzida ifoda etilgan jahlni bildiradi.

Berahm – rahm-shafqatni bilmaydigan, rahmi yo‘q, qahri qattiq semasini ifodalab, *be*– forscha inkor old qo‘shimchasini oladi.

Darg‘azab – ortiq darajada g‘azablangan semasini ifodalab, hosil

bo'lishidagi *dar*– old qo'shimchasining kelib chiqishi O'TILda izohlanmagan. *G'azabnok* – g'azabli, g'azabdor semasiga ega bo'lib, *–nok* affiksi haqida ma'lumot O'TILda aniqlanmadi. Ushbu so'zga oid mavzu guruhleri rus tilida quyidagicha: *добрый* – “делающий добро другим; благожелательный, отзывчивый, обладающий мягким характером”; *злой* – “охваченный, проникнутый злом”.

Markazdagi so'zlarning gradual semantikasi turlicha, masalan, *добрый* so'zining semantikasi birmuncha kamroq darajada, *злой* leksemasining semantikasi esa birmuncha ortiqroq darajada ifodalangan. *Добрый* sifatining lug'aviy definitsiyasi (talqini) *злой* sifatiga qaraganda ko'zga tashlanmaydi, ikkinchi sifatda esa aksincha: “охваченный, проникнутый злом” gradosemasi tufayli belgining yuqori darajada namoyon bo'lishini aks ettiradi. (0) nuqtasi, ya'ni markazda *незлой* va *недобрый* oppozitsiya munosabatlaridagi antonim juftlik, ya'ni *злой*, *добрый* sifatlariga prefiks qo'shilishi natijasida hosil qilingan, bu esa belgining mavjud emasligini anglatadi. Gradosemani *душевный* (подчёркивает теплоту и чуткость, проявляемую к окружающим), *адский* (указание на проявление самой высокой степени злобы) so'zlari izohlaridan topish mumkin.

Graduonim komponentli so'zlarning sinonim qatorlari quyidagicha: *добрый, добросердечный, сердечный, душевный; злой, злобный, недобрый, недоброжелательный, злой, недобрый, злобный, адский*. Bundan ko'rinib turibdiki, *недобрый* sifati mavjud, *незлой* sifati mavjud emas. Bunga sabab: ba'zi mualliflar *не*– prefiksi qo'shiladigan so'zlarni doim ham o'z lug'atlariga kiritishmagan, sinonimik qatorlar ham shular jumlasidandir. Biroq biz ularni gradual qator tuzishda kiritishni o'rinli, deb hisoblaymiz, negaki *не*– prefiksi zamirida inkor etish semasi ifodalanadi. Bu esa markaz nuqtadagi so'zga nisbatan miqdor/belgi jihatidan ma'lum ma'noni ifodalash imkonini beradi.

Ba'zi sifatlar zamirida yashirin graduonimiya hodisasiga oid xususiyatlar semantik jihatdan bir-biridan farqlanishi mumkin, masalan:

a) “*бесчувственный, нечуткий, равнодушный, холодный,*

толстокожий, твердокожий”;

b) “*бездушный, чёрствый, сухой, холодный, неотзывчивый, нечуткий*”;

d) “*безжалостный, бессердечный, бездушный, жестокий, жестокосердный*”.

Birinchi qatorda *добрый* (*лишённый каких-либо чувств, преимущественно добрый*) belgisining ustuvorligi, ikkinchi qatorda esa (*такой, которого не трогают или мало трогают радости и горести других, такой, который не способен горячо отдаться какому-либо чувству, доброму побуждению*), ya’ni shaxsning befarqligi, shu bilan bir qatorda boshqalarga nisbatan salbiy harakatlar bajarmaydigan xususiyatlari kuzatildi. Yuqoridagi qatorlarning ikkitasida uchraydigan *бездушный* sifati qatorlardagi o‘zaro yaqinlikni aks ettiradi. Biroq uchinchi qator sinonimlari, garchi semantik nuqtayi nazardan birinchi va ikkinchi qatorlar o‘xshash bo‘lsa-da, faollikning mavjudligini aks ettiradi: *сам причиняющий страдания другим*. Semantik farqlariga ikkinchi qator ba’zi so‘zlaridagi antonimlarning mavjudligini namoyon etadi: *чуткий, отзывчивый*. Bu hol uchinchi qatorda kuzatilmadi. Ikkinchi qator sinonimlaridagi graduonimiya munosabati yaqqol ko‘zga tashlanadi, zero, belgi intensiv jihatdan kuchliroq bo‘lib, *очень* gradosemasi ham mavjuddir. Uchinchi qatorda esa “максимально” so‘zi ham intensivlikning kuchliligiga ishora qiladi.

3.11- jadval

***Jasur-qo‘rqoq//смелый-трусливый* oppozitsiyasining gradual ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsat kichlar	O‘zbekcha gradual komponentlar, ularning izohi	Ko‘rsat kichlar	Ruscha gradual komponentlar, ularning izohi
+5		+5	<i>неустршимый</i> – такой, которого ничто не утрашит [ССРЯ 2, – С.438]
+4		+4	<i>бесстрашный</i> – не знающий страха, чрезвычайно смелый [ССРЯ 2, – С.438]
+3	<i>dovuyurak</i>	+3	<i>безбоязненный</i> – знающий страха,

			чрезвычайно смелый [ССРЯ 2, – С.438]
+2	<i>mard</i> – qo‘rqmas, botir, jasur [O‘TIL II, 542-b.]	+2	<i>отважный</i> – очень смелый, готовый к поступкам, требующим бесстрашия, мужества [ССРЯ 2, – С.438]
+1	<i>jasur/jasoratli</i> – xavf-xatar, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, dovyurak [O‘TIL II, 75-b.]	+1	<i>храбрый</i> – человек активно смелый, не боящегося опасности, идущего навстречу ей [ССРЯ 2, – С.438]
0	<i>botir</i> – xavf-xatar, qiinchilikdan qo‘rqmaydi, jasur, qo‘rqmas, dovyurak [O‘TIL I, 328-b.]	0	<i>смелый</i> – отважный, решительный, не боящийся затруднений, опасностей, препятствий [ТСУ]
	<i>jasur emas</i>		<i>несмелый</i> – не отличающийся смелостью; довольно робкий [Ефремова, 2000]
	<i>qo‘rqoq</i> – har narsadan qo‘rqaveradigan, yuragi yo‘q, yuraksiz [O‘TIL V, 416-b.]		<i>трусливый</i> – легко поддающийся чувству страха, боязливый, робкий [ТСУ]
-1	<i>qo‘rqoqroq</i>	-1	<i>боязливый</i> – такой, который всего боится, всего опасается [ССРЯ 1, 88-с.]
-2		-2	<i>пугливый</i> – особенно легко поддающийся чувству страха [ССРЯ 1, – С.88]
-3		-3	<i>трусоватый</i> – в некоторой, в определённой степени трусливый [Ефремова, 2000]
-4		-4	<i>малодушный</i> – отступающий перед опасностью, перед необходимостью борьбы за отсутствие стойкости [ССРЯ 1, – С.88]

-5	<i>irodasiz</i> – irodasi yo‘q, irodasi sust, bardoshsiz [O‘TIL II, 225-b.]	-5	<i>робкий</i> – крайне нерешительный, отступающий перед малейшей опасностью [ССРЯ 1, – С.88]
----	---	----	--

Botir, jasur, dovyurak, qo‘rqmas, shijoatli, mard, yovqur – yurak-shijoati zo‘r, yurak-shijoat bilan harakat qiladigan. *Botir, mard, shijoatli* so‘zlarida qaytmaslik, shijoat belgilari birlashgan. *Mard* so‘zida tantilik bo‘yog‘i, *jasur, dovyurak, qo‘rqmas* so‘zlarida qo‘rqmaslik belgisi asosiy o‘rinda. *Jasur* ko‘proq kitobiy uslubga xos bo‘lsa, *yovqur* umuman qo‘llanmaydi.

Bu qatorda ham *ne-* prefiksi gradual birliklar gradosemasi, u barcha graduonim komponentlarning simmetriyasini ta‘minlashga xizmat qiladi. Qatorda ham o‘zaro oppozitsiyaga kirishuvchi antonim juftliklar aniqlandi, bunda o‘zbek tilidagi sifatlar ustunligi ko‘zga tashlanadi, chunki har bir leksema alohida ma‘no kasb etuvchi semaga ega bo‘lib, bu vaziyatda rus tilidagi *ne-* prefiksiga monand ravishda o‘zbek tilidagi *no-*, *be-* kabi prefikslar bilan hosil qilinishi ham mumkin. Insonning hissiy holatlari ham ruhiy ko‘rinishini ifodalashga xizmat qiladi.

3.12- jadval

Ko‘ngilchan-berahm//отзывчивый-безддушный oppozitsiyasining gradual ko‘rsatkichlari

Ko‘rsat kichlar	O‘zbekcha gradual komponentlar, ularning izohi	Ko‘rsat kichlar	Ruscha gradual komponentlar, ularning izohi
+4	<i>rahmdil</i> – birovga ozor bermaydigan, ko‘ngli yumshoq, rahmli, shafqatli <i>rahmli</i> – birovga rahm qiladigan, ko‘ngli yumshoq, rahmdil <i>rahmon</i> – rahm qiluvchi, shafqatli [O‘TIL III, 364-b.]	+4	<i>участливый</i> – подчёркивает не только сердечность отношения к окружающим, но и готовность прийти им на помощь [ССРЯ 2, – С.682]
+3	<i>kuyinchak</i> – har narsaga ham achinaveradigan, qayg‘uraveradigan, kuyib-	+3	<i>сострадательный</i> – способный, склонный к состраданию, исполненный сострадания [ТСУ]

	tashvishlanaveradigan, astoydil g'amxo'rlik qiladigan [O'TIL II, 422-b.]		
+2	<i>dildor</i> – dilni o'zga tortuvchi, ko'ngilga xush yoqadigan, yoqimli, mehribon [O'TIL I, 614-b.] <i>yumshoq</i> – bировга qattiq gapirmaydigan, muloyim [O'TIL V, 85-b.]	+2	<i>чуткий</i> – проявляющий сердечное отношение, сострадание, внимание к окружающим [ССРЯ 2, – С.682]
+1	<i>ziyrak</i> – tez fahmlaydigan, fahmi tez, sezgir [O'TIL II, 149-b.] <i>sinchkov</i> – sinchiklab, zo'r e'tibor bilan qarashga, tekshirishga odatlangan, hech narsani nazar-e'tibordan chetda qoldirmaydigan [O'TIL III, 517-b.]	+1	<i>внимательный</i> – проявляющий внимание, заботу по отношению к кому-либо [ССРЯ 2, – С.682]
0	<i>ko'ngilchan</i> – rahmli, rahmdil [O'TIL II, 461-b.]	0	<i>отзывчивый</i> – сочувственно относящийся к другим, готовый помочь [ТСУ]
	<i>hushyor</i> – tevarak-atrofga, yon-veridagi hodisalarga sezgirlik bilan ko'z-quloq bo'lib turuvchi, sergak [O'TIL V, 567-b.],		<i>неотзывчивый</i> – относящийся к другим без отзывчивости, сочувствия [Ефремова, 2000]
	<i>berahm</i> – rahm-shafqatni bilmaydigan, rahmi yo'q, qahri qattiq [O'TIL I, 233-b.]		<i>бездушный</i> – такой, которого ничто не трогает [ССРЯ 1, – С.47]
-1	<i>rahmsiz</i> – rahm-shafqatni bilmaydigan, shafqatsiz [O'TIL III, 364-b.] <i>berahm</i> – rahm-shafqatni	-1	<i>безжалостный</i> – не чувствующий и не проявляющий жалости к страданиям и горю других [ССРЯ 1, – С.47]

	bilmaydigan, rahmi yo‘q, qahri qattiq [O‘TIL I, 233-b.]		
-2	<i>shafqatsiz/beshafqat</i> – rahm-shafqati yo‘q, rahmsiz [O‘TIL IV, 556-b.]	-2	<i>бессердечный</i> – лишённый душевной мягкости, отзывчивости [ССРЯ 1, – С.47]
	<i>qahrli</i> – qahru g‘azabga to‘la, qahr-g‘azab ifodalovchi, g‘azabli [O‘TIL V, 272-b.]	-3	<i>жестокый</i> – крайне суровый и грубый, беспощадный, бессердечный, безжалостный [ТСУ]
-3	<i>bag‘ritosh</i> – berahm, shafqatsiz [O‘TIL I, 192-b.]	-4	<i>жестокосердный</i> – исполненный жестокосердия, безжалостный [ТСУ]

Sifatlarning belgi xususiyatlariga oid lug‘atlar izohi “-” va “+”da ifodasini topadi, ularning farqlari leksemalar orqali belgilanadi. Ba’zi hollarda yuqoridagi sifatlarni ot turkumiga aylantirgan holda qiyoslash ham mumkin, bunda biz ko‘rib chiqqan jadval asosidagi *не-* prefiksli so‘zlar nosimmetrik, chunki bunday so‘z faqat bitta, *бездушный* sifatidan *не-* prefiksli sifat yasalishi mumkin emas.

Yumshoq – oson eziladigan, qattiqning aksi (to‘g‘ri va ko‘chma ma’noda) bo‘lsa, *muloyim* leksemasida “yoqimlilik” bo‘yog‘i mavjud, unga qaraganda *yumshoq* leksemasi neytral va qo‘llanish doirasi keng.

3.13- jadval

Ziyrak-beparvo//чуткий-равнодушный oppozitsiyasi gradual ko‘rsatkichlari

Ko‘rsat kichlar	O‘zbekcha gradual komponentlar, ularning izohi	Ko‘rsat kichlar	Ruscha gradual komponentlar, ularning izohi
+5		+5	<i>участливый</i> – подчёркивает не только сердечность отношения к окружающим, но и готовность прийти им на помощь [ССРЯ 2, – С.682]
+4	<i>samimiy</i> – samimiyat bilan ish tutuvchi, sofko‘ngil [O‘TIL III, 435-b.]	+4	<i>душевный</i> – подчёркивают теплоту и чуткость, проявляемую к окружающим [ССРЯ 1, – С.289]

+3	<i>dardkash</i> – kimsanng g‘ami-qayg‘usiga sherik bo‘luvchi, hamdard [O‘TIL I, 563-b.]	+3	<i>сострадательный</i> – способный, склонный к состраданию, исполненный сострадания [ТСУ]
+2	<i>hozirjavob</i> – hayot, davr talabiga o‘z ish-amali bilan tezda javob beruvchi [O‘TIL V, 545-b.]	+2	<i>отзывчивый</i> – сочувственно относящийся к другим, готовый помочь [ТСУ]
+1	<i>e‘tiborli</i> – e‘tibori, obro‘si, nufuzi bo‘lgan, so‘zi o‘tadigan, nufuzli [O‘TIL V, 67-b.] <i>sinchkov</i> – sinchiklab, zo‘r e‘tibor bilan qarashga, tekshirishga odatlangan, hech narsani nazar-e‘tibordan chetda qoldirmaydigan [O‘TIL III, 517-b.]	+1	<i>внимательный</i> – проявляющий внимание, заботу по отношению к кому-либо [ССРЯ 2, – С.682]
0	<i>ziyrak</i> – tez fahmlaydigan, fahmi tez, sezgir [O‘TIL II, 149-b.]	0	<i>чуткий</i> – проявляющий сердечное отношение, сострадание, внимание к окружающим [ССРЯ 2, – С.682]
	<i>hushyor</i> – tevarak-atrofga, yon-veridagi hodisalarga sezgirlik bilan ko‘z-quloq bo‘lib turuvchi, sergak [O‘TIL V, 567-b.]		<i>неравнодушный</i> – безразличный, безучастный к людям, к окружающему [СО]
	<i>beparvo</i> – sovuqqon, kamhafsala, loqayd [O‘TIL I, 231-b.]		<i>нечуткий</i> – неотзывчивый, невнимательный кокружающим [Ефремова, 2000]
-1	<i>befarq</i> – loqayd, beparvo [O‘TIL I, 242-b.] <i>loqayd</i> – ahamiyat, e‘tibor bermay, beparvolik bilan, qiziqmay, befarq, beparvo, sovuqqon (odam) [O‘TIL II,	-1	<i>равнодушный</i> – безразличный, безучастный, пассивный, лишённый интереса ко всему окружающему, холодно-спокойный [ТСУ]

	510-b.]		
-2		-2	<i>неотзывчивый</i> – относящийся к другим без отзывчивости, сочувствия [Ефремова, 2000]
-3	<i>soviq</i> – ko‘ngilga yoqmaydigan, xush kelmaydigan, qo‘pol, dag‘al [O‘TIL III, 541-b.]	-3	<i>холодный</i> – выражает отрицательную оценку менее резко, такой, которого не трогают/мало трогают радости и горести других, не способен горячо отдаться какому-либо чувству, доброму побуждению [ССРЯ 1, – С.47]
-4	<i>shafqatsiz</i> – rahm-shafqati yo‘q, rahmsiz [O‘TIL IV, 556-b.] <i>berahm</i> – rahmi yo‘q, qahri qattiq, rahmsiz [O‘TIL I, 233-b.]	-4	<i>бездушный</i> – такой, у которого отсутствует живое, тёплое чувство, живая мысль, и поэтому поступающий формально, слово употребляется для выражения резкой отрицательной оценки [ССРЯ 1, – С.47]
-5	<i>bag‘ritosh</i> – berahm, shafqatsiz [O‘TIL I, 192-b.]	-5	<i>чёрствый</i> – бездушный, не отзывчивый, лишённый чувствительности, не восприимчивый [ТСУ]

So‘nggi ikki jadvaldagi so‘zlardagi farq shundaki, “Отзывчивый-бездушный” qatoridagi so‘zlarning ifodaliligi nisbatan aniq va mukammalroqdir. “0” nuqtada o‘rin olgan *бездушный* sifati “Чуткий-равнодушный” jadvalidagi yuqori pog‘onani egallagan. Bu jadvalda graduonimiya hodisasini emas, balki tematik guruhlar o‘rtasidagi gradual hodisaning guvohi bo‘lamiz. Zero, gradual qatorlarga xos bo‘lgan sinonimik va antonimik munosabatlariga ko‘ra alohida ravishda “Чуткий-равнодушный” jadvaliga “+1”, “Отзывчивый-бездушный” jadvali uchun esa “+2” ko‘rsatkichlari xosdir.

“Чуткий-равнодушный” mavzusiga oid so‘zlar shaxsning o‘zgalar dardiga

hamdardligini ifodalaydi, jadvalga ko‘ra u “0” ko‘rsatkichga nisbatan intensivligi ortadi. Graduonimiya hodisasi zamirida sinonimiya, antonimiyaning mavjudligi semalarning ma‘nolariga mos ijobiy so‘zlarni o‘zida mujassam etishi natijasida ijobiy konnotatsiya, salbiy ma‘no ifodalaydigan so‘zlarda esa salbiy konnotatsiya kuzatiladi. Gradual ko‘rsatkich qancha yuqori bo‘lsa, belgining xususiyati shu darajada baholanadi.

3.14- jadval

Saxiy-baxil//щедрый-скупой oppozitsiyasining gradual ko‘rsatkichlari

Ko‘rsat kichlar	O‘zbekcha gradual komponentlar, ularning izohi	Ko‘rsat kichlar	Ruscha gradual komponentlar, ularning izohi
+4	<i>himmatli</i> – o‘zgalar manfaati yo‘lida yordamini, ish-mehnatini ayamaydigan, himmati zo‘r [O‘TIL V, 530-b.] <i>shohona</i> – oliy darajadagi, juda yaxshi [O‘TIL IV, 600-b.]	+4	<i>королевский</i> – богатый, роскошный [Ефремова, 2000]
+3	<i>hotam/hotamtoy</i> – saxiy, sahovatli, oliyjanob [O‘TIL V, 553-b.]	+3	<i>расточительный</i> – безрассудно, неразумно расходует деньги и т.д. [ССРЯ 2, – С.367]
+2	<i>tanti</i> – o‘zgalarga yordam, sarf-xizmatni ayamaydigan, mard, ko‘ngli va qo‘li ochiq [O‘TIL III, 668-b.] <i>muruvvatli</i> – saxovatli, himmatli [O‘TIL II, 6640-b.] <i>oliyhimmat</i> – himmati baland, himmatini, yaxshilikni ayamaydigan, saxovatli <i>olijanob, fe’li keng</i> – yuqori darajada himmatli, oliyhimmat, himmati baland [O‘TIL III, 112-	+2	<i>великодушный</i> – жертвующий своими личными интересами ради других; самоотверженный [Ефремова, 2000]

	b.]		
+1	<i>saxovatli</i> – <i>saxovatini</i> ayamaydigan, <i>saxiy</i> , <i>hotamtoy</i> , <i>himmatli</i> [O‘TIL III, 464-b.]	+1	<i>тароватый</i> – щедрый [ТСУ]
0	<i>saxiy</i> – hech kimdan narsasini ayamaydigan, <i>hotam</i> , <i>hotamtoy</i> , <i>tanti</i> [O‘TIL III, 463-b.]	0	<i>щедрый</i> – охотно оказывающий помощь деньгами, имуществом, не скупой [ТСУ]
	<i>baxil</i> – birovga hech narsani ravo ko‘rmaydigan, <i>xasis</i> , <i>qizg‘anchiq</i> [O‘TIL I, 177-b.]		<i>нескупой</i> – не обладающий скупостью
	<i>qizg‘anchiq</i> – narsasini birovdan ayaydigan, <i>baxil</i> [O‘TIL V, 28-b.]		<i>нещедрый</i> – не отличающийся щедростью
	<i>xasis</i> – birovga narsa yoki pul bermaslikka, sarflamaslikka intiladigan, <i>ziqna</i> , <i>qizg‘anchiq</i> <i>ziqna</i> – o‘taketgan <i>xasis</i> , <i>qizg‘anchiq</i> , <i>mumsik</i> [O‘TIL II, 156-b.]		<i>скупой</i> – чрезмерно бережливый, упорно избегающий всяких трат, издержек, расходования своего имущества, достояния [ТСУ]
	<i>qurumsoq</i> – sarf-xarajatdan, chiqimdan qochadigan, <i>ziqna</i> , <i>xasis</i> [O‘TIL IV, 388-b.] <i>mumsik</i> – o‘taketgan <i>xasis</i> , <i>baxil</i> , <i>ziqna</i> [O‘TIL II, 638-b.]		
-1	<i>pishiq</i> – o‘z narsasini, mehnatini birovga anoyi qilmaydigan, <i>qattiq</i> [O‘TIL III, 271-b.] <i>qattiq</i> – sarf-xarajat, chiqimga tobi yo‘q, unga chidamaydigan [O‘TIL V, 264-b.] <i>do‘qol</i> – <i>ziqna</i> , fe‘li tor [O‘TIL III, 40-b.]	-1	<i>жадный</i> – алчный, проникнутый ненасытной жаждой, желанием; слишком падкий [ТСУ]

	<i>ochko'z</i> – biror narsaga o'ch, har narsaga ortiqcha hirs qo'ygan [O'TIL III, 166-b.]		
-2	<i>baxil</i> – xasis, qizg'anchiq [O'TIL I, 177-b.] <i>qoqvosh</i> – o'taketgan xasis, ziqna [O'TIL V, 354-b.] <i>nokas</i> – birovga hech narsasini ravo ko'rmaydigan, baxil, xasis, qurumsoq [O'TIL III, 51-b.]	-2	<i>прижимистый</i> – скупой, жадный до денег, склонный в денежных делах/практических расчётах притеснить кого-нибудь [ТСУ]
-3	<i>hirsli</i> – hirs qo'ygan, berilgan [O'TIL V, 533-b.]	-3	<i>алчный</i> – имеет усиленное значение, но употребляется редко и преимущественно в тех случаях, когда жадность приобретает чрезмерный характер и получает отрицательную оценку [ССРЯ 1, – С.326]
-4	<i>o'larmon</i> – o'ta berilgan, mukkasidan ketgan [O'TIL V, 147-b.]	-4	<i>скаредный</i> – указывает на чрезвычайную скупость, расчётливость кого-либо [ССРЯ 1, – С.429]

Shaxsning fe'l-atvorida uchraydigan *saxiy–baxil//щедрый-скупой* sifatлари moddiyatga nisbatan bo'lgan munosabatni ifodalaydi. *Щедрый-скупой* antonimlar guruhida *не–* prefiksi orqali so'zning asosiga *не–* prefiksi qo'shilishi natijasida hosil qilingan. Gradual qator markaziga *не–* prefiksi orqali hosil bo'lgan sifatlarni kiritishni o'rinli, simmetriklik hamda semantik jihatdan to'liqlikni ta'minlaydi, deb hisoblaymiz. *Жадный* sifatida gradosema vazifasini “ненасытная жажда” birikmasi hosil etadi. Mabodo ushbu gradual qatordagi so'zlarning bir gap yoki iborada yonma-yon kelishi kuzatilsa, graduonimiya yaqqol namoyon bo'ladi. Gradual qatordagi so'zlar nafaqat belgini aniqlashtirib va kuchaytirib beradi, balki bir-birini to'sib, nisbiylik ham ko'zga tashlanib qoladi.

Xotirjam–sertashvish//спокойный-тревожный guruh so‘zlarining gradual qatori qayd etilgan jadvalda ham belgining ortib/kamayib borishi kuzatiladi.

Tashvish, savdo, taraddud, g‘am, qayg‘u, sho‘r, sho‘rish (ko‘zlangan maqsad, ish yo‘lidagi bezovtalik xatti-harakati o‘y-fikri. *Sho‘r, sho‘rish* bu ma’noda juda kam qo‘llanadi). Bulardan tashqari tilimizda xuddi shu LSGga mansub *ulug‘, azamat, bahaybat, yirik, gigant* kabi ma’nodoshlari ham mavjud¹⁴⁸. Bular qatoridagi *katta* leksemasi uslubiy jihatdan neytral bo‘lib, tilning barcha vazifaviy uslublarida deyarli bir xil qo‘llanadi. *Ulug‘, buyuk, azim, azamat, ulkan, gigant* kabi leksemalarning qo‘llanishi vazifaviy uslublar doirasida chegaralangan.

O‘zbek tilida *–siz* suffiksi va ba’zan *be–* prefiksi, rus tilida *без–, бес–, не–* prefikslari sifat yasashda eng mahsuldor vositalar hisoblanadi. O‘zbek tilida *no–* prefiksi rus tilida *не–* prefiksi bilan bir xil ma’noni ifodalaydi.

3.15-jadval 5 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (Toshkent: O‘zME, 2006–2008) asosida ishlab chiqilgan:

3.15-jadval

O‘TILda mavjud sifat yasovchi prefikslar ko‘rsatkichlari

№	Affiks	Umumiy soni	ot	%	sifat	%	fe‘l	%	ravish	%
1.	<i>be–</i>	346	68	19,7%	248	71,7%	2	0,01%	28	0,08%
2.	<i>–siz</i>	677	205	30,3%	420	62%	49	0,07%	3	0,001%
3.	<i>no–</i>	78	22	28,2%	51	65,4%	3	0,04%	2	0,003%
Jami		993	313	31,5%	611	61,5%	55	0,01%	14	0,01%

O‘zbek tilida fe‘l-atvor belgisini ifodalashda darajaning o‘ziga xos ko‘rinishi mavjud. Gradual ifodaning bunday ko‘rinishi leksema va lug‘aviy birliklar o‘rtasida kuzatiladi. Masalan, *ayyor – ilonning yog‘ini yalagan – pixini yorgan; uddaburon – ishning ko‘zini biladigan – yulduzni benarvon uradigan*.

Ayyor inson fe‘l-atvorini me‘yoriy darajada ifodalaydi, *ilonning yog‘ini yalagan* iborasida ayyorlik darajasi nisbatan yuqori darajada ifodalanadi; *yulduzni benarvon uradigan* iborasida ayyorlik eng yuqori darajada ifodalangan. *Ilonning*

¹⁴⁸ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б.119-120.

yog'ini yalagan iborasi denotativ asosiga ega, ammo *yulduzni benarvon uradigan* iborasi real voqelikka asoslanmagan. Bu o'rinda real hayotda tasavvur qilish mumkin bo'lmagan voqelik belgini yuqori darajada ifodalashga xizmat qilgan. *Tegirmonga tushsa, butun chiqadigan, qilni qirq yoradigan* iboralari ham belgini yuqori darajada ifodalaydi.

3.3-§. O'zbek va rus tillarida rang ifodalovchi lug'aviy graduonimiya

Graduonimiya hodisasi so'zlovchining yetkazib bermoqchi bo'lgan munosabatlari va qanday ma'lumotni aytmoqchi ekanligi bilan uzviy bog'liq. Daraja bildiruvchi so'zlar, daraja kategoriyasi, daraja-miqdor holi, daraja-miqdor ergash gapli qo'shma gaplar turli jihatdan alohida o'rganish obyekti bo'lgan¹⁴⁹.

Har bir til o'ziga xos ifoda vositalariga, grammatik tuzilishlarga ega bo'lib, nazariy tilshunoslik hamda amaliy lingvistikani yanada bir-biri bilan bog'liqligini ta'minlaydi. Zero, keltirilgan nazariy manbalardan holi ravishda yaratilayotgan amaliy asarlar, turli yozma uslublarda ushbu tadqiq etilgan darajalar yorqin namunalarining keng ko'lamda qo'llanishi – har bir tilning o'ziga xos jozibasi, ichki imkoniyatlari, milliy qadriyatlari, o'ziga xosligini ta'minlab beradi.

Rang ifodalovchi gradual birliklar borasidagi tadqiqotimizda faol va keng qo'llanadigan rang turlarini o'rganish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz, shunga ko'ra, gradual qatorda ham faol rang bildiruvchi leksemalar o'rin olgan. Ranglar xilma-xilligi barcha tilda ham sinonimik qatorlar hosil bo'lishiga zamin yaratadi va dastlab asosiy ranglar sifatida *oq-qora//черный-белый* leksemalari hisoblangan, shu bilan bir qatorda, ular to'g'ridan-to'g'ri antonimlar juftligidir. *Черный-белый* ranglari atrofida mavjud ranglar oraliq holatlardagi ranglar sirasiga kiradi. Rus

¹⁴⁹ Сэпир Э. Градуирование: Семантическое исследование. Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16: Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С.43-78; Колесникова С.М. Градационные отношения в современном русском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1993. – 225 с.; Апресян Ю.Д. Избранные труды: Т. II: Интегральное описание языка и системная лексикография. – М.: Языки русской культуры, 1995. – С.348-388; Минка А.Н. Прилагательные со значением степени и дискурсивное варьирование их градуальных признаков (на материале русского и английского языков). Дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2005. – 149 с.

tilidagi sifatlar gradual qatorini tadqiq etishda *oq* rangining ma'nodosh *белый, белоснежный, молочный, снежный, меловой, кипенный, белокипенный*¹⁵⁰ sinonimik qatorini hosil qilishda *черный* sifati qora ko'mir rangini, *белый* sifati qor rangini ifoda etishining guvohi bo'lamiz:

3.16- jadval

Qora-oq//черный-белый oppozitsiyasining gradual ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Gradual birliklar	Lug'atlardagi ma'nosi	Gradual birliklar qatnashgan misollar
+4	<i>аспидный</i> – имеющий цвет аспида; синевато-чёрный [Ефремова, 2000]	<i>juda qora</i> (zaharli ilon rangi)	Возьми-ка <i>аспидную</i> доску да ступай за мною. А.С.Пушкин. Арап Петра Великого ¹⁵¹
+3	<i>иссиня-чёрный</i> – чёрный с синеватым оттенком [Ефремова, 2000]	<i>ko'kish qora</i>	Глаза ее, <i>иссиня-чёрные</i> , вызывающе искрились. Н.А.Островский. Как закалялась сталь.
+2	<i>угольный</i> – чем-либо напоминающий уголь [Ефремова, 2000]; в данном случае – цветом	<i>qoramtir</i>	До крайности запущенной передней, слабо освещённой малюсенькой <i>угольной</i> лампочкой, ... на стене висел велосипед без шин. М.А.Булгаков. Мастер и Маргарита.
+1	<i>смоляной</i> – цветом, блеском напоминающий смолу; очень чёрный [Ефремова, 2000] 1	<i>juda qora, smola rangi</i>	Он положил <i>смоляной</i> канат и часть деревянного масла. Н.В.Гоголь. Записки сумасшедшего.
0	<i>чёрный</i> – самого тёмного из существующих цветов, цвета сажи, угля [ТСУ]	<i>ko'mir, kuya rangi</i>	Нос и глаза были <i>черны</i> от пыли. А.П.Чехов. Крыжовник.
	<i>белый</i> – цвета снега или мела [ТСУ]	<i>qor rangi</i>	Отец мой, правда, мужик был, а я вот в <i>белой</i> жилетке, жёлтых

¹⁵⁰ Словарь синонимов русского языка. – М.: Астрель: АСТ, 2003. – 702 с.

¹⁵¹ Бу ва кейинги ўринлардаги мисоллар рус тилининг Миллий корпусидан олинди. <https://ruscorp.org/page/corpora-structure/>

			башмаках. А.П.Чехов. Вишневый сад.
-1	<i>молочный</i> — имеющий цвет молока; матово-белый [Ефремова, 2000]	<i>sut rangi</i>	Запоздавшая к обеду старуха, уже сутулая, с <i>молочными</i> волосами, но декольтированная. И.А.Бунин. Господин из Сан-Франциско.
-2	<i>снежный</i> — белизной, блеском и т.п. напоминающий снег [Ефремова, 2000]	<i>orroq qor rangi</i>	Я счастлив был!.. с неописанным волнением стоя под окошком, смотрел на снежную дорогу — ее не видно было! А.С.Пушкин. Лицейский дневник.
-3	<i>белоснежный</i> — имеет усилительный характер: чрезвычайно белый [ССРЯ 1, 53-б.]	<i>juda oq</i>	Появляются официанты в алых жилетках поверх <i>белоснежных</i> рубашек с черными бабочками. В.Г.Распутин. Новая профессия
-4	<i>белокипенный</i> — имеет усилительный характер и употр. в художественной литературе [ССРЯ 1, 53-б.]	<i>juda ham oq</i>	Среди <i>белокипенных</i> поворотов лучше всего идти по темной полосе слива. Е.Евтушенко. Ягодные места.

Bunda *чёрный* sifatining dominantasi mavjud emasligining guvohi bo‘lamiz. *Чёрный, чёрный как ночь, иссиня-чёрный; аспидный, смоляной, как вороново крыло, цвета воронова крыла, черным-чёрен*¹⁵² sinonimik qatorida *чёрный* semasi paradigmaları orasidan frazeologik iboralar ham o‘rin olgan.

Белый leksemasi rus olimlari tomonidan dastavval paydo bo‘lgan rang hisoblanib, barcha rang bildiruvchi sifatlarining baholash semantikasi rang semantikasidan ustun turishi ta’kidlangan. Ikki oppozitsiyadagi so‘zlar oralig‘idagi gradual sifatlar gradosemalarining muqarrarligini ko‘rsatadi. Yuqoridagi jadvalda predmetning rangini ko‘rsatishda *белый, чёрный* leksemasiga qo‘shimcha ravishda uning daraja shakllari (*белее-чернее, беловатый-черноватый, самый белый-*

¹⁵² Словарь синонимов и антонимов современного русского языка. – М.: Аделант, 2014. – 512 с.

самый чёрный kabi) kiritilishi ham o‘rinlidir. Bir belgini ko‘rsatuvchi shakllarining oldinma-keyin kelishi ma’no kuchayishini, bo‘yoqdorligini ta’minlagan.

Graduonimiya hodisasi nafaqat sifatlarning sinonimik qatorlarida, balki sinonimik-antonimik munosabat hamda boshqa qatorga nisbatan graduallikning yaqqol ifodalanishi kuzatilgan qatorlarda ham mavjud: *to‘q qizil* rangining rus tilidagi ikki gradual qatorini ko‘rib chiqamiz:

а) *красный, алый, пунцовый, рдяный, кровавый, кумачовый, карминный, киноварный, рубиновый/рубинный, гранатовый, червонный, шарлаховый;*

б) *багровый, багряный, пурпурный/пурпуровый, кровавый.*

Ikkinchi sinonimik qatorda *очень*, ya’ni *to‘q* gradosemasining mavjudligi qatorlar orasidagi graduonimiya hodisasini yuzaga chiqarish imkonini beradi. Intensivlikka misol sifatida ikkala qatorda uchraydigan *кровавый* sifatini keltirish joiz, chunki spektrda zarg‘aldoq va siyohrang oralig‘idagi *красный* rangining semantikasi va intensivligi aks etadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda quyidagi gradual qatorni hosil qilish o‘rinli: *алый – красный – кумачовый – пунцовый – гранатовый – кровавый*. Gradual qatorning gradosemasi sifatida *степень яркости цвета* birikmasini keltirish joiz.

Карминный, киноварный, шарлаховый ranglari maxsus nutq doiralarida qo‘llanadi. *Рдяный, червонный* sifatlari birmuncha muomaladan chiqqan, eskirgan hisoblanadi. *Кровавый* sifatiga kelsak, u faqat badiiy asarlarda qizil rangining salbiy ma’nosini (*g‘am-qayg‘u, keskinlik*) ifodalashda qo‘llanishi kuzatildi. *Красный* rangining intensivligi gradual qatordagi sifatlarning darajalanish xususiyati deyarli kuzatilmaydi hamda ularning qo‘llanish doirasi birmuncha cheklangan, masalan: *osmon, quyosh, bulut, kuzgi barg* kabi so‘zlarni ifodalashda qo‘llanadi, bu esa birinchi qator gradual sinonimlaridan keskin farqlanishini ko‘rsatadi. Bizningcha, *qizil* rangi bilan bog‘liq tasavvurlar insonning tafakkurida birinchi navbatda shakllangan, ular fazoviy tasavvurlar bilan uzviy bog‘liqlikda

bo'lib, nafaqat turli oila tillari, balki boshqa tillar bilan qiyoslaganimizda ham o'ziga xos universal hamda semantik ma'no kasb etishini ko'plab tadqiqotlardan topish mumkin. *Qizil* rangining xususiyatlari nafaqat alohida bir rang, balki uning namoyon bo'lish darajasini ham aks ettiradi.

“*Rangdor-bir rangdagi/разноцветный-одноцветный*” darajalanish qatorida nosimmetrik gradual qator sifatlarining ijobiy shakllari salbiy shakllaridan ustunlik qiladi va *не-* prefiksi yordamida hosil qilingan sifatlar mavjud emas. *Не-* prefiksli sifatlar gradual qatorning muvozanatini saqlash imkonini beradi. *Радужный, многокрасочный, многоцветный* sifatlarining etimologiyasida ular nisbiy sifatlardan paydo bo'lgan. Sinonimik-antonimik juftliklarni ham tashkil etadi; rus tili antonimlar lug'atida yuqoridagi sifatlarga mos ravishdagi antonimlar uchramadi. Biroq sinonimik dominantalar asosida ularning qatorini tildagi mavjud lug'atlardan tuzish imkoni yuzaga keldi. Jadvaldagi asosiy so'z sifatida qabul qilingan *разноцветный* sifati zamirida graduonimiya hodisasi deyarli kuzatilmaydi, balki *цветной* sifati kamroq bo'lsa-da, mavjud, vaholanki *цветной* sifatida aniq rangga ishora mavjud, lekin *разноцветный* sifatida semantika mavhum, ya'ni ranglarning xilma-xilligi bunga yorqin misol bo'ladi. *Многие, различные* sifatlari gradosema vazifasini bajaradi, ijobiy ko'rsatkichga ega bo'lgan sifatlar qatori ustunlik qiladi. Inson ranglarni vizual qabul qiladi, ko'rish a'zolari orqali so'zlovchining ma'lumotlarini o'ziga xos ravishda tasavvur etadi.

O'zbek va rus tillarida sifatning o'zida mujassam etgan belgilari me'yoriy va me'yoriylikka nisbatan ortiq/kam, past/baland bo'lishi mumkin. Sifat esa asliy belgiga qo'shimcha ma'no berishi, asliy ma'noni inkor etishi, uni haddan tashqari kuchaytirishi mumkin. Belgining bu xususiyatlari daraja yordamida ifodalanadi.

So'nggi paytlarda tilshunoslarni sifatning til bilish qobiliyatiga hamda mantiqiy tuzilmalar qurishga bo'lgan roli qiziqtirib kelmoqda. Sifat muhitning shakllanishiga, ko'rish, hissiy-obrazli inson kechinmalarida hamda anglash va idrok etishda muhim rol o'ynaydi. Inson omili muhim o'rin tutadigan zamonaviy tilshunoslikda tilning obrazlilik va ekspressiv bo'yoqlarga boyligini ta'minlab

beradi. Soʻzlovchining nutq boyligi, obrazliligi, ekspressiv boʻyoqlarga boyligi sifatning mavjudligidan, shu bilan birga sifat darajalari ham turlicha talqin etiladi, jumladan, *–roq* daraja affiksi oʻzbek tilida qiyosiy daraja koʻrsatkichi hisoblansa, qoʻshni qoraqalpoq tilida kuchaytirma daraja koʻrsatkichi sifatida oʻrganiladi.

Sifatlarning oddiy darajaga munosabatini namoyon etishi koʻzga tashlanadi, masalan, “rang-tus bildiruvchi ayrim sifatda qoʻllanuvchi *–ish*, *–(i)mtir* affikslari belgining kuchsiz darajasini anglatmasdan belgining sifat bildirgan rang-tusga moyilligini, shu rangga yaqin boʻlgan gradual qatorni koʻrsatgan: *oqish*, *koʻkish*, *koʻkimtir* kabi. Masalan: *oqish*, *oqimtir*, *oq*, *oppoq*. *Tashqarida havo bulut boʻlgani uchun oqish qandillar ertalabdan yoqilib qoʻyilibdi. Abudshukur manglayi tirishgan, koʻzoynakli, etsiz qoramtir yuzi ichiga botgan... oriqqina kishi.* Oybek. Tanlangan asarlar.

Misollardan koʻrinib turibdiki, *–imtir* affiksi yordamida *qora* rangining boʻyogʻi, yaʼni qoraga moyillik, och yoki sal qora maʼnosi hosil qilingan. Belgining meʼyordan kamligini ifodalash uchun leksik jihatidan *sal*, *bir oz*, *xiyol* soʻzlaridan foydalanilsa, morfologik jihatdan *–ish*, *imtir*, *–roq* qoʻshimchalaridan foydalanish mumkin.

Juda yordamchi soʻzi sifatlar bilan birga kelganda ham sifat soʻz turkumining orttirma darajasini hosil qiladi, masalan: *juda qora*, *juda oq*//*очень чёрный, очень белый.*

Qora, *qizil*, *oq*, *sariq* kabi shakllarda ham xuddi shunday maʼno ifodalangan: *qora qizil* – qoraga yaqin (qoraga moyil) qizil; *oq sariq* – oqqa yaqin (oq rangga moyil) sariq.

F.Eldjerkiyeva ranglar va ularning boʻyoqlari borasidagi tadqiqotlarida har bir rangning qoʻllanishi, ularning turlari boʻyicha tilda uchraydigan graduonimiya hodisasi leksik birliklarning semantik yaqinligini anglatishi, gradual qatorlari esa oʻzining maʼnolariga koʻra meʼyoriy dominanta nuqtaning ikki tomonida joylashishini taʼkidlagan.

Oq (27%), qizil (24%), qora (21%), yashil (12%), koʻk (7%), sariq (6%),

kulrang (2%) hamda jigarrang (1%) ranglarining OAV manbalarida uchrashi aniqlangan. O'zbek va rus tilidagi OAV materiallarini tahlil qilish asosida shu ma'lum bo'ldiki, *oq*//*белый* sifatlari *toza*//*чистый* ma'nosida qo'llanishi jihatdan birinchi o'rinda turadi. Rus tilidagi ba'zi *oq* rang bo'yoqlari (*меловой, купенный, лилейный, белокупенный, молочный, алебастровый, белёсый*) qo'llanishi juda kam uchrasa, ushbu qatordagi *белоснежный, бледный* sifatlari ko'p qo'llanadi. Zero, barcha rang bildiruvchi so'zlar gradual paradigmasida gradosema mavjud va ranglar uyg'unligi bilan bog'liklik kuzatiladi: *oq* – tozalik, poklik, yengillik; *sariq* – quvonch, bepoyonlik; *qizil* – issiqlik, ko'z qorachiqlar kengayishi, charchoq; *siyohrang* – charchoq, og'irlik; *yashil* – sovuqlik, qon aylanishi yaxshilanishi; *havorang* – salqinlik, tinchlantirish; *jigarrang* – issiqlik, tinchlik; *ko'k* – sovuqlik, tinchlantirish; *qora* – og'irlik, g'amginlik ifodasi kabi his-tuyg'ularni beradi.

O'TILda rang bildiruvchi sinonimik qatorlardan 3 tasida graduonimiya hodisasi aniqlangan bo'lsa, lug'atda *oq* so'zining o'zi sifat tariqasida 11 ta ma'noga ega bo'lib, unga mos gradual qatorni nutqimizda faol qo'llanadigan *oqroq, oppoq, juda oq, eng oq, sutday (qorday) oq* so'zlari tashkil etishi ko'rsatib o'tilgan¹⁵³. Rus tiliga nisbatan o'zbek tilida *oq* sifatining graduonimlari kamroq.

Oq, oppoq bo'zalar ko'pirsin gulgun

Tug'dayin tutaylik pok kalomlarin! A.Suyun.

Oppoq nur yuqoridan poyandoz singari tushib oyoqlar ostida to'xtadi.

T.Malik¹⁵⁴.

Bu misollarda predmetning rangini ko'rsatishda *oq* leksemasi va uning orttirma daraja shakli (*oppoq*)dan foydalanilgan. Bir belgini ko'rsatuvchi *oq* va *oppoq* shakllarining oldinma-keyin kelishi ma'no kuchayishini ta'minlagan.

Keyingi o'rinni *qizil* sifati egalladi. O'TILda ushbu sifatning 4 ta ma'nosi keltirilgan bo'lib, graduonimlari *qizilroq, qizg'ish, qizg'imtir, qip-qizil, alvon, juda qizil, eng qizil. Qip-qizil* orttirma darajadagi sifat belgining mo'ljaldan ortiqligini, kuchililigini ifodalaydi hamda birinchi bo'g'inni sifat oldidan takrorlash kabi

¹⁵³ ЎТИЛ, 3-жилд. –Тошкент: ЎЗМЭ. – 688 б.

¹⁵⁴ [https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Tohir%20Malik.%20Shaytanat%20\(birinchi%20kitob\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Tohir%20Malik.%20Shaytanat%20(birinchi%20kitob).pdf)

fonetik vositalar yordamida yasalgan: *Musavvirning iltimosi bilan xonni qip-qizil ko'rpacha ustiga o'tkazdilar*. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.

Qora sifat leksemasi nutqda faqat predmetning rangini ko'rsatish maqsadida qo'llanganda emotsional-ekspressivlikdan holi bo'ladi, uning vazifasi rang to'g'risida xabar, ma'lumot berish bilan cheklanadi. So'zlovchi yoki yozuvchining nutqi qaratilgan shaxsga bo'lgan munosabati nuqtayi nazaridan matnga bog'liq holda ijobiy yoki salbiy ekspressivlikni ifodalashi mumkin. Bu leksemaning orttirma darajadagi shakli faqat rangni ifodalash uchun emas, balki ma'noni kuchaytirish uchun ham xizmat qiladi: *Qop-qora sochidan ikkita gajak Buralib-buralib yuziga tushmish*. Cho'lpon.

Umuman, *qosh, ko'z, soch* kabi a'zolarga nisbatan *qora* leksemasi epitet sifatida qo'llanganda ma'lum darajada ijobiy munosabat semasi aks etadi. Quyidagi misolda esa boshqacha holat ko'zga tashlanadi: *Ichi juda qora*. Ushbu misolda shaxsning odob-axloq normalariga mos kelmaydigan salbiy jihatlari *qora* leksemasini salbiy semada qo'llashga sabab bo'lgan. *Qora* leksemasi *ich* so'zi bilan birikib, o'zbek tilida "yomon niyatli, boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan" ma'nosini ifodalovchi *ichi qora* frazemasi sifatida qo'llanadi¹⁵⁵.

Rang bildiruvchi SLlarni *oq, qora, ko'k, qizil, sariq, zangori, yashil, bo'z, malla, moviy, pushti, pistoli, qirmizi, qo'ngir* kabi asosiy (axromatik) rang bildiruvchi leksemalardan tashqari *saman, jiyron, to'riq, chavkar, chipor, targ'il* singari hayvon tuslarini ifodalovchi LSGlar qatoriga ajratish mumkin¹⁵⁶.

Shular qatorida ta'm (*shirin-achchiq//сладкий-горький*), jins (*erkak* → *yigit* → *o'spirin* → *bola//мужчина* → *юноша* → *подросток* → *мальчик*; *ayol* → *qiz* → *o'smir qiz* → *qizaloq//женщина* → *девушка* → *подросток* → *девочка*), emotsional hissiyot (*botir-qo'rqoq//храбрец-трус, sevmoq-nafratlanmoq, любить-ненавидеть*), subyektiv baho (*shaharcha-shahar//городок-город, katta-kichik//большой-маленький*), shaxsning fiziologik yoki ruhiy holati (*xursand-*

¹⁵⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, Ўқитувчи, 2022. – Б.117.

¹⁵⁶ Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. – 27 б.

xafa//радостный-грустный, baxtli-baxtsiz//счастливый-несчастливый), aqliy qobiliyatlari (aqli-ahmoq//умный-тупой, oddiy-murakkab//простой-сложный), ma'naviy-axloqiy baho (chiroyli-xunuk//красивый-уродливый, omad-omadsizlik//везение-невезение), ijtimoiy holat (boy-kambag'al//богатый-бедный, qimmat-arzon//дорого-дешево) anglatuvchi sifatlar ham gradual qator hosil qiladi.

Belgining kuchsiz darajada ekanini ifodalashi sifatida *-(i)sh, -(i)mtir* affikslari keltirilgan. Bu affikslarning doirasi juda chegaralangan va rang-tus anglatadigan bir necha sifat leksemaga tanlab qo'shilishi: *ko'kish, ko'kimtir, sarg'ish, sarg'imtir, oqish* (lekin *oqimtir* shaklida ishlatilmaydi), *qoramtir* (lekin *qorash* shaklida ishlatilmaydi) aks ettirilgan. Bu affikslar asli belgining kuchsiz darajada ekanini emas, balki leksemadan anglashiladigan rangga moyillikni ifodalashi: *sarg'ish* – “sariq rangga moyil”, “rangi sariq bo'lib ko'rinadigan” sifat leksemaning ochiq bo'g'inga teng qismi olinib, unga **m, p** tovushini qo'shib yopiq bo'g'inga aylantirilishi va shu sifatning oldiga qo'shilishi: *ko'k – ko'm-ko'k, bo'sh – bo'm-bo'sh, yashil – yam-yashil, qizil – qip-qizil, qorong'i – qop-qorong'i*; sifat leksemaning ochiq bo'g'inga teng qismi olinib, unga **p** tovushi orttirilishi, bu orttirilgan tovush qatlanib, unga **a** tovushi orttirilishi va sifat leksemaning oldiga qo'shilishi: *to'g'ri – to'ppa-to'g'ri, kunduzgi – kuppa-kunduzgi* kabi; *oq* sifat leksemasida **-pp-** tovushlaridan keyin **a** tovushini orttirmasligi mumkinligi (*oq – oppa-oq – oppoq*) ta'kidlangan.

Ozaytirma darajada ko'proq rang-tus belgisiga xosligi qayd etilib, uni ifodalovchi quyidagi vositalar farqlanadi: 1) affiksatsiya: a) *-ish, -g'ish (qizg'ish, sarg'ish, ko'kish, oqish), -(i)mtir (qoramtir, ko'kimtir)* shakli; b) *-roq* affiksi (*eskiroq tufli*); 2) leksik vosita: *yarim, nim, och, xiyol, sal, aytarli, uncha, unchalik/u qadar ... emas*;

III bobga doir xulosa

1. Belgi bildiruvchi leksemalar muhitning inson lisoniy ongida shakllanishi, ko'rish, hissiy-obrazli inson kechinmalarida, tafakkur darajasi, idrok etishda

muhim o‘rin tutadi. Antroposentrik paradigmadagi inson omili belgilovchi qiymat kasb etadi. Inson omilining baholanishi, obyektiv borliqqa munosabati tilning obrazlilik va ekspressiv bo‘yoqlarga boyligini ta‘minlaydi. Belgi bildiruvchi lug‘aviy birliklar so‘zlovchining subyektiv munosabati, nutq boyligi, obrazlilik, ekspressiv bo‘yoqlarga boyligini ifoda etadi.

2. Belgi bildiruvchi so‘zlarda aks etgan belgilar me‘yoriylikka nisbatan ortiq/kam, yuqori/quyi darajada bo‘lishi mumkin. Belgining bunday xususiyatlari daraja yordamida ifodalanadi. Tadqiqotlarda, darajalanish, intensivlikning mazmun-mohiyati yoritilgan nazariy manbalarda sifat darajasi ko‘rsatkichi, belgining ortiq yoki kamligini anglatish xususiyati – daraja ma‘nosini ifodalashi, daraja ifodalovchi vositalar (fonetik, leksik, semantik, leksik-morfologik, kontekstual, subyektiv munosabat) asoslangan. Ilmiy manbalarda sifat darajasini grammatik kategoriyadan kengroq hodisa sifatida sharhlash, konseptual yondashish kuzatiladi.

3. Daraja ma‘nosini ifodalovchi grammatik shakl keng qamrovdagi grammatik ma‘noni ifodalashi mumkin. Bunday holatda daraja ma‘nosini ifodalovchi vositalarga maydon nuqtayi nazaridan yondashilgani ko‘rinadi. Sifat darajalari tahlili bir xil holatning leksik birliklar orqali ikki tilda etnik xususiyatlardan kelib chiqib turlicha baholanganini ko‘rsatadi. Bu o‘rinda hududiy belgilar, ijtimoiy muhit, turmush tarzi, axloqiy va boshqa me‘yorlarning ta‘siri seziladi. Etnik xususiyatlar miqdor yoki hajmi belgilovchi nomlarda ham ifodalanadi.

4. O‘zbek va rus tillaridagi belgi bildiruvchi leksemalarni chog‘ishtirishda har ikki tilning etnik xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Rus tilida predlogli konstruksiyalar o‘zbek tilida yasovchi qo‘shimchalar orqali reallashadi. Tarjima asoslarida bunday leksik birikmalar sezilarli darajada qiyinchilik tug‘diradi. O‘zbek va rus tillari daraja ifodalash usuli, vositalari jihatidan o‘zaro farqlanadi. Daraja ifodalashning farqli jihatlari tillarning har xil genetik asosga ega ekanligi, til sohiblarining borliqni qabul qilish, anglash, voqelikka munosabat bildirish

darajasi bilan belgilanadi.

5. Intensivlik turkiy tillarga oid manbalarda atroflicha tahlil qilingan hodisa bo'lib, me'yoriy o'lchovdan miqdor jihatidan chekinishni ifoda etadi. Me'yoriy o'lchov – jamiyat tomonidan e'tiborni jalb etmaydigan o'lchov birligi, sifat-miqdor semantik kategoriyasi. An'anaviy yo'nalishda intensiv shakllarga daraja kategoriyasidan tashqaridagi vosita sifatida qaralgan bo'lsa, bu shakllar hozirda daraja kategoriyasi tarkibiga kiritilmoqda.

6. Intensivlik – sifat (noma'lum, noaniq) hamda miqdor (darajalanuvchi) kategoriyalarining kesishuv nuqtasida yuzaga keladigan hodisa. Darajalanish, belgi, miqdor o'lchovi kabi kategoriyalarga intensivlik bilan bir qatorda qaraladi.

Intensivlik kategoriyasi daraja, qiyoslash (komparativlik), belgi miqdoriy darajasi kabi kategoriyalar bilan umumiylik hosil qiladi hamda o'ziga xos xususiyatlarni ham namoyon etadi.

7. O'zbek tilida shaxs fe'l-atvorini tasvirlashda yuqori darajani real bo'lmagan voqelik bilan ifodalash holati mavjud. Bunday tasvir usuli leksemalar va iboralar o'rtasida kuzatiladi. Graduonimiyaning bu ko'rinishi xalq tafakkur tarzining mental turmush tarzi bilan bog'liq ifodasi bo'lib, lisoniy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradi.

XULOSA

1. Graduonimiya umumiy integral belgi semasiga ko'ra sinonimiya, antonimiya kabi leksik paradigmalar bilan aloqadordir. Gradual qatorni hosil qilishda sifat va miqdor ko'rsatkichlari muhim. Gradual paradigma qatordagi dominantaning mavjudligiga, qator uzvlarining iyerarxik joylashuviga asoslanadi.

Graduonimiyadagi zidlanish shunchaki oppozitsiyadagi ikki qutbni emas, belgi-xususiyatni ifodalash tadrijiga asoslangan zidlikni namoyon etadi. Bunda qator uchlarining zidlanishi nazarda tutiladi. Zidlanish, asosan, denotativ sema asosida emas, konnotativ semalar asosida yuzaga keladi.

2. Graduonimiyada boshlang'ich nuqta, gradual shkala, gradual qatorning mavjud qutblari tadqiq etiladi. Graduonimiya psixologik jarayon sifatida o'lcham va miqdordan oldin inson tafakkurida shakllanadi. Har bir til sohibining borliq belgisiga xos farqlarni o'z tafakkuri orqali ifodalashi tillararo leksik-grammatik farqlarni yuzaga keltiradi. Xorij va rus tilshunosligida graduallikning kognitiv masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Graduallik inson erishgan bilimlar mahsuli sifatida baholangan.

3. Graduonimiya mazmunida belgining darajasi yoki holatning rivojlanish bosqichlari, qiyoslanadigan ma'lum me'yorning mavjudligi, belgining miqdoriy xususiyatlari yotadi. Graduonimiya ma'no va emotsional jihatdan ortish/kamayish tartibidagi so'zlardan iborat stilistik shakllar munosabatida ham namoyon bo'ladi. Graduonimiya bir yo'nalishda emas, integratsiya asosida tahlil qilinishi lozim bo'lgan hodisadir. Graduonimiya mazmuni "semantika – grammatika – pragmatika" uchligi negizida tadqiq etishni taqozo qiladi. Bu yondashuv tildagi gradual munosabatni tahlil qilishning negizini tashkil etadi.

Graduonimiya gradatsiya, graduallik, gradatsion munosabatlar, graduonimiya, graduator, gradosema, gradotativ, sinonim, antonim tushunchalari bilan aloqadordir.

Intensivlik funksional-semantik kategoriya sifatida graduallik kategoriyasiga asoslanadi.

4. O‘zbek va rus tillaridagi graduallik tub va yasama ot, sifat, fe‘l leksemalar orqali hamda yordamchi (sintaktik kvantifikatorlar) graduatorlar orqali ifodalanadi. Til sohibining predmet, belgi, holat, harakatlarning o‘lchov belgisiga bo‘lgan munosabati, ularning ortib/kamayib borish xususiyatlari, belgilar orasidagi farqlarni aniqlash uchun me‘yoriy birlik (0)dan foydalaniladi. Graduallik keng qamrovli tushuncha bo‘lib, graduonimiyaning bosqichlar va pog‘onalarga bo‘linishini ifoda etadi. Graduonimiya hodisasi graduallikning ma‘nosini shakllantirishga asos bo‘la oladi. Bu hodisa graduallik davomida o‘zaro munosabatda bo‘ladigan gradual qator, me‘yor (yetarli ravishda), miqdor (aniq va noaniq), kamayish (pasayish), kuchayish (ortib borish) kabi sohalarning kompleks tahlilini talab etuvchi bilimlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Aynan shu bilimlar majmui asosida insonda talqin etish faoliyatining o‘ziga xosliklari mujassamlashadi. Gradatsiyaning stilistik uslubi zamirida bir jihatdan *graduallik* (semantik tamoyil) yotsa, ikkinchi jihatdan *gradual qator* (sintaktik tamoyil) yotadi.

5. O‘zbek va rus tillaridagi sifatlarni chog‘ishtirishda har ikki tilning etnik xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Rus tilida predlogli konstruksiyalar o‘zbek tilida yasovchi qo‘shimchalar orqali reallashadi. Tarjima asoslarida bunday leksik birikmalar sezilarli darajada qiyinchilik tug‘diradi. O‘zbek va rus tillari daraja ifodalash usuli, vositalari jihatidan o‘zaro farqlanadi. Daraja ifodalashning farqli jihatlari tillarning har xil genetik asosga ega ekanligi, til sohiblarining borliqni qabul qilish, anglash, voqelikka munosabat bildirish darajasi bilan belgilanadi.

6. O‘zbek va rus tillaridagi grammatik munosabat nafaqat belgining sifati, darajasi, miqdorini me‘yorga nisbatan ifodalab berishni, balki grammatik ko‘lamda subyekt va obyektning o‘zaro munosabatini ham ifodalaydi. Graduonimiya esa belgining nol darajasiga nisbatan gradual shkalada aks ettirilishini anglatadi. Gradual shkala belgining ortib/kamayib borishini aks ettiruvchi, maksimal va minimal belgilarning chegaralariga ega bo‘lgan birlikdir. Graduator belgini orttiruvchi/kamaytiruvchi maxsus vositalardir. Gradosema graduallik miqdorining

ortishi/kamayishini ifodalovchi birlik bo'lib, gradual shkalada turli yo'nalishlarda joylashadi.

7. O'zbek va rus tillaridagi graduonimiya kategoriyasi komparativ, ekspressiv, intensiv kategoriyalarni o'zida mujassam etadi. Gradual shkala chiziqli – nur, kesma, to'g'ri chiziq; siklik ko'rinishlarida bo'lib, davriyligi va chegaralanganlik/chegaralanmaganligi bilan xarakterlanadi.

Sinonimlar qatori a'zolarining belgilaridagi umumiylikka, antonimik juftlar lug'aviy birliklarning ma'nolari zidlanishiga asoslanadi. Gradual munosabat me'yorga nisbatan belgi, xususiyat, miqdor o'lchovlarini bildiradi, belgining me'yori gradual maydonda dominant belgi hisoblanadi.

8. O'zbek va rus tillari turli oilalarga mansub bo'lib, barcha til sathlarida farqlar mavjud. Har bir tilning zamirida ikki xususiyat: universallik va idioetniklik (milliy-madaniy mazmun) yotadi. Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida umumiy va farqli jihatlar ijtimoiy voqelik, ijtimoiy munosabatlar, voqelikni qabul qilish, idrok etish bilan bog'liq ravishda muvofiqlashib boradi. O'zbek tilida qarindoshlik nomlari bilan bog'liq gradual qatorlarda lug'aviy ustunlik kuzatiladi. Nikohdan keyingi qarindosh-urug' nomlarida graduonimiya leksemalar semantikasida aks etadi. Rus tilida gradual qatordagi birliklar prefikslar yordamida hosil qilinadi. Graduonimiya maxsus belgi bildiruvchi so'zlar – graduatorlar orqali ifodalanadi.

9. Onomastika sohasidagi graduonimiya o'zbek tilida rus tiliga nisbatan ko'p kuzatiladi. Toponimlar, gidronimlar, badiiy asar nomlarida ham gradual munosabat aniqlangan. Bu holat o'zbek xalqining nomlarga turli darajada baho berishi, joylarning xususiyati bilan belgilanadi. Onomastikadagi graduonimiya tildan foydalanuvchilarning nisbatan keng ko'lamdagi tafakkuri va idrokini ifoda etadi.

10. Rus tili harbiy tizimida muayyan ijtimoiy muhit bilan bog'liq mansab-martaba, daraja, unvon nomlari graduonimiyasida norasmiy nutq birliklari ham kuzatiladi. Bu lug'aviy birliklar o'zbek tilida ham uchraydi, buning sababi ham ijtimoiy-siyosiy omillar bilan izohlanadi.

11. Maishiy tushunchalar graduonimiyasi qiyosida o'zbek tiliga oid gradual

qatorlar nisbatan ko‘proq ekanligi kuzatildi. Maishiy tushunchalar graduonimiyasida turar-joy ko‘rinishlari, uylarning qurilishi, joylashgan iqlim xususiyatlariga moslanishi, yashovchilarning maqsadi kabi subyektiv omillar namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilidagi maishiy mavzudagi gradual qatorlarning ko‘pligi xalqning me‘morchilik tarixi, qurilish-arxitektura tizimi taraqqiyotini ifoda etadi.

12. O‘zbek va rus tillarida leksik vositalarning gradual imkoniyatlari chegaralangan. Gradual ma‘no sintaktik tuzilma, ayniqsa, barqaror birikmalar orqali yuqori darajada ifodalanadi. So‘z, so‘z birikmasi, frazeologik birikma darajalanishni ifodalovchi lug‘aviy birliklar hisoblanadi.

Graduallikni uch asos (markaziy a‘zo, ikki qarama-qarshi a‘zo – me‘yoriy, me‘yordan ortiq) tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-sonli Farmoni // Xalq so‘zi, 2017-yil 8-fevral, №28 (6722).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 17-fevraldagi PQ–2789-sonli Qarori http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3210647
3. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom, shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqegini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019-yil 21-oktabr.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro kongress markazida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi so‘zlagan nutqidan. – Toshkent, 2019. <https://president.uz/oz/lists/view/2953>
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

7. Ҳожи́ев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 112 б.

8. Иванов С.Н. Родословное древо тюрок Абу-л-Гази-Хана (имя существительное и глагол). – Ташкент: Фан, 1969. – 204 с.
9. Исхаков Ф.Г. Имя прилагательное // Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Ч.2. Морфология. – М.: АН, 1956.– 146 с.
10. Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талқин, 2005. – 391 б.
11. Маъруфов З. Ўзбек тилида сифатларнинг қиёсий даражалари // А.С.Пушкин номидаги Тил ва адабиёт институти асарлари. – Тошкент, 1949. – 522 б.
12. Mengliyev V. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018. – 200 b.
13. Миртожиев М.М., Туркий туб сўзлар тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2017. – 400 б.
14. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. – Ташкент: Фан, 1989. – 191 с.
15. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2001. – 171 б.
16. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Бухоро университети нашриёти: Бухоро, 2001. – 228 б.
17. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966. – 154 б.
18. Раҳимов С., Умуркулов Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. – 210 б.
19. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек ва рус тилларини қиёслаш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 110 б.
20. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – 464 б.
21. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2010. – 391 б.

22. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974. – 69 б.
23. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 400 б.
24. Умуркулов Б. Ҳозирги ўзбек тили. – Термиз: ТДУ, 2012. – 150 б.
25. Холманова З.Т. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: ЎЗМУ, 2007. – 182 б.
26. Holmanova Z.T. “Boburnoma” – til qomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 336 b.
27. Замонавий ўзбек тили. Морфология. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2008. – 436 б.
28. Зикриллаев Ғ.Н. Ўзбек тили морфологияси. – Бухоро, 1994. – 203 б.
29. Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. – Андижон, 1994. – Б.131-132.
30. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 448 б.
31. Чориев Т., Сафарова Н., Истамова Ш. Ўзбек тили. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2008. – 296 б.

2) Xorijiy nashrlar

32. Апресян Ю.Д. Избранные труды. Т. II: Интегральное описание языка и системная лексикография. – М.: Языки русской культуры, 1995. – 472 с.
33. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 911 с.
34. Белянин В.П. Психоллингвистика. – М.: Флинта, 2016. – 415 с.
35. Bierwisch M. The Semantics of Gradation. – Berlin: Springer-Verlag, 1989. – 262 p.
36. Ефанова Л. Г. Категория нормы в русской языковой картине мира. – Томск, 2013. – 501 с.
37. Galperin I. Stylistics. – М.: Высшая школа, 1977. – 334 с.

38. Иванов А.П., Никифоров В. Искусство пения. – М.: Голос-пресс, 2019. – 436 с.
39. Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение. – М.-Л.: Наука, 1965. – 112 с.
40. Квинн В. Прикладная психология. – СПб: Питер, 2000. – 560 с.
41. Колесникова С.М. Функционально-семантическая категория градуальности в современном русском языке. – М.: Флинта, 2021. – 280 с.
42. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л., – 447 с.
43. Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – 310 с.
44. Лекант П.А., Гольцова Н.Г. Современный русский литературный язык. – М.: Высшая школа, 2001. – 462 с.
45. Рафиев А. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004. – 105 б.
46. Севортян Э.В. Из истории прилагательных в тюркских языках // Тюркологические исследования. – М.: Известия АН, 1963. – 78 с.
47. Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. – М.: Просвещение, 1975. – 271 с.
48. Сэпир Э. Градуирование: семантическое исследование // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16: Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – 80 с.
49. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М.: Иностранная литература, 1960. – 372 с.
50. Туранский И.И. Семантическая категория интенсивности в английском языке // И.И.Туранский. – М.: Высшая школа, 1990. – 173 с.
51. Виноградов В.В. Русский язык. – М: Русский язык, 2001. – 720 с.

52. Vokhidova N. Ergebnisse inerwebbasierten Umfragezur Graduonymie // Aktendes 43. Linguistischen Kolloquiums: Pragmantax II. Zumaktuellen Standder Linguistikun dihrer Teildisziplinen, 2007.
53. Vokhidova N. Lexikalisch-semantische Graduonymieim Deutschen // GLDV-2007: Workshop on Lexical-Semantic and Ontological Resources: Proceedings / C.Kunze, L.Lemnitzer, R.Osswald. – P.128.
54. Якобсон Р., Фант Г.М., Халле М. Введение в анализ речи // Новое в лингвистике. – М., 1962. – 230 с.

III. Lug‘atlar

55. Bobojonov Sh., Islomov I. O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2009. – 46 b.
56. Большой академический словарь русского языка. Под ред. К.С.Горбачевича. – М.-СПб.: АНР, 2004. – 1 534 с.
57. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2018. – 118 b.
58. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2002. – 164 б.
59. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – 108 б.
60. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 б.
61. Ноҗийёв А. ва б. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati.– Toshkent: Sharq, 2001. – 336 b.
62. Раҳматуллаев Ш. ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 2022. – 407 б.
63. Словарь лингвистических терминов / Под ред. Ахмановой О.С. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.

64. Словарь литературоведческих терминов. Санкт-Петербург: Паритет, 2012. – 316 с.
65. Словарь русских синонимов и сходных по смыслу выражений / Абрамов Н. – М.: АСТ, 2008. – 672 с.
66. Словарь синонимов и антонимов современного русского языка / Под ред. А.С.Гавриловой. – М.: Аделант, 2014. – 512 с.
67. Словарь синонимов русского языка / Под ред. Евгеньевой А.П. – М.: Астрель: АСТ, 2003. – 702 с.
68. Словарь-тезаурус синонимов русского языка / под ред. Бабенко Л.Г. и др. – М.: АСТ-Пресс, 2021. – 448 с.
69. Словарь усилительных словосочетаний русского и немецкого языков / Под ред. Сущинского И.И. – М.: Русский язык, 1997. – 384 с.
70. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б.
71. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 672 б.
72. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 688 б.
73. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 608 б.
74. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 592 б.
75. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. 2 jildli. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 992 b.

IV. Badiiy adabiyotlar

76. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20-jildlik. – Toshkent: Fan. – 448 b.

77. Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug‘atayn. 16- jild. – Toshkent: Tafakkur, 2014. – 188 b.
78. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 2019. – 448 b.
79. Hamid Olimjon. She‘rlar, nazm. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2016. – 48 b.
80. Hoshimov O‘., Qalbingga quloq sol. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – 137 b.
81. Крылов И.А. Басни. – М.: Эксмодетство, 2020. – 162 с.
82. Oripov A. Saylanma. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2018. – 128 b.
83. Пушкин А.С. Полное собрание сочинений в 20-ти тт. – СПб.: Наука, – 858 с.
84. Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar. – Toshkent: Sharq, 2019. – 544 b.
Vohidov E. O‘zbekim: she‘rlar, dostonlar, hajviyalar, muxammaslar, tarjimalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 400 b.
85. Чехов А.П. Рассказы. Im Werden Verlag, München, 2005. – 42 б.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

86. Белоглазова Е.В. Градуальная функция разноуровневых средств языка в формировании диктумного содержания предложения. Дисс. ... канд. филол. наук. – Саранск, 2003. – 200 с.
87. Березницкая П.П. Типология и структура градуальных полей в русском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2004. – 20 с.
88. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Монография. – Тошкент: Фан. 1995. – 152 б.
89. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 27 б.

90. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 137 б.
91. Бондаренко М.В. Градуальность как свойство лексики и основание для построения лексической парадигмы: на материале французского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2001. – 138 с.
92. Данияров Б.Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нуткий муносабати, лексикографик тадқиқи. Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 33 б.
93. Джумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 231 б.
94. Элмуродова Л.Н. Ўзбек тилида даража функционал-семантик майдони (белги даражаси микромайдони). Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 29 б.
95. Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши. Филол. фан. док. ... дисс. – Самарқанд, 2005. – 250 б.
96. Файзуллаев М.Б. Сравнительно-типологические особенности лексико-семантических групп глаголов психического состояния в русском и узбекском языках. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1994. – 23 с.
97. Федяева Н.Д. Языковой образ среднего человека в аспекте когнитивных категорий градуальности, дуальности, оценки, нормы. Дисс. ... канд. филол. наук. – Омск, 2003. – 171 с.
98. Гиясов С. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Л.-Бухара, 1983. – 128 с.
99. Ильина А.Б. “Гибридные” слова с градуальной семантикой в современном русском языке: Наречия-частицы. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саранск, 2005. – 216 с.

100. Киреева Г.В. Междометие как показатель градуальности в современном русском языке. Дисс. ... док. филол. наук. – Саранск, 2010. – 217 с.
101. Кирьян А.Д. Градация как способ организации лексико-семантической группы (качественные прилагательные со значением характеристики человека в современном русском языке). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: Ун-т дружбы народов, 1981. – 22 с.
102. Колесникова С.М. Градационные отношения в современном русском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1993. – 225 с.
103. Колесникова С.М. Категория градуальности в современном русском языке. Дисс. ... док. филол. наук. – М., 1999. – 421 с.
104. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. Монография. – Тошкент: Фан, 1990. – 110 б.
105. Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 160 б.
106. Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Филол. фан. номз. ... дисс. – Фарғона, 2004. – 172 б.
107. Минка А.Н. Прилагательные со значением степени и дискурсивное варьирование их градуальных признаков (на материале русского и английского языков). Дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2005. – 149 с.
108. Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. Монография. – Тошкент: Фан, 2013. – 118 б.
109. Нагорная А.В. Семантическая градация “лексического просторечия” и его межъязыковая транспозиция (на материале английского и русского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ульяновск, 1998. – 26 с.
110. Нарзиева М.Д. Семантическая структура имён существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1992. – 28 с.

111. Назарова И.В. Наречия как средства репрезентации категории градуальности в современном английском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2009. – 182 с.
112. Нестерова Н.А. Градуальность в сложноподчинённых предложениях с атрибутивно-выделительными придаточными. Дисс. ... канд. филол. наук. – Саранск, 2005. – 172 с.
113. Нгуен Мань Хай. Градационные отношения в синонимических рядах качественных имен прилагательных современного русского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2019. – 227 с.
114. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – 113 б.
115. Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. – 27 б.
116. Прекина Н.В. Градуальная семантика русских пословиц. Дисс. ... канд. филол. наук. – Саранск, 2005. – 168 с.
117. Раҳмонов Ғ. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати. Филол. фан. бўйича фалс. док. ... дисс. – Фарғона, 2019. – 132 б.
118. Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке (на материале общеупотребительных зоонимов). Дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 142 с.
119. Халина Н.В. Категория градуальности в морфологии. Дисс. ... канд. филол. наук. – Барнаул, 1996. – 129 с.
120. Хаметова А. Превосходная и преувеличительная степени имён прилагательных в тюркских языках (на материалах современных узбекского, уйгурского, казахского и туркменского языков). Дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1969. – 122 с.

121. Зубайраева М.У. Градационность качественного признака (на материале чеченского и английского языков). Дисс. ... канд. филол. наук. – Грозный, 2008. – 119 с.
122. Шейгал Е.И. Интенсивность как компонент семантики слова в современном английском языке. Дисс. ... док. филол. наук. – М. 1981. – 244 с.
123. Щербаков А.В. Градация как стилистическое явление современного русского литературного языка. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Красноярск, 2004. – С.27-28.
124. Шиловская Л.В. Средства выражения ослабленной интенсивности действия и состояния в современном французском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2007. – С.197.
125. Ширинова Н.Д. Инглиз ва ўзбек тилларида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлашда градуонимик муносабатлар. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2020. – 246 б.
126. Ширинова Н.Д. Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарқлаш воситалари. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 123 б.
127. Чжао Нань. Градационные отношения и смежные явления в русских паремиях: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2020. – 163 с.

VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

128. Арбатская Е.Д., Арбатский Д.И. О лексико-семантических классах имён прилагательных русского языка // Вопросы языкознания. 1983, №1. С.52-66.
129. Асатурова С., Гелдиашвили Н., Гарибашвили М. Формы выражения категории сравнения в разносистемных языках // Актуальные вопросы теории и практики филологических исследований: материалы

международной научно-практической конференции. 25-26 марта 2011 г. – Пенза-М.: Решт: Социосфера, 2011. С.65-75.

130. Джумабаева Ж.Ш. Об исследовании лексической градуонимии. Актуальные вопросы теории и практики филологических исследований: материалы международной научно-практической конференции // Пенза-М.: Решт: Социосфера, 2011. С.20-22.

131. Ҳожиёв А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 2007, №2. Б.42-46.

132. Нигматова М.Ф. Градуонимические ряды в словаре узбекских, английских синонимов // Вестник науки и образования. – Иваново, 2021, №2 (105). С.56-58.

133. Переволочанская С.Н. Смысловые градации в рамках синонимических отношений // Вестник Нижнего Новгородского университета имени Н.И.Лобачевского. – Нижний Новгород, 2008, №4. С.252-255.

134. Родионова С.Е. Интенсивность и её место в ряду других семантических категорий // Славянский вестник. – М.: МАКС Пресс, 2004, №2. С.330-333.

VII. Internet saytlari

135. <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/oybek-mukammal-asarlar-toplami/attachment/oybek-asarlar/?lng=lat>.

136. <https://ushakovdictionary.ru/>

137. <http://lib.ru/POEEAST/ARISTOTEL/kategorii.txt>.

138. <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati/>

139. https://processing.ruscorpora.ru/search.xml?lang=ru&mode=main&nodia=1&p=16&req=%D0%BA%D0%BE%D1%81%D1%8B%D0%BD%D0%BA%D0%B0&sort=i_grtagging&text=lexform

140. [https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Tohir%20Malik.%20Shaytanat%20\(birinchi%20kitob\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Tohir%20Malik.%20Shaytanat%20(birinchi%20kitob).pdf)

141. <https://knijky.ru/books/hmuroe-utro?page=7>
142. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/otauli/otauli-ozbek-otellosi-hikoya/>
143. <https://knijky.ru/books/hmuroe-utro?page=221>
144. <https://classica-online.ru/catalog/moroz-krasnyy-nos-nekrasov-chast1-14/>
145. <https://klassika.ru/read.html?proza/gogol/dushi.txt&page=27>
146. <https://ziyouz.uz/ajoyibotlar/shar-manbalarida-ulchov-birliklari/>
147. <https://cyberleninka.ru/article/n/gradualnaya-funktsiya-imen-prilagatelnyh-v-sovremennom-russkom-yazyke>
148. <https://cyberleninka.ru/article/n/smyslovaya-refleksiya-pri-vyrabotke-sinteticheskogo-stilya-v-yazyke-a-s-pushkina/viewer>

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

DUSTMAMATOVA NILUFAR PIRIMKULOVNA

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA LUG‘AVIY GRADUONIMIYA

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY
DARAJASINI OLISH UCHUN TAYYORLANGAN DISSERTATSIYA
ILOVALARI VA SHARTLI QISQARTMALARI**

Toshkent – 2023

Mehribon-jahldor//добрый-злой oppozitsiyasi gradual ko'rsatkichlari

Ko'rsat kichlar	O'zbekcha graduonim komponentlar	Ko'rsat kichlar	Ruscha graduonim komponentlar
+4	<i>mehridaryo</i>	+4	<i>душевный</i>
+3	<i>saxiy</i>	+3	<i>добросердечный</i>
+2	<i>ko'ngilchan</i>	+2	<i>сердечный</i>
+1	<i>ochiqko'ngil</i>	+1	<i>доброжелательный</i>
0	<i>mehribon/jahldor</i>	0	<i>добрый/недобрый/незлой/злой</i>
-1	<i>badjahl</i>	-1	<i>недоброжелательный</i>
-2	<i>g'azabli</i>	-2	<i>злбный</i>
-3	<i>qahrli</i>	-3	<i>адский</i>

Rahmdil-rahmsiz//отзывчивый-бездушный oppozitsiyasi gradual ko'rsatkichlari

Ko'rsat kichlar	O'zbekcha graduonim komponentlar	Ko'rsat kichlar	Ruscha graduonim komponentlar
+4	<i>hamdard</i>	+4	<i>соотрадательный</i>
+3	<i>hayrixoh</i>	+3	<i>участливый</i>
+2	<i>sergak</i>	+2	<i>чуткий</i>
+1	<i>ziyrak</i>	+1	<i>внимательный</i>
0	<i>rahmdil/berahm/rahmsiz</i>	0	<i>отзывчивый/неотзывчивый/ бездушный</i>
-1	<i>shafqatsiz</i>	-1	<i>безжалостный</i>
-2	<i>dilozor</i>	-2	<i>бессердечный</i>
-3	<i>qahrli</i>	-3	<i>жестокий</i>
-4	<i>bag'ritosh</i>	-4	<i>жестокосердный</i>

Saxiy-ziqna//щедрый-скупой oppozitsiyasi gradual ko'rsatkichlari

Ko'rsat kichlar	O'zbekcha graduonim komponentlar	Ko'rsat kichlar	Ruscha graduonim komponentlar
+3	<i>hotamtoy</i>	+3	<i>королевский</i>
+2	<i>isrofgar</i>	+2	<i>расточительный</i>
+1	<i>olijanob</i>	+1	<i>великодушный</i>
0	<i>saxiy/ziqna emas/saxiy emas/ziqna</i>	0	<i>щедрый/нескупой/нещедрый/ скупой</i>
-1	<i>ochko'z</i>	-1	<i>жадный</i>
-2	<i>xasis</i>	-2	<i>прижимистый</i>
-3	<i>hirsli</i>	-3	<i>алчный</i>
-4	<i>baxil</i>	-4	<i>скарредный</i>

SHARTLI QISQARTMALAR

DK – daraja kategoriyasi

UGM – umumiy grammatik ma'no

FSM – funksional-semantik maydon

LSG – lug'aviy-semantik guruh

LSM – lug'aviy-semantik maydon

MAC – Малый академический словарь

CO – Словарь Ожегова

ЎТИЛ – Ўзбек тилининг изоҳли луғати

ТСРЯ – Толковый словарь русского языка

ТСУ – Толковый словарь Ушакова